

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



## O'QUV USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-  
METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“SUG'URTA ISHI”**  
yo'nalishi

**“SUG'URTA SOHASINI  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”**  
moduli bo'yicha

**O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

**Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020 yil "7" dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** Mavrulova N.A. - TMI, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Taqrizchi:** Shennayev X.M. – TMI, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 31 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....</b>	<b>17</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>85</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>93</b>
<b>VI. GLOSSARIY.....</b>	<b>119</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>222</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, Farmonida ta'lif sifatini oshirish va 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatlari oliy ta'lif muassasini QS va THE xalqaro reytinglarga kirishga maqsadli tayyorlash masalalariga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda zamonaviy iqtisodiy fanlar, bozor turlari va innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni va pirvordida iqtisodiy oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish,

maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori rivojlanishining yangi bosqichiga, ya'ni jamiyatimizning barcha iqtisodiy tarmoqlarida islohat qilishning to'liq ishtirokchisi sifatida o'zining manfaatlarini anglash bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan harakatlar strategiyasining 3.1. bandi makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga bag'ishlangan bo'lib, unda asosiy e'tibor sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan.

Iqtisodiyotda erishilgan marralar, istiqbolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, jahon bozoridagi real va yuzaga kelishi prognozlashtirilayotgan vaziyatdan kelib chiqib 2018 yilgi iqtisodiy dasturning bir qator eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalari belgilandi. Shuningdek, mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston sug'urta bozorini jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirishga etibor qaratilmokda va sug'urta bozorini modernizatsiyalash tubdan yangilashga katta etibor qaratilmoqda. Ma'lumki, hozirgi kunda dunyo miqyosida sug'urta xizmatlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari singari O'zbekistonda ham sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga o'tilishi sug'urta xizmatlarini inson hayotiy faoliyatida muxum o'rin egallashi tan olingan.

Sug‘urta xizmatlari sohasidagi erkinlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar ko‘lmlarini kengaytirish, mamlakatimizda uni taraqqiy ettirishning iqtisodiy omillarini kuchaytirish, sug‘urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida 2002 yilning 31 yanvarida O‘zbekiston Prezidentining “Sug‘urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Sug‘urta sohasini rivojlantirish istiqbollari” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg’or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg’or xorijiy tajribalar: modul-kredit tizimi, case study (keys stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar, evristik metodlarni o’zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo’llash, ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

“Sug‘urta sohasini rivojlantirish istiqbollari” **modulining vazifalari:**

“Sug‘urta ishi” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini uzlucksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o’zlashtirilishini ta’minlash;

mutaxassislik fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish;

“Sug‘urta ishi” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

### **Modul bo’yicha tinglovchilarning bilimiga, ko’nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar**

Mutaxassislik fanlar bo’yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetentsiyalarga ega bo’lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

sug'urta kompaniyalari faoliyat olib boradigan sohalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urta sohalarinig tarkibiy tuzilishi, ularni amalga oshirish bo'yicha davlat tomonidan qo'yiladigan talablar;

sug'urta risklarini baholash bo'yicha sug'urta munosabatlarini amalga oshirish yuzasidan xulosalar tayyorlashni;

sug'urta xizmatlaridan foydalanish huquqi va uni baholash tartib-qoidalarini; sug'urta xizmatlarini baholash va sug'urtada tarif stavkalarini aniqlashda ommaviy baholash usullarini ***bilishi kerak***.

***Tinglovchi:***

sug'urtalash jarayonlarida yuz berayotgan sug'urta ob'ektlarida baholash usullarining qo'llaniishini o'ziga xos xususiyatlari;

sug'urta ob'ektlarining joylashuv xususiyatlari;

sug'urta ob'ektlarini baholashni amalga oshirish;

sug'urta faoliyatidan tushgan daromadlari va sug'urta tarif stavkalari aniqlash;

sug'urta xizmatlarini baholash bo'yicha natijaviy xulosa tayyorlash bo'yicha;

garov qo'yilgan mulkni baholash xususiyatlariga oid ***ko'nikmalarini egallashi lozim.***

***Tinglovchi:***

sug'urtalash obyektlari va ular bo'yicha axborot usullar bazasini yaratish va undan samarali foydalanish;

sug'urta xizmatlaridan samarali foydalanishi;

sug'urtalanayotgan ob'ektini tahlil qilish;

sug'urta xizmatlarini baholash jarayoniga rioya qilinishiga oid ***malakalarini egallashi kerak.***

***Tinglovchi:***

sug'urta sohasining huquqiy asoslarini o'rganish;

sug'urta bozorini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni tashkil etish;

sug'urta faoliyatiga davlat tomonidan qo'yiladigan talablarni puxta egallah;

sug'urta mahsuloti iste'molchilari bilan muomala qilish;

sug'urta bozorida sug'urta mahsulotini yaratish texnologiyalarini tashkil etish kabi ***kompetentsiyalarni egallashi lozim.***

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Sug'urta sohasini rivojlantirish istiqbollari" modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lif shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma’ruzalarini tashkil etish;

virtual amaliy mashg’ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo’llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o’quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi**

“Sug’urta sohasini rivojlantirish istiqbollari” moduli o’quv rejadagi “Sug’urta ishi”, “Sug’urta texnologiyalari” hamda “Sug’urta nazorati” kabi o’quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliv ta’limdagi o’rni**

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar iqtisodiy globallashuvning hozirgi sharoitida zamonaviy mulk to’g’risidagi multifan va adolatli qiymat kontseptsiyasini baholash faoliyatida qo’llanilishi to’g’risida nazariy va amaliy bilimlar hamda doir kasbiy kompetentlikka ega bo’ladilar.

### **MODUL BO’YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o’quv yuklamasi, soat</b>					
		Hammasi	jami	Auditoriya o’quv yuklamasi			
				Nazariy mashg’ulot	Amaliy mashg’ulot	Ko’chma mashg’ulot	Mustaqil ta’lim
1.	O’zbekistonda majburiy sug’urta turlarini takomillashtirish mexanizmi	4	4	2	2		
2.	Sug’urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish	6	6	2	4		
3.	Sug’urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini, to’lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish muammolari	10	10	2	6		2
4.	O’zbekistonda sug’urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatini takomillashtirish mexanizmi	10	10	2	6		2
	<b>Jami:</b>	30	30	8	18		4

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarini takomillashtirish mexanizmi**

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish iqtisodiy mohiyati va qonunning asosiy maqsadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqiy asoslari. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish iqtisodiy mohiyati va qonunning asosiy maqsadi. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish iqtisodiy mohiyati va qonunning asosiy maqsadi.

### **2-mavzu. Sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish**

Sug'urta bozori tushunchasi. Sug'urta bozorini hududiy joylashuvi bo'yicha turi. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug'urta bozorining roli. Sug'urta bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Sug'urta munosabati ishtirokchilari faoliyati.

### **3-mavzu. Sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish muammolari**

Sug'urta kompaniyalarining daromadlari va ular tarkibining o'ziga xos xususiyatlari. Sug'urta kompaniyalarining xarajatlari va uning tarkibi. Sug'urta kompaniyasining foydasi va uni hisoblash. Sug'urta kompaniyasining investitsion siyosati. Sug'urtalovchining investitsion jarayonlarda ishtirok etish shart-sharoitlari. Sug'urtalovchining investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari.

### **4-mavzu. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatini takomillashtirish mexanizmi**

Sug'urta bozorini raqamlashtirishning muhimligi va ustunliklari. Sug'urta tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishning moliyaviy natijalarga ta'siri. Elektron sug'urta polislarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish jarayonlari.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. O'zbekistonda majburiy sug'urta turlarini takomillashtirish mexanizmi**

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish iqtisodiy mohiyati va qonunning asosiy maqsadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqiy asoslari. Ish

beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish iqtisodiy mohiyati va qonunning asosiy maqsadi. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish iqtisodiy mohiyati va qonunning asosiy maqsadi.

## **2-mavzu. Sug‘urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish**

Sug‘urta bozori tushunchasi. Sug‘urta bozorini hududiy joylashuvi bo‘yicha turi. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug‘urta bozorining roli. Sug‘urta bozori rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Sug‘urta munosabati ishtirokchilari faoliyati.

## **3-mavzu. Sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish muammolari**

Sug‘urta kompaniyalarining daromadlari va ular tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari. Sug‘urta kompaniyalarining xarajatlari va uning tarkibi. Sug‘urta kompaniyasining foydasi va uni hisoblash. Sug‘urta kompaniyasining investitsion siyosati. Sug‘urtalovchining investitsion jarayonlarda ishtirok etish shart-sharoitlari. Sug‘urtalovchining investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari.

## **4-mavzu. O’zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatini takomillashtirish mexanizmi**

Sug‘urta bozorini raqamlashtirishning muhimligi va ustunliklari. Sug‘urta tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishning moliyaviy natijalarga ta’siri. Elektron sug‘urta polislarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish jarayonlari.

## **KO’CHMA MASHG’ULOT**

“Sug‘urta sohasini rivojlantirish istiqbollari” moduli bo‘yicha o‘quv dasturida ko’chma mashg’ulot rejalashtirilmagan.

## **O’QITISH SHAKLLARI**

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o’qitish shakllaridan foydalilanadi:  
ma’ruzalar, amaliy mashg’ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);  
davra suhbatlari (ko’rilayotgan loyiha echimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);  
bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **«Blum kubigi» metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

1. Ushbu metodni ko'llash uchun, oddiy kub kerak bo'ladi. Kubning har bir tomonida ko'yidagi so'zlar yoziladi:  
Sanab bering, ta'rif bering (oddiy savol)  
Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)  
Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)  
Taklif bering (amaliyot bilan bog'liq savol)  
Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)  
Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)
2. O'qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O'qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so'z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### **“KWHL” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

- Know – nimalarni bilaman?  
Want – nimani bilishni xohlayman?  
How - qanday bilib olsam bo'ladi?  
Learn - nimani o'rganib oldim?

“KWHL” metodi			
1. Nimalarni bilaman:		2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:	
3. Qanday qilib bilib va topib olaman:-		4. Nimalarni bilib oldim:	

### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• хавфлар

### “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo’yicha o’rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o’quvchilarning mustaqil g’oyalari, fikrlarini yozma va og’zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg’ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg’ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o’qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo’lgan qismlari tushirilgan



har bir guruh o’ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o’z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo’yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o’z taqdimotlarini o’tkazadilar. Shundan so’ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to’ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:**

### “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining echimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo’llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash

4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishslash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish
---	---

### “Insert” metodi

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;

yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	Matn
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-MAVZU: O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTA TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

##### **REJA:**

1. Majburiy sug'urtani joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi
2. O'zbekiston sug'urta bozorida majburiy sug'urtaning jamiyat hayotidagi rolini oshirish istiqbollari

##### **1. Majburiy sug'urtani joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi**

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashib borayotgan bir paytda har bir soha va tarmoqni izchil takomillashtirib borish davr talabiga aylangan. Sug'urta sohasini ham takomillashtirish yuzasidan hukumatimiz tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2019 yilda Prezident ko'rsatmasiga binoan O'zbekiston sug'urta bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha Yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, sug'urta xizmatlarining YaIMdagi ulushini, sug'urta mukofotining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorini, jami sug'urta mukofotlarining hajmini, sug'urtalovchilarning ustav kapitalini, aktivlari va investitsiya hajmini jadal oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shu bilan birga, sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish, sohada innovatsiyalarni joriy etish hamda sug'urta xizmatlarining keng qamrovini ta'minlash vazifalari belgilandi.

2-jadval

##### **2019 — 2022 yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirishning**

##### **MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

T/ r	Ko'rsatkichlar nomi	2018 y (fakt)	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O'sish
1.	Sug'urta xizmatlarining YaIMdagi ulushi (foiz)	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	2,0 baravar
2.	Aholi jon boshiga sug'urta mukofotining miqdori (ming)	50,0	65,0	88,0	114,0	148,0	3,0 baravar

	<i>so'm)</i>						
3.	Jami sug'urta mukofotlarining hajmi ( <i>trln so'm)</i>	1,6	2,1	2,9	3,8	5,2	<i>3,3 baravar</i>
4.	Sug'urta tashkilotlarining jami ustav kapitali ( <i>trln so'm)</i>	0,5	0,8	0,9	1,0	1,2	<i>2,4 baravar</i>
5.	Sug'urta tashkilotlarining jami aktivlari ( <i>trln so'm)</i>	2,5	3,0	3,6	4,3	5,2	<i>2,1 baravar</i>
6.	Sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalari ( <i>trln so'm)</i>	2,0	2,5	3,3	4,1	5,3	<i>2,7 baravar</i>
7.	Sug'urta xizmatlari turlarining soni ( <i>birlik)</i>	105	115	135	155	175	<i>1,7 baravar</i>
8.	Hududiy bo'linmalar soni ( <i>birlik)</i>	1 450	1 500	1 580	1 660	1 740	<i>1,2 baravar</i>

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagи PQ-4412-son qaroriga 2-ILOVA*

Bu maqsadlarga erishish birinchi galda sug'urta bozorini tubdan isloh qilish, dastlab aholining qanday mahsulotlarga ehtiyoji borligini tadqiq qilish, ularga har tomonlama sifatli va qulay xizmatlarni taklif etish, sug'urta kompaniyalarining hududiy bo'linmalarini tashkil etish yo'li bilan sug'urtaning keng qamrovini ta'minlashni talab qiladi. Buning uchun esa sug'urta xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirish, hozirda talab etilmayotgan va qiziqish bildirmayotgan mavjud sug'urta xizmatlariga yangi sifatlarni berish orqali uni boyitish va mijozlarning qiziqishini shakllantirish maqsadga muvofiq. Jumladan majburiy sug'urtaning yangi turlarining amaliyotga joriy etilishi bunga misol bo'la oladi.

Fikrimizcha, majburiy sug'urta turlarini takomillashtirishning ikki xil yo'naliishi mavjud:

1. Sug'urta bozorida amalda bo'lган majburiy sug'urta turlari bo'yicha muammo va kamchiliklarini bartaraf etish orqali ularni takomillashtirish.

2. Jahon amaliyotini o'rganib, milliy sug'urta bozoriga majburiy sug'urtaning yangi turlarini joriy etish.

Xorij tajribasini o'rganish natijasida mamlakatimiz sug'urta bozoriga majburiy sug'urtaning yangi turi hisoblangan majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish majburiy sug'urta sohasini yanada takomillashtiradi, degan xulosaga keldik.

Tibbiy sug'urta sug'urtaning bir turi bo'lib, unda sug'urtalanuvchi sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga, tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini, sug'urtalanuvchi va sug'urta tashkiloti o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan summa va shartlar asosida sug'urta tashkilotiga o'tkazadi. Sug'urtalanuvchi salomatligi yomonlashgani sababli xarajat qilishga majbur bo'lganda, sug'urta tashkiloti ushbu xarajatlarni sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan pul summasi doirasida qoplab beradi.

Agar tibbiy sug'urta shartnomasi ixtiyoriy tarzda tuzilsa, u holda ixtiyoriy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Tibbiy sug'urta shartnomasi qonun asosida majburiy tarzda tuziladigan bo'lsa, ya'ni fuqarolar qonunga binoan, tibbiy sug'urta shartnomasi tuzishga majbur bo'lsalar, u holda sug'urtaning bu turi majburiy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta sug'urta faoliyat to'g'risidagi qonunchilik asosida faoliyat olib borayotgan va tijorat tashkiloti hisoblanuvchi sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Qonunchilikka asosan, majburiy tibbiy sug'urta sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan turi hisoblangani bois, ushbu sug'urta turini amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatiga oid qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin.

Majburiy tibbiy sug'urta ijtimoiy sug'urta ko'rinishida ham amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy sug'urtaning odatdagi sug'urtadan farq qiluvchi tomoni shundaki, ijtimoiy sug'urtada yagona ijtimoiy sug'urta fondi yaratiladi va bu fond asosan, sug'urta mablag'larini to'plab, tijorat maqsadlarini ko'zlamagan holda mablag'larni mo'ljaldagi maqsadlarga qayta taqsimlaydi. Majburiy tibbiy sug'urtani ijtimoiy sug'urta sifatida amalga oshirganda bu sohadagi munosabatlar

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik doirasiga tushmaydi. Bu o'z navbatida ushbu sohadagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi yangicha me'yoriy-huquqiy aktlar majmuasini ishlab chiqishni talab etadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, majburiy tibbiy sug'urtaning universal modeli amaliyotda yo'q. Har bir mamlakat o'zining sog'liqni saqlash va sug'urta tizimidan kelib chiqqan holda majburiy tibbiy sug'urta tizimini yaratadi. Sog'liqni saqlash tizimi davlat va xususiy tibbiyot muassasalariga bo'linadi. Xususiy tibbiyot muassasalari o'z faoliyatini Sog'liqni saqlash vazirligi bergan ruxsatnoma (litsenziya) asosida olib boradi. Davlat tibbiyot muassasalari respublika sog'liqni saqlash tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Davlat tibbiyot muassasalari uch bosqichga: respublika, viloyat va tuman (shahar, qishloq) bosqichlariga bo'linadi.

Agar tibbiy xizmatlarni shartli ravishda uch turga: birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, ixtisoslashgan tibbiy yordam va yuqori texnologik tibbiy yordamga ajratsak, bu xildagi xizmatlar turli tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatilishini ta'kidlash kerak bo'ladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami o'z ichiga ancha keng tarqalgan kasalliklar, jarohatlar, zaharlanish va boshqa shu kabi vaziyatlarda shoshilinch yordam ko'rsatadi, sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi, o'ta muhim kasallikkarga qarshi profilaktik tadbirlarni bajaradi, oila, onalik va bolalikni muhofaza etishga oid choralarни ko'radi, fuqarolarga turar-joylariga qarab tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi.

Masalan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, uning viloyatlardagi filiallari, tuman (shahar) kasalxonalarining shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari, shuningdek, qishloq vrachlik punktlari va shahardagi oilaviy poliklinikalar tomonidan ko'rsatiladi. Yuqori texnologik tibbiy yordam diagnostika, davolashning maxsus usullari hamda murakkab tibbiy texnologiyalar va uskunalardan foydalanishni talab qiladigan kasallikkarda ko'rsatiladi.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam respublika davolash-profilaktika muassasalari, respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot

markazlari, ixtisoslashgan kasalxonalar, dispanserlar, tuman (shahar) tibbiy birlashmalari kabilar tomonidan ko'rsatiladi.

Bugungi kunda respublikada majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan turli ko'rinishlari keng tadbiq etilyapti. Masalan, "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash", "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash" hamda "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish". Majburiy sug'urtaning bu turlari birinchi navbatda yo'l-transport hodisalari yoki xizmat vazifalarini ado etayotgan vaqtida yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalardan ijtimoiy himoyani kafolatlash va ta'minlashga qaratilgan.

Tabiiy ravishda "Majburiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish sog'liqni saqlash tizimiga nima beradi" degan savol tug'ilishi mumkin. Agar iste'molchi nuqtai-nazaridan yondoshiladigan bo'lsa, bugungi kunda u birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini va ixtisoslashgan tibbiy yordamning kafolatlangan tibbiy-sanitar yordam doirasidagi ba'zi turlarini (ijtimoiy ahamiyatga molik, atrofdagilarga xavf solishi mumkin bo'lgan kasalliklar, tug'ruqqa yordam xizmatlari) bepul olishi mumkin.

Ixtisoslashgan tibbiy yordamning boshqa turlari va yuqori texnologik tibbiy yordam iste'molchi uchun pullik bo'ladi. Bundan tashqari, pullik tibbiy xizmatlar shuningdek, xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ham ko'rsatiladi.

Bayon etilganlarni hisobga olib, majburiy tibbiy sug'urtani pullik tibbiyot qismida joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu fuqarolarning tibbiy xizmatlar uchun xarajatlarini bir maromda taqsimlash va tibbiy xizmatlar uchun belgilangan hajmda haq to'lashini kafolatlaydi. Ixtisoslashgan tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning asosiy qismi, davolangan har bir holat uchun haq to'lash usulida moliyalashtirishga bosqichma-bosqich o'tayotgani bois, moliyalashtirishning bu usuli tibbiy sug'urta mexanizmi bilan muvaffaqiyatli tarzda bog'lanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish birinchi navbatda, vakolatli davlat organi tomonidan yagona klassifikator, shuningdek,

uning asosida tibbiy xizmat turlarining narxlarini shakllantirish standartlarini tatbiq qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlarning majburiy sug'urta bilan qoplanadigan hajmini belgilash kerak bo'ladi.

Majburiy tibbiy sug'urtani amalda joriy etish shuningdek, bir nechta asosiy masalalarni hal etishni taqozo qiladi. Bular:

- tibbiy sug'urtani qay shaklda joriy etgan ma'qul: ijtimoiy sug'urta shaklidami yoki tijorat sug'urtasi shaklidami;
- majburiy tibbiy sug'urta uchun to'lovlar qaysi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi;
- majburiy sug'urtaning qamrovi qanday bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, majburiy tibbiy sug'urta, ijtimoiy sug'urta yoki sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq majburiy sug'urta shaklida amalga oshirilishi mumkin. Tibbiy sug'urtaning ijtimoiy sug'urta shaklida joriy etilishi Fond tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu fond majburiy tibbiy sug'urta mablag'larini jamlab, shu mablag'lar hisobiga sug'urtalanuvchilar (sug'urta polislari egalari)ning tibbiy xizmatlari uchun to'lovni amalga oshiradi. Tibbiy sug'urtani bu shaklda tashkil qilish qo'shimcha ma'muriy xarajatlarga olib keladi. Chunki fond respublikaning barcha viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu tuzilma faoliyati sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunga mos kelmaydi va ijtimoiy sug'urtaning ushbu turi va fond faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy-huquqiy aktlar ishlab chiqishni talab etadi.

Lekin tibbiy sug'urtani tashkil qilishning boshqa varianti ham majud. Bu mamlakatdagi mavjud bo'lgan va rivojlanayotgan sug'urta tizimidan foydalangan holda majburiy sug'urtani tashkil etishdir. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka binoan, majburiy sug'urtaning asosiy shartlari va uni amalga oshirish tartibi qonunga muvofiq belgilanadi. Sug'urtaning mazkur turi bilan shug'ullanuvchi sug'urta tashkilotlari uchun qonunga muvofiq, majburiy tibbiy sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida talablar belgilanadi. Misol uchun, ma'lum darajadagi ustav kapitali, respublikaning barcha

viloyatlarida alohida bo'linmalarining mavjudligi, shtatda ma'lum bir malakaga ega bo'lgan shifokarlarning mavjudligi yoki shtatida mana shunday malakaga ega shifokori mavjud bo'lgan assistans kompaniyalar bilan kelishuv imzolanganligi va h.k. Majburiy sug'urtaning mazkur turi tibbiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan ko'rinishi bo'lgani bois sug'urta kompaniyalarining bugungi kunda mamlakatda amal qilayotgan boshqa majburiy sug'urta turlariga o'xshash ravishda xarajatlari va daromadlari me'yorlari belgilanadi. Bu variant majburiy sug'urtani mamlakatdagi mavjud sug'urta tizimidan foydalangan holda joriy etishga imkoniyat yaratib, yangi tizimni yaratish va uni rivojlantirish uchun qo'shimcha xarajatlarni talab etmaydi.

Bundan tashqari, tijorat tashkilotlari hisoblangan sug'urta kompaniyalari tomonidan tibbiy sug'urtani amalga oshirish qator o'ziga xosliklarga ega bo'lib, sug'urtalanuvchiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar hajmi va sifatini nazorat qilishga imkon beradi. Sug'urta kompaniyalari tijorat tashkilotlari bo'lgani bois tibbiy sug'urta bo'yicha mijozni qo'lga kiritish uchun o'zaro raqobatlashadi. Majburiy tibbiy sug'urta narxlari davlat tomonidan belgilangani bois sug'urta xizmatlari sifati sug'urta tashkilotlari uchun yagona raqobat maydoni bo'lib qoladi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlar uchun me'yordan ortiq haq to'lamasligi uchun sug'urta tashkiloti o'z mijoziga kerakli hajmda va sifatda tibbiy xizmat ko'rsatilishidan manfaatdor bo'ladi.

Shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani joriy etishda sug'urta bo'yicha to'lovlar manbaining belgilanishi eng muhim masala hisoblanadi. Bu holda fuqarolarning, korxonalarning daromadlari va byudjet mablag'lari to'lov manbalari bo'lishi mumkin. Majburiy sug'urta bilan qamrab olinadigan alohida toifadagi fuqarolar uchun yuqorida keltirilgan manbalardan biri yoki u yoxud bu turdag'i to'lov manbalari birgalikda to'lov manbasi vazifasini o'tashi mumkin. Bugungi kunda korxonalarning mablag'lari ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha asosiy to'lov manbai bo'lib qolyapti. Bu to'lovlar korxonalarning xarajatlari bo'lib, qonunchilikda belgilangan me'yorlarda mahsulot (tovar, xizmat) tannarxini shakllantiradigan xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Majburiy to'lovlar bo'yicha to'lov manbaini belgilash boshqa bir muhim masala bilan bevosita bog'liq. Bu majburiy sug'urta qamrovini belgilashdir. Ma'lumki, majburiy sug'urtaning tamoyillari bu - umumiylilik va majburiylikdir. Faqat majburiy sug'urtaning ma'lum bir turida qatnashuvchilar soni ko'p bo'lsagina uning samaradorligi baland bo'ladi. Shuningdek, imtiyozli hisoblangan va davlat kafolatlagan tibbiy-sanitariya xizmatlari doirasida yordam olayotgan ba'zi toifadagi fuqarolardan tashqari, barchani qamrab olgandagina majburiy sug'urta kutilgan samarani berishi mumkin.

Masalan, korxona va tashkilot xodimlarini ish beruvchining mablag'lari hisobiga sug'urtalash yoki majburiy sug'urta uchun aralash to'lovnini qo'llash mumkin. Bunda majburiy sug'urta uchun to'lovlearning bir qismi xodim hisobidan qoplanadi. Bu holda yana bir savol tug'iladi: boshqa toifadagi fuqarolarni (masalan, ishsizlar, nafaqadagilar) qanday qilib majburiy sug'urtaga jalb etish mumkin va ular qaysi manbalar hisobiga sug'urta to'lovlarini to'laydilar?

Xorijiy amaliyotda odatda mana shunday toifadagi fuqarolar uchun majburiy sug'urta to'lovlarini davlat yoki tegishli jamoatchilik fondlari to'laydi. Demak, fuqarolarning yuqorida keltirilgan toifalari uchun to'lov manbaini bo'lib bandlik fondi, nafaqa fondi va shu kabilar xizmat qilishi mumkin (ehtimol, fondlarning ushbu xarajatlari davlat byudjeti tomonidan ma'lum darajada kompensatsiyalanishi mumkin).

Sog'liqni saqlash tizimida bugungi kunda ham islohotlar jarayoni davom etayotgan ekan, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va isloh qilish yo'nalishlarini hisobga olgan holda joriy etish zarur. Xususan, majburiy tibbiy sug'urtaning bosqichma-bosqich joriy etilishi sug'urta qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirib borishni ko'zda tutadi. Masalan, agar birinchi bosqichda aholining ishlayotgan qismi majburiy sug'urta bilan qamrab olinsa, bir muncha vaqt o'tib, mazkur mexanizm sinab ko'rildigan keyin ikkinchi bosqichga o'tish va majburiy sug'urta qamrovini yanada kengaytirish mumkin bo'ladi. Birinchi bosqichda shuningdek, tibbiy xizmatlarga

xususiy to'lov imkoniyati saqlab qolinishi yoki majburiy sug'urta to'lovlari orqali haq to'lash amalgalashish lozim.

Albatta, biron-bir yangi tizimni joriy qilishdan avval uning miqdor va sifat oqibatlari baholanadi. Majburiy tibbiy sug'urtaning joriy etilishi barcha fuqarolar yoki ish beruvchilarni har yili tibbiy sug'urta uchun haq to'lab borishini talab qiladi. Agar majburiy tibbiy sug'urta uchun sug'urta tariflari xodimning yillik ish haqi hajmi yoki korxona va tashkilotning yillik mehnatga haq to'lash fondi hajmidan kelib chiqib belgilanadigan bo'lsa, u holda tibbiy sug'urta ish haqi hajmidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarni ma'lum hajmdagi tibbiy xizmat bilan ta'minlash imkonini beradi. Bu holda tibbiy xizmat xarajatlari xodim yoki ish beruvchi uchun qanchalik katta ekanligini va bu xarajatlar aholi yoki korxonaning daromadi darajasiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini baholash zarur bo'ladi.

Bundan tashqari, agar majburiy sug'urta to'lovi ba'zi toifadagi fuqarolar uchun davlat byudjeti hisobidan to'lansa, bu davlat byudjetida majburiy tibbiy sug'urta xarajatlarining hisobga olinishini talab etadi. Byudjet tashkilotlari xodimlarini sug'urtalash davlat byudjetining majburiy sug'urtaga ajratilgan xarajatlarining oshishini anglatadi. Bu holda shuni nazarda tutish kerakki, davlat byudjetining tibbiy sug'urta xarajatlarini, tibbiy sug'urta orqali tibbiy muassasalarni moliyalashtirish kengayganligi sababli, tibbiy muassasalarni byudjetdan moliyalashtirish hajmini qisqartirish hisobiga kompesatsiyalash mumkin.

Umuman olganda, majburiy tibbiy sug'urta tizimi mamlakat iqtisodiyotidagi xarajatlar hajmini korxona, tashkilot, aholi va davlat byudjeti o'rtasida qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Shu bilan, majburiy tibbiy sug'urta tizimi davlat tomonidan muvofiqlashtirilsa ham, o'zining alohida bo'g'inlarida bozor iqtisodiyoti belgilari va raqobatni mujassamlashtiradi hamda o'z navbatida tibbiy sug'urta mablag'larining maqsadli sarflanishi va ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining oshishiga bevosita sabab bo'ladi. Bu esa mamlakat sog'liqni saqlash tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **2. O’zbekiston sug’urta bozorida majburiy sug’urtaning jamiyat hayotidagi rolini oshirish istiqbollari**

Sug’urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o’rni hozircha katta emas<sup>1</sup>. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi<sup>2</sup>da iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, sog’lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minalash, “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish borasida aniq vazifalar belgilangan bo’lib, uning ijrosini amalga oshirish bevosita iqtisodiyot tarmoqlari zimmasiga jiddiy mas’uliyat yuklaydi. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishning uzluksizligini ta’minalash hamda soha va tarmoqlarga investitsiya kiritish orqali o’sishni rag’batlantirish borasida faoliyat olib boruvchi sug’urta kompaniyalari ham shular jumlasiga kiradi. Shu bilan bir vaqtda, katta qiymatga ega ob’ektlarni sug’urtaviy himoyalashda sug’urta kompaniyalarining o’zi ham moliyaviy qo’llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi.

Sug’urta kompaniyalari tomonidan xizmat ko’rsatish sifatini oshirish, sug’urta qoplamarini to’lash uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish, sug’urta hodisasi sodir bo’lgan vaqt bilan sug’urta qoplamasini to’lash oralig’ini qisqartirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Sug’urta da’vosini ko’rib chiqish nafaqat sug’urta mahsuloti sifatini baholovchi, balki sug’urta kompaniyalariga bo’lgan ishonchlilik darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Sug’urtalanuvchi aniq bir mulkni yoki javobgarlikni sug’urta himoyasiga topshirar ekan, birinchi navbatda u ma’lum bir

<sup>1</sup>[www.president.uz/uz/2703](http://www.president.uz/uz/2703). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг сугурта хизматлари бозорини ривожлантириш масалалари бўйича сўзлаган нутки. 2019 йил 10 июл.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5635-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ти Фармони. 2019 йил 17 январ.

hodisa natijasida etkazilgan zararni sug'urtalovchi tez va sifatli qoplashi yuzasidan mulohaza qilishi aniq. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi bo'yicha yo'l transport hodisasi sodir etilganda da'vo ishlarini hal etish uzoq muddatlarga cho'zilib ketmoqda. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning sug'urta kompaniyasiga bo'lgan ishonchiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sug'urta da'vosining o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun bir necha omillar sabab bo'lmoqda. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda eng ko'p va juda tez-tez uchraydigan asosiy hodisa bu yo'l-transport hodisasi hisoblanishi sababli, ushbu hodisa sodir bo'lganda sug'urta munosabatlarini tartibga solishdagi asosiy muammolarni ko'rib chiqamiz.

1-muammo. Ma'lumki, yo'l-transport hodisasi kunning istalgan qismida sodir etilishi mumkin. Tunda sodir bo'lgan hodisa oqibatida jabrlanganlar (transport vositasi egasi yoki hodisada jabrlanganlar) sug'urta kompaniyasiga murojaat etishi uchun sug'urta kompaniyalarida aynan murojaatlarni qabul qiluvchi navbatchilik tizimi mavjud emas. Demak, tunda yoki kunning kechki paytida sodir bo'lgan hodisalarni faqat DAN aniqlaydi, jabrlangan shaxslar esa istalgan tibbiyot muassasasiga murojaat etadilar. Shundan so'ng kompaniyada hodisa oqibatlarini narxlash yuzasidan e'tirozlar paydo bo'lishi mumkin.

1-taklif. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari tunu-kun murojaatlarni qabul qilish bo'yicha xizmatlarni tashkil etishi, ular tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini joriy etish zarur. Buning uchun TVEFJMSga ruxsat etilgan barcha kompaniyalar o'z tarkibida assistans kompaniyalarini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi va xorijiy sug'urta tashkilotlarining amaliy tajribalarini o'rgangan holda etkazilgan zararlarni to'g'ridan-to'g'ri hal qilish mexanizmlarini qo'llashni taklif qilamiz. Zararlarni bunday tartibda to'lab berishdan maqsad sug'urtalanuvchilarni ortiqcha qog'ozbozliklardan va asoslanmagan xarajatlardan ozod qilishdir. Majburiy sug'urtada sug'urtalash shartlari, sug'urta qoidalari, tarif

stavkalari va sug'urtalanadigan risklar hukumat qarorlari asosida belgilanadi. Shunday ekan, majburiy sug'urta xizmatlari bozorida raqobat xizmat ko'rsatishning sifati va etkazilgan zararlarni operativ hal qilish muddatlariga qaratiladi. Shu sababli, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda zararlarni to'g'ridan-to'g'ri qoplab berish mexanizmlarining joriy etilishi sug'urta tashkilotlari tomonidan yangi mijozlarni jalg qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirda rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida sug'urta qoplamasini to'lashning ushbu usuli qo'llaniladi. Bunda sug'urta kompaniyalari birlashib to'g'ridan-to'g'ri qoplamani to'lash haqida kelishuv tuzadilar. Qoplamani to'lashning ushbu usuli ayniqsa aybdor shaxs mutloq aniq bo'lganda juda samarali natija beradi.

2– muammo. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatimiz tomonidan aholi turmush darajasini yaxshilash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholi orasida tadbirkorlikni va xususiy biznesni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ish beruvchilar ko'paymoqda va ularning o'z ishchilari oldidagi javobgarligini majburiy sug'urtalash birinchi o'rindagi vazifalardan biriga aylanmoqda. Ammo bu vazifalarni bajarishda sug'urtalovchilar oldida bir qator muammolar mavjud. Ya'ni, mazkur sug'urta turining O'zbekistondagi mavjud barcha ish beruvchilarni to'liq qamrab ololmayotganligi va sug'urtalanganlari ham qoidalarda ko'rsatilgan eng yuqori riskli ish joylaridagi sug'urtalanuvchilar (past riskli ish joylari nisbatan kam sug'urtalangan) ekanlidir.

2 – taklif. Majburiy sug'urtanening ushbu turi bo'yicha agentlik haqini optimal darajada joriy etish va agentlarga ushbu tur bo'yicha nazoratning bir qismini ya'ni, potentsial sug'urtalanuvchilardan ular sug'urtalangan yoki sug'urtalanmaganligi, sug'urtalanishi kerak bo'lgan oxirgi muddat qachonligi haqidagi asosli ma'lumotlarni so'zsiz olish huquqini berish va sug'urtalanuvchilar talablarni bajarmaganligi ma'lum bo'lganda, ushbu holat yuzasidan agentlar asosiy nazorat organi bilan bog'lanib jazo ko'riliishi tizimini tashkil qilish taklif etiladi.

## **2-MAVZU: SUG'URTA BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH VA KENGAYTIRISH**

### **REJA:**

1. Sug‘urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari.
2. Sug‘urta bozorining turlari va ularga umumiy tavsifnoma.
3. Sug‘urta bozori infratuzilmasining sug‘urta bozori rivojlanishidagi ahamiyati.
4. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning ob’ektiv zarurligi va shakllari.

#### **1. Sug‘urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari**


Ma’lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo‘ladi hamda ular o‘rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug‘urta bozorida ham sotuvchi (sug‘urtalovchi) va xaridor (potensial sug‘urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu erda potensial sug‘urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potensial sug‘urtalanuvchini to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtananuvchi, deb atasak katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug‘urta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug‘urta “mahsulotini” sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug‘urtalovchilar bilan tegishli sug‘urta munosabatlariga kirishmagan shaxslar potensial sug‘urtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sug‘urtalovchilar haqida gapiradigan bo‘lsak, sug‘urtalovchi - bu mamlakat xududida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug‘urta o‘zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Ko‘rinib turibdiki, sug‘urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo‘lishi va sug‘urtaga bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalar bilan shug‘ullanmasligi zarur.

Sug‘urtalovchilar bozorga o‘zlarini ishlab chiqargan o‘ziga xos mahsuloti - sug‘urta xizmatini taklif etadilar. Ushbu xizmatlar yuzlab, minglab sug‘urta

kompaniyalari tomonidan sotilishi mumkin. O‘z-o‘zidan, bu holat sug‘urta bozorida potensial mijozlarni jalb etish uchun sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi va “mahsulot”ning sifatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng asosiysi, potensial sug‘urtalanuvchi har tomonlama o‘zining talabini qondiradigan “mahsulot”ga ega bo‘ladi. Bayon etilganlar quruq gap emas, balki bugungi kunda iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar bozorida ruy berayotgan oddiy haqiqatdir. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni quyidagi chizmada yaqqol ko‘rish mumkin.

Sug‘urta bozorining mohiyatini chuqurroq anglab olish uchun kundalik xayotimizdan oddiy bir misol keltirsak maqsadga muvofiqdir.

O‘zimiz yoki bolalarimizga kiyim-kechak sotib olish uchun buyum bozoriga boramiz. Aytaylik, birorta kiyim, aniqrog‘i, kuylak sotib olmoqchimiz. Bozorda kuylakning har xili mavjud, baholari xam, narxi xam turlicha. Biz, albatta, sifati yaxshisini va bahosi arzonini sotib olamiz. Sug‘urta bozorida ham aynan shu jarayon yuz beradi.



**Sug‘urta kompaniyalari**

**Sug‘urtalanuvchilar**

**1-rasm. Sug‘urta bozori va uning sub'ektlari**

Sug‘urta kompaniyasi o‘z mahsulotini bozorda sotar ekan, zimmasiga katta mas’uliyat olganligini unutmasligi kerak. Chunki, sug‘urtalovchi ozgina sug‘urta mukofoti evaziga yirik mikdordagi riskni qabul qilib oladi va sug‘urta hodisasi ruy berganda zimmasidagi sug‘urta qoplamasini to‘lashi shart. Shu o‘rinda, biz sug‘urta kompaniyasiga murojaat qilishni istagan yoki muayyan sug‘urta xizmatiga ehtiyoj sezgan shaxslarga sug‘urta shartnomasini tuzishdan oldin sug‘urta kompaniyasining moliyaviy axvoli, balansi bilan albatta tanishib chiqishlarini maslahat qilamiz.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi, sug‘urta xizmatining ham bahosi talab va taklif asosida paydo bo‘ladi hamda bu baho o‘zining pastki va yuqori chegaralariga ega. Sug‘urta tushumlarining miqdori sug‘urta to‘lovlari va sug‘urta tashkilotlari xarajatlari miqdoriga teng bo‘lishi sugurta baxosining pastki chegarasini bildiradi. Bunday sharoitda sug‘urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda ololmaydi. Ko‘p hollarda sug‘urta bozoridagi keskin raqobat, sug‘urta tashkilotlarining potensial mijozlarni jalb etish maqsadida tarif stavkalarini kamaytirishga majbur etadi. Chet mamlakatlarda, sug‘urtalovchilar sug‘urta faoliyatidan zarar ko‘rganda, bu zarar investitsiyadan keladigan daromad hisobidan qoplanadi.

Sug‘urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug‘urta xizmatining ma’lum bir turiga etarli darajada talab mavjud bo‘lganda, sug‘urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o‘tishi bilan bozorda sug‘urta xizmati ko‘rsatish turlarining ko‘payishi bilan, o‘z-o‘zidan tarif stavkalari kamayadi.

**2.** Sug‘urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug‘urta bozorlariga bo‘linadi. Milliy sug‘urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug‘urta muassasalarini va ularni faoliyatini o‘z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug‘urta bozori Amerika Qo‘shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig‘iladigan sug‘urta tushumlarining 43 foizdan ortig‘i AQSH hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu erda hayotni sug‘urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiylardagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatuvchi 3800

ta kompaniya faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan ba’zi birlari dunyo sug‘urta bozorida ham oldingi o‘rinlardadir. Masalan, “Prudenshial of Amerika” kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va 1992 yil boshida mavjud aktivlari, to‘plagan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha uchinchli o‘rinni egalladi.

Mintaqaviy sug‘urta bozori deganda savdo, iqtisodiy va boshqa jihatlardan o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan bir nechta mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Evropa Ittifoqining sug‘urta bozori yirik mintaqaviy bozordir.

Xalqaro sug‘urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug‘urta faoliyatini olib boruvchi alohida mamlakatlarning ichki bozori tushuniladi. Jumladan, hozirgi vaqtda Yaponiya sug‘urta bozorining xalqaro darajada muxim o‘rni bor va keyingi o‘n yillikda Yaponiya sug‘urtachilari dunyo bozorida etakchilik qilib kelishmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, 1992 yili jahondagi eng yirik 20 ta hayotni sug‘urta qiluvchi kompaniyalar ichida 9 tasi yoki 45 foizi Yaponiyaga tegishlidir. Bu kompaniyalarning moliyaviy salohiyati 869 mlrd. doll. miqdorida baholangan.

Sug‘urta bozorlari hududiy bo‘linish bilan bir qatorda sug‘urta turlariga qarab ham xilma-xil bo‘lishi mumkin. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sug‘urta bozori ikkiga bo‘linadi: 1) Hayotni sug‘urta qilish bilan bog‘liq sug‘urta xizmatlari bozori; 2) Umumiyligida sug‘urta xizmatlari bozori.

**3.** O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu jarayonda sug‘urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topmoqda. Sug‘urta instituti bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida uning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta faoliyatida risklar transferi ham o‘z navbatida, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda, «infratuzilma» tushunchasi iqtisodiy ilmiy lug‘atlarda turlicha: masalan, «asosiy ishlab chiqarish sohalari va aholiga xizmat ko‘rsatuvchi iqtisodiy tarmoqlar yig‘indisi» yoki «ma’lum tarmoqqa xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi tarmoqlar majmuasi» kabi ma’nolarda qo‘llanilishini qayd etish mumkin. Xususan, sug‘urta bozori infratuzilmasining mazmun-mohiyatini ochib berishda, iqtisodiyot sub’ektining samarali faoliyat

yuritishi uchun kafolatli shart-sharoit yaratuvchi faoliyat turlari majmuasi nazarda tutiladi. Ma'lumki, sug'urta mahsuloti sotilishining o'ziga xos jihatlari mavjud va bu jarayon:

- sug'urta riski haqida axborot to'plash va uni aniqlashtirish;
- sug'urta shartnomasini imzolash va uning amal qilishini ta'minlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta faoliyatida risklar transferining mazkur bosqichlari o'ziga xos bilimni talab etadi. Ayni vaqtda ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, ma'lum qisqa davr oralig'ida talab etilayotgan mutaxassis kompaniyaning shtatlar birligiga kiritilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanishi ham mumkin. Shuning uchun kompaniya o'z faoliyatida, odatda boshqa soha mutaxassislari xizmatidan foydalanadi. Demak, ta'kidlash mumkinki, sug'urta bozori infratuzilmasi uning professional ishtirokchilari va boshqa soha mutaxassislari o'rtasidagi o'zar munosabatlar sifatida sug'urta faoliyatida risklar transferining samaradorligini ta'minlovchi omil sanaladi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining o'ziga xosligidan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, uning tarkibiga sug'urta vositachilari, sug'urtachilar uyushmasi, avariya komissari, syurveyer, aktuariy, sug'urta auditori, maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar hamda baholovchi firmalar kabi sub'ektlar kiradi. Shu o'rinda, London sug'urta bozori infratuzilmasi tarkibiga sug'urta anderryterlari ham kiritilganligini qayd etish mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozorida o'ziga xos o'ringa egadir. Masalan, aktuariy sug'urta xizmatlari narxini aniqlashda qatnashuvchi sub'ekt sanaladi. Bunda, u katta sonlar va ehtimollik qonunlari, shuningdek, statistik ma'lumotlardan foydalanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari aktuariy faoliyatiziz sug'urta xizmatlariga iqtisodiy asoslangan narxlarning belgilanishini ta'minlay olmaydi. Aktuariy sug'urta faoliyatini strategik rejulashtirish, sug'urta sohalari, klass(tur)lari, shuningdek, kompaniya bo'yicha sug'urta portfeli tarkibi va sifatining tahlili kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Ayrim davlatlarda sug'urta

tashkilotining hisoboti uning vakolatli shaxslaridan tashqari aktuariy tomonidan ham tasdiqlanishi talab etiladi.

## **2. Sug‘urta bozorining turlari va ularga umumiy tavsifnama.**

Sug‘urta bozori infratuzilmasining yana bir asosiy sub’ekti bu avariya komissaridir. U sug‘urta hodisasi yuz berganidan so‘ng shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatda ishtirok etadi. Ta’kidlash mumkinki, avariya komissari sug‘urta tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. U sug‘urta tashkilotining vakili sifatida sug‘urta hodisasi oqibatida zarar ko‘rgan mulkni ko‘rikdan o‘tkazadi, uning ko‘lami va sabablarini aniqlaydi hamda avariya sertifikatini tuzadi. Ba’zi mamlakatlarda sug‘urta tashkiloti tomonidan avariya komissariga ma’lum limit doirasida yo‘qolgan mulkni qidirish xarajatlarini amalga oshirish huquqi ham berilishi mumkin.

Mamlakatimizda aksariyat hollarda sug‘urta tashkilotining o‘zi yoki hodisaning turiga qarab tegishli tashkilot (yo‘l patrul xizmati, baholovchi tashkilot va boshqa)lar tomonidan avariya komissarining vazifasi bajarilmoqda. Bu holat, albatta sug‘urta xizmatining sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Mazkur jarayonda avariya komissari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlantirilishi turli sub’ektlarning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchlari ortishiga omil bo‘ladi.

Sug‘urta bozori infratuzilmasida avariya komissari bilan «yonma-yon» syurveyer va dispasherlar kabi sub’ektlar ham faoliyat ko‘rsatadi. Syurveyer - bu maxsus ekspert bo‘lib, u sug‘urta ob’ektlarini sug‘urta tashkiloti so‘roviga asosan ko‘rikdan o‘tkazuvchi sub’ekt sanaladi. U sug‘urtalanuvchi tomonidan ob’ektni ko‘rikdan o‘tkazish uchun jalb etilishi ham mumkin. Ta’kidlash lozimki, uning avariya komissari bilan o‘zaro o‘xhash hamda o‘ziga xos farqli tomonlari ham mavjud. Bundan tashqari syurveyerning ixtisoslashganlik darajasi odatda avariya komissariga nisbatan yuqori sanaladi. Shuning uchun avariya komissari ham ba’zan syurveyer xizmatidan foydalanadi.

Sug‘urta bozorida avariya komissari va syurveyer bilan birgalikda dispasher ham faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Mazkur faoliyat dengiz sug‘urtasi bilan bog‘liqligi sababli asosan dengiz bo‘yi davlatlarida rivojlangan. Mol-mulk yoki boshqa ob’ektlar dengiz orqali manzilga etkazilish jarayonida yuz berishi ehtimol bo‘lgan, turli risklardan sug‘urtalanadi. Ma’lumki, dengiz transportida bir necha sub’ektlarning mol-mulki yuklangan hamda ular sug‘urtalangan bo‘lishi mumkin. Dengizda sug‘urta xodisasi yuz berishi oqibatida mulklarning zararlanishi umumiyligi avariya deb nomланади.

Umumiyligi avariya holatida har bir mulk egasi qancha zarar ko‘rganligini aniqlash lozim bo‘ladi. Aynan shunday faoliyatni dispasher amalga oshiradi, hamda u ko‘rilgan zararni hisoblash va uni xolisona taqsimlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis hisoblanadi. Zararning hisobi bo‘yicha tuzilgan xujjat dispasha deb nomланади.

Sug‘urta bozori infratuzilmasida sug‘urta vositachilar professional ishtirokchilar sifatida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ular sug‘urtachi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish borasida muhim sub’ektlar hisoblanadi. Sug‘urta vositachilarining tarkibiga sug‘urta agentlari, sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlari kabi sub’ektlar kiradi. Xususan, sug‘urta agenti bu sug‘urta tashkilotining nomidan yoki uning topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasining tuzilishi va uning ijro etilishini tashkil etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Sug‘urta brokeri esa sug‘urtalanuvchining nomidan yoki uning topshirig‘iga asosan shartnomani tuzish va uning amal qilishi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Sug‘urta vositachilar sug‘urta mahsulotini sotish bo‘yicha maxsus tizimga ega bo‘lib, sug‘urta bozorining o‘ziga xos infrastrukturasini tashkil etadi.

Sug‘urtachilar uyushmasi unga a’zo bo‘lgan sub’ektlarning manfaatlariga xizmat qilish maqsadida (masalan, 1985 yildan boshlab faoliyat ko‘rsatayotgan Britaniya sug‘urtachilar assotsiatsiyasi singari) tashkil etilishi mumkin bo‘lgan sug‘urta bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur uyushma(assotsiatsiya)ning vazifasi keng ko‘lamli bo‘lib, u sug‘urta sohasiga oid

bilimlarni ommalashtirish, maxsus bukletlar, statistik ma'lumotlarni nashr etish kabi yo'naliшlarda faoliyat ko'rsatadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasida auditorlik tashkilotlari ham o'ziga xos o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq sug'urta tashkilotlari ham auditorlik tekshiruvidan o'tishlari majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Auditorlik tekshiruvi sug'urta tashkilotining so'roviga asosan amalga oshiriladi. Uning natijasiga ko'ra, auditor sug'urta tashkilotining moliyaviy ahvoli yuzasidan o'z xulosasini beradi. Mazkur xulosada sug'urta tashkilotining moliyaviy holati aks ettiriladi. Sug'urta tashkiloti auditor taqdim etgan xulosadan kelib chiqib, o'zining moliyaviy holatini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqadi hamda uni amalga oshiradi.

Sug'urta faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, maxsus (masalan, tijorat banklari buxgalteriyasi kabi) buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuni qayd etish lozimki, sug'urta faoliyatini tekshiruvchi auditor bu soha yuzasidan maxsus bilimga ega bo'lmasa, tomonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan, sug'urta faoliyatini rivojlantirishda uning o'ziga xos bo'lgan buxgalteriya hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan tashqari maxsus ixtisoslashgan maslahatchilar ham sug'urta bozori infratuzilmasining sub'ekti sifatida faoliyat yuritishlari mumkin. Mazkur sub'ektlar jumlasiga ixtisoslashgan va keng qamrovli maslahat byurolari, advokatlik hamda baholovchi firmalarni kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda maslahatchilik xizmatining rivojlanganlik darajasi hozirda yuqori emas va mazkur mutaxassislar sug'urta faoliyatida deyarli ishtirok etishmayapti.

O'zbekistonda 2004 yilning yakuniga ko'ra, sug'urta mukofotlari 32,9 mlrd. so'mga yaqin summani tashkil etdi. 2005 yil bu ko'rsatkichning yanada ortishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston sug'urta bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizda sug'urta bozorini

yanada rivojlantirish uning xizmatlari ko‘lamini kengaytirishni hamda ularning sifatini oshirishni taqozo etadi.

Xalqaro tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor infratuzilmasi sug‘urta bozori infratuzilmasini shakllantirish bilan bir butunlikda kechadigan jarayondir. O‘zbekistonda sug‘urta bozori infratuzilmasining shakllantirilishi birmuncha o‘zgacha tarzda kechmoqda.

Sug‘urta bozori infratuzilmasida alohida mustaqil faoliyat ko‘rsatishi lozim bo‘lgan sug‘urta vositachilar, auditorlari, sug‘urta ob’ektlarini baholovchi(ekspert)lar hamda boshqa sub’ektlar, xorijiy amaliyotdagidan farqli ravishda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarining o‘ziga biriktirilgan. Garchi, sug‘urta bozori infratuzilmasining rivojlanishi sust kechayotgan bo‘lsada, sug‘urta tashkilotlarining o‘z infratuzilmasini rivojlantirishga bo‘lgan harakatlari ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, bu borada «O‘zbekinvest» EIMSKning etakchi bo‘layotganini, uning qoshida «Sug‘urta olami» nomli sug‘urta biznesini o‘qitish va «Innovatsiya va sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish» markazlari, «O‘zbekinvest Eksiminform» marketing hamda «O‘zbekinvest Assistans» servis agentliklari «O‘zbekinvest Sarmoyalari» investitsion kompaniya shuningdek, boshqa sho“ba korxonalar samarali faoliyat ko‘rsatayotganligini qayd etish mumkin.

Sug‘urta bozori infratuzilasini shakllantirish va uning sub’ektlari faoliyatining me’yoriy-xuquqiy bazasini takomillashtirish O‘zbekistonda sug‘urta bozori taraqqiyotini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi. Xususan, mamlakatimizda sug‘urtachilar uyushmasini tashkil etish, aktuariy, syurveyer kabi sub’ektlarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’kidlash joizki, bu jarayon sug‘urta bozori infratuzilmasi sub’ektlarining alohida ixtisoslashuvini hamda ularning faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

**Sug‘urtalovchilar uyushmasi** - sug‘urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a’zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug‘urta kompaniyalari va xorijiy sug‘urta

kompaniyalari o’rtasida o’zaro foydali aloqalarni o’rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug’urta kompaniyalarining uyushmasi.

4. Sug’urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagи xujalik sub’ektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlashda va sug’urta hodisalari ro‘y berganda etkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug’urtachilar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog‘i zarurdir.

Sug’urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari. Sugurta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda uchga bulish mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug’urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi.

Masalan, Buyuk britaniyada sug’urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug’urta bulimi, AQSHda esa maxsus sug’urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat, bunday nazorat ishini olib borar ekan, avvalo, mamlakatning sug’urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me’yoriy hujjaligiga asoslanadi. Sug’urta va qayta sug’urtalash kompaniyalari, sug’urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug’urta nazoratining ob’ektlari hisoblanadi.

5. Sug’urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug’urtalashni joriy qilish va vakolatli sug’urta nazorati xizmatini tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Sug’urta bilan shug’ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug’urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug’urta nazorati sug’urtachining bo‘lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o‘tkazadi. Ya’ni, nizom jamg‘armasi va o‘z mablag‘larining holati hamda bu mablag‘larning tashkilot zimmasidagi

majburiyatlariga o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi. Sug‘urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnama) berishning zaruriyati sug‘urtaning o‘z mohiyatidan kelib chiqishini unutmaslik kerak. Chunki, sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisasi yuz bergan vaqtida sug‘urtalanuvchiga shartnomada ko‘rsatilgan mablag‘ni o‘z vaqtida to‘lashi lozim. Sug‘urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug‘urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo‘lida ham xizmat qiladi.

E’tirof etish lozimki, bugungi kunda mamlakatda sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya (ruxsatnama) berish tartibi ishlab chiqilgan. Sug‘urta tashkilotiga beriladigan litsenziya (ruxsatnama) sug‘urtalashning har bir turi yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan sug‘urta turlari guruhlari uchun beriladi. Chunki, ba’zi sug‘urta turlari bo‘yicha operatsiyani amalga oshirish sug‘urtalovchida etarli darajada moliyaviy mablag‘lar bo‘lishini talab etadi. Bundan tashqari, sug‘urta kompaniyasi ishlab chiqqan biznes-rejada sug‘urta tarifi stavkalarini to‘g‘ri hisoblanishiga alohida e’tiborni qaratish zarur. Negaki, noto‘g‘ri hisob-kitob qilingan tarif, pirovard natijada, sug‘urta tashkilotini moliyaviy barqarorliksizga yoki to‘lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Nazarimizda, faqat sug‘urta kompaniyalarini emas, balki, qayta sug‘urtalashga ixtisoslashgan tashkilotlar va vositachilik idoralarini ham faoliyatini litsenziyalashni kiritilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

### **Adjasterlik tashkilotlar<sup>3</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Kompaniya nomlari</b>	<b>Huquqiy tashkiliy shakl</b>
1	ASCON SERVICE	Mas’uliyati cheklangan jamiyat

---

<sup>3</sup> UzReport axborot agentligining <http://www.uzreport.uz> internet sahifasi ma’lumolari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2	Bovar Service	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
3	LABB	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Adjaster xizmat ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmilashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarni o'rnini qoplash va nizolarni xal qilish chog'ida foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida quyidagi adjasterlik tashkilotlar o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqdalar.

Biz mamlakatimizda sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish va uni takomillashtirish yo'llari haqida o'ylar ekanmiz, yaqin qo'shni mamlakatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasida bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida biroz to'xtasak, foydadan xoli bo'lmaydi.

Bugungi kunda, Rossiya Federatsiyasida 1500 dan ortiq sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda va ularning aksariyati sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi Federal xizmatning litsenziyalariga ega. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi bu tashkilot 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, u Rossiya sug'urta bozorini tartibga keltirish bo'yicha etarli tajribaga ega bo'ldi, o'nlab me'yoriy hujjatlar ishlab chiqdi. Ulardan eng muhimlari "Rossiya xududida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urta tashkilotlariga litsenziyalar berish tartibi", "Sug'urta zahiralarini joylashtirish tartibi" va hokazolardir. Mazkur tashkilot o'zini qattiqqo'lligi va boshqa harakatlari tufayli Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta nufuzga egadir. Eng asosiysi, sug'urta nazorati xizmati har yili Rossiya hududida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining etarli darajada kuchlilarini reyting asosida aniqlab, keng xalq ommasiga ma'lum qilib boradi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi oldidagi majburiyatini bajara olmay qolganda, davlat sug'urta nazorati xizmati, mijozlarning manfaatini ko'zda tutadigan choralar ko'rishi kerak. Bozorda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat

ko‘rsatadi, tabiiyki, bu holat potensial mijozlarni jalb qilish uchun ular o‘rtasidagi raqobatni ham kuchayishiga olib keladi. Natijada, raqobatga bardosh bermagan ba’zi sug‘urta kompaniyalari “sug‘urta maydonidan” chiqib ketadi. Bunga jahon tajribasidan ham misollar keltirish mumkin. Jumladan, 1993 yil boshida AQSHda 103 ta fuqarolar hayotini sug‘urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalar to‘lov qobiliyatini yo‘qotgan, deb e’lon qilindi. Qizig‘i shundaki, bu kompaniyalar ichida moliyaviy jihatdan ishonchli bo‘lgan “Ekzekyutiv Layf Inshuerans” kompaniyasi ham bor. Mutaxassislar tomonidan uning aktivи bir necha milliard AQSH dollariga baholangan. Bu erda, shunday o‘rinli savol tug‘ilishi mumkin. Xo‘sн, xalqaro sug‘urta bozorida kuzatilgan yuqoridagidek holat ro‘y bermasligi uchun, davlat qanday chora-tadbirlar ko‘rishi mumkin?

Birinchidan hukumat o‘zining tegishli nazorat organi orqali, sug‘urta kompaniyalari tomonidan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini qat’iy bajarilishini, shu jumladan, sug‘urta zahiralarini to‘g‘ri joylanishini nazorat qilib borish muhimdir. Ikkinchidan, endi shakllanayotgan O‘zbekiston sug‘urta bozoriga moliyaviy jihatdan mustahkam xorijiy sug‘urta kompaniyalarining kirib kelishini tartibga solish kerak. Negaki, bu holat mahalliy sug‘urta kompaniyalarining raqobat bardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni bankrot bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmasiga olgan majburiyatları hajmiga qarab, ma’lum foiz ajratish yo‘li bilan markazlashgan sug‘urta jamg‘armasini tashkil etsalar, maqsadga muvofiqdir. Ushbu jamg‘arma mablag‘lari qiyin holatga tushib qolgan sug‘urta tashkilotlariga beriladigan yoki ular bankrot deb e’lon qilinganda majburiyatlarini bajarishi uchun xizmat qiladi. Bizningcha, bu jamg‘arma tashkil etilajak davlat sug‘urta nazorati xizmati tomonidan, sug‘urtalovchilar uyushmasi vakillarini jalb qilgan holda boshqarilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuning 15-moddasida sug‘urta faoliyatini litsenziyalash masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyati

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug‘urtalovchiga hayotni sug‘urta qilish sohasida yoxud umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug‘urta sohasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug‘urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug‘urta turlari (klasslari) ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga asosan sug‘urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan. Unda hayotni sug‘urta qilish tarmog‘i 4 ta klassdan, umumiy sug‘urta tarmog‘i 17 ta klassdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan.

### **3. Sug‘urta bozori infratuzilmasining sug‘urta bozori rivojlanishidagi ahamiyati**

Sug‘urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to‘xtatib turilishi uning yangi sug‘urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug‘urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo‘ladi. Bunda sug‘urtalovchi ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir. Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e’tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi ariza bilan qonun hujjalarda belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug‘urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to‘xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug‘urtalovchining muvaqqat ma’muriyatiga o‘tadi. Muvaqqat ma’muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo‘lgan davrda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Sug‘urtalovchi muvaqqat ma’muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo‘llangan sudga taqdim etiladi. Sug‘urtalovchining muvaqqat ma’muriyati o‘z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug‘urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma’muriy xarajatlari), sug‘urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta hodisalari yuz berganda sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash bilan bog‘liq hollar bundan mustasnodir. Sug‘urtalovchi muvaqqat ma’muriyatining ishslash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. Ushbu moddaning qoidalari sug‘urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta’sis hujjalarda shunday vakolat berilgan sug‘urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatilishiga taalluqli emas.

Sug‘urtalovchi ustav fondining kamida to‘qson foizi muassislarning pul mablag‘laridan shakllantiriladi. Sug‘urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa jalb qilingan mablag‘lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Sug‘urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug‘urtalovchining muassislari tomonidan to‘langan bo‘lishi kerak.

6. Vazirlar Mahkamasining “Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi. Unga ko‘ra, sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya

talabgorlari bo‘lishlari mumkin. Sug‘urtalovchi va sug‘urta brokerining sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning amal qilish muddati, qoidaga ko‘ra, cheklanmaydi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlanadi.

Sug‘urta tashkilotlari litsenziya olishlari uchun quyidagi talab va shartlarga javob berishlari zarur:

-O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;

-sug‘urta faoliyatini amalga oshirishda olingan axborotlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq maxfiyligini ta’minlash;

-litsenziyalovchi organ talabiga ko‘ra sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga doir qonun hujjatlarida belgilangan axborotlarni taqdim etish;

-litsenziya talabgori rahbari oliy ma’lumotga hamda sug‘urta sohasida kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi kerak;

-litsenziya talabgori (litsenziat) rahbari boshqa sug‘urta tashkilotlarida rahbar lavozimini egallashga haqlı emas.

a) sug‘urtalovchilar uchun:

ustav fondining qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdorining mavjud bo‘lishi;

b) sug‘urta brokerlari uchun:

sug‘urta brokerining sug‘urta faoliyatini amalga oshirishda sharhnomalariga rioya etilishini ta’minlash;

sug‘urta sharhnomasining litsenziat mijoziga uchun qulay sharhlarda tuzilishi va bajarilishi;

sug‘urtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Litsenziya olish uchun sug‘urta kompaniyasi litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) sug‘urtalovchilar uchun:

yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo‘ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi hamda ko‘rsatib o‘tilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat ko‘rsatilgan litsenziya berish to‘g‘risida ariza;

yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

rahbar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom nusxasi va mehnat daftarchasidan ko‘chirma);

litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;

ustav fondining belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan ustav kapitali to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma’lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar);

sug‘urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi, unga sug‘urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozini, ehtimol tutilgan qayta sug‘urtalash bitishuvlari rejasini, sug‘urta zahiralarining hisob-kitob rejasini o‘z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug‘urta klassi bo‘yicha biznes-reja kiradi;

sug‘urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo‘yicha qoidalar (shartlar), litsenziyada quyidagilar bo‘ladi: sug‘urtalash sub’ektlari doirasini belgilash va sug‘urta shartnomasi tuzish bo‘yicha cheklashlar, sug‘urta ob’ektlarini belgilash, sug‘urta hodisalari ro‘yxatini belgilash - ushbu holatlar ro‘y berganda sug‘urtalovchining sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha majburiyatları paydo bo‘ladi, (asosiy va qo‘shimcha shartlar), olib qo‘yish (tavakkalchilarning yoki mol-muklarni) bunda sug‘urtalovchi majburiyatlarni bajarmasdan ozod bo‘ladi, sug‘urta mukofotlari tariflari (stavkalari), sug‘urtalashning eng ko‘p (eng kam) muddati, sug‘urta shartnomalarini tuzish va sug‘urta mukofotlarini to‘lash tartibi, tomonlarning sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘zaro majburiyatları va sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘lojni rad etishning mumkin bo‘lgan holatlari sug‘urta

shartnomasi bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqish tartibi. Qoidalarga sug'urta shartnomalari namunalari ilova qilinishi kerak. Litsenziya talabgori rahbari tomonidan tasdiqlangan sug'urtalash qoidalari (shartlari) ikki nusxada taqdim etiladi, ularning betlari tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak. Faoliyat turi faqat qayta sug'urta qilishdan iborat bo'lgan litsenziya talabgorlari mazkur bandda ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni taqdim etadilar, sug'urtalash qoidalari (shartlari)ga oid xat boshi bundan mustasno.

b) sug'urta brokerlari uchun:

yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi (uning bir qismi) hamda ko'rsatib o'tilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi.

Litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi. Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi (1-ilovaga qarang). Ilova keltirilgan sxemadan ko'rinish turibdiki, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash jarayoni 6 ta bosqichni o'z ichiga

olib, dastlab litsenziya talabgori zarur hujjatlarni tayyorlaydi va uni ko'rib chiqish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadi. Keyingi bosqichda hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi va ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga beriladi. Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqib, sug'urtalovchiga yoki sug'urta brokeriga litsenziya berish yoxud litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta nazorati davlat organiga yuklatilgan sug'urta faoliyatini litsenziyalash vakolati, pirovardida, barcha sug'urtalanuvchilarning, ya'ni sug'urta kompaniyalari mijozlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bunday tizimining yaratilganligi nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki davlatning manfaatlariga mos keladi.

#### **4. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv zarurligi va shakllari**

O'zbekiston sug'urta bozori davlat miqyosida ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralgan bo'lib, mavjud shart-sharoitlar, milliy sug'urta an'analari va madaniyati hisobga olingan holda isloh etilgan va milliy sug'urta bozori tashkil topishi va shakllanishi sekin astalik bilan tubdan o'zgarib borgan va bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan<sup>4</sup>. Respublikamiz sug'urta bozori isloh etilishini birinchi bosqichi (1991-1996 yillar) sug'urta bozoriga xususiy sug'urta kompaniyalarni kirib kelishi va Davlat sug'urtasi(Gosstrax)ni transformatsiyasi jarayoni boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, shakllanayotgan tadbirkorlikning huquqiy bazasi bilan qo'llab quvvatlangan. 1991 yilning o'zida milliy iqtisodiyotimizni isloh qilinishini qonuniy rasmiy lashtirilishiga asos solgan "O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik haqida"gi, "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi kabi o'sha davrning progressiv qonunlari qabul qilingan. "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi" (kodeksning 52-bobi sug'urta

<sup>4</sup>Умаров С.А. Становление и развитие рынка страховых услуг в Узбекистане. // Страховое дело, – Т.: 2007. №1. – С. 32-35.

masalalariga bag‘ishlangan) amalga kiritilguniga qadar (mart 1997 yil) “O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida”gi qonun xo‘jalik yurituvchilar tomonidan Respublikamizning o‘ziga xos iqtisodiy konstitutsiyasi sifatida qaralgan. 1992 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining 605-sonli qarori bilan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1979 yil 9 oktyabrdagi “O‘zbekiston SSR davlat tekshirish organlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 700-sonli qarori bekor qilinib, “O‘zbekiston davlat sug‘urta organlari to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat sug‘urta bosh boshqarmasi (“O‘zdavsug‘urta”) va unga bo‘ysunuvchi davlat sug‘urta boshqarmalari va nazorat muassasalari O‘zbekiston Respublikasi davlat sug‘urta organlari hisoblangan. “O‘zdavsug‘urta” O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida bo‘lib, to‘la xo‘jalik mustaqilligi sharoitida ish olib borgan va davlat sug‘urta organlarining yagona tizimini tashkil etgan<sup>5</sup>. Bu davrda nodavlat sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritgan bo‘lsalarda, sug‘urta sohasida Davlat sug‘urta organlari ustun kelgan. CHunki, “O‘zdavsug‘urta” butun Respublika bo‘yicha tarqalgan keng tarmoqli va barqaror davlat strukturasi imidjiga ega bo‘lgan. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 23 dekabrdagi qarorlari bilan amalga kiritilgan, fuqarolarga qarashli mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi va qishloq xo‘jaligi korxonalari mol-mulkining davlat majburiy sug‘urtasi kabi va boshqa sug‘urtaga oid qonun hujjatlari “O‘zdavsug‘urta”ga majburiy sug‘urtani amalga oshirishga ustunlik bergen. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, erkin raqobatni talab qilishi va O‘zbekiston Respublikasida sekin astalik bilan Davlat sug‘urta tashkiloti o‘rnida yangi sug‘urta tashkilotlarini tuzish zaruriyati tug‘ilganligi sababli, 1993 yil 6 mayda tijorat sug‘urtasi amalga oshirilishiga, sug‘urta faoliyat davlat nazoratiga va milliy sug‘urta bozorida chet el sug‘urtalovchilarning faoliyat yuritishlariga huquqiy asos solgan hamda “O‘zdavsug‘urta”ning yakka hokimligini

---

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarori. O‘zbekiston davlat sug‘urta organlari tog‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami. – T., 1992. 12-son, 40-modda.

bartaraf etilishiga manba bo‘lib hizmat qilgan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun amalga kiritildi. Lekin, 1997 yilga qadar barcha nodavlat sug‘urta kompaniyalari xissasiga umumiyligida sug‘urta mukofotlari tushumining bir foizidan ham kam bo‘lgan ulush to‘g‘ri kelgan.

### **3-MAVZU: SUG‘URTA KOMPANIYALARINING KAPITALLASHUV DARAJASINI, TO’LOV QOBILIYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

#### **REJA:**


1. Sug‘urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhanishi.
2. Sug‘urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi.
3. Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi.
4. Sug‘urta tashkilotlarini investitsion faoliyati va uning mazmun-mohiyati.
5. Investitsion faoliyatda mavjud risklar haqida tushuncha va unga noqulay omillarning ta’siri.

#### **1. Sug‘urta tashkilotining daromadlari va ularning guruhanishi**

Sug‘urta tashkiloti hayotni sug‘urta qilish borasida tuzilgan har bir shartnomada turli darajadagi sug‘urta tarifini qo’llashi yoki daromadlilik me’yorini har bir shartnoma bo‘yicha mustaqil ravishda hisoblab chiqishi va belgilashi mumkin. Hayotni sug‘urta qilish klasslari bo‘yicha daromadlilik me’yorlari qat’iy belgilangan bo‘lishi, uning tarif stavkalariga o‘zgarishlar kiritish esa, davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Sug‘urta tashkilotlarida asosiy daromad va xarajatlar hisobi o‘ziga xosligi bilan farq qiladi. Sug‘urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag‘larining jami uning daromadi hisoblanadi.

#### **Sug‘urta tashkilotlari daromadlarining manbalari va tarkibi**



Sug‘urta tashkiloti daromadlarini guruhlashning turli variantlari mavjud. Ular ichida manbalarga ko‘ra, olingan daromadlarni uch guruhga bo‘lishga asoslangan variant keng qo‘llaniladi (1-rasm):

a) sug‘urta faoliyatidan olingan daromadlar. Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar sug‘urtachi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Bu daromadlarning asosiy qismi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha undirilgan mukofotlar hisobiga shakllantiriladi. Sug‘urta tashkilotining mukofot tushumlari hajmiga sug‘urta majburiyatlari portfelining tarkibi va tuzilishi, tarif siyosati, marketing strategiyasi hamda boshqa qator omillar o‘zaro bog‘liqlikda ta’sir etadi. Masalan, ishlab chiqilgan marketing strategiyasini unga mos bo‘lgan tarif siyosatisiz amalga oshirib bo‘lmaydi, o‘z navbatida, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan marketing strategiyasi sug‘urta portfeli balanslashuvini ta’minlaydi va aksincha.

Sug‘urta tashkilotining mukofot tushumlariga bozor kon'yunkturasi, inflyasiya sur’ati, me’yoriy qonunchilik bazasi, amaldagi soliqqa tortish tizimi, sug‘urta bozorining monopolashganlik darjasи, kredit foizi dinamikasi, mamlakatdagi ijtimoiy himoyaning holati va boshqa qator omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar ta’sirining qandayligidan qat’iy nazar amaliyotda sug‘urta tashkilotining mukofot tushumlari oqimi ortishi yoki kamayishi hodisasi kuzatiladi.

O‘zaro kelishuv shartnomasiga muvofiq sug‘urta tashkiloti sug‘urta riskining ma’lum ulushi bo‘yicha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Bu jarayonda u sug‘urta operatsiyalarini birgalikda sug‘urtalash mexanizmi orqali sug‘urta mukofotining mos bo‘lgan qismi o‘z hisobiga o‘tkazilishidan ham daromad olishi mumkin.

Sug‘urta tashkilotining yana bir daromad manbai qayta sug‘urta tizimida qatnashish orqali mukofotlar ulushini undirishdir. Bu ulushning qanday kattalikda bo‘lishi qayta sug‘urtalashning rivojlanganlik darjasи, unga bo‘lgan talab, qayta

sug‘urtalovchilarning kasbiy etukligi kabi omillar hamda birlamchi sug‘urta bozori ko‘lami, sug‘urta risklarining hajmi kabilarning ta’siriga bog‘liqlikda kechadi.

Sug‘urta tashkiloti qayta sug‘urtalashni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lsa, u sug‘urta hodisasi yuz berganda shartnoma shartlariga binoan qayta sug‘urtalashga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha zarar qoplamasidagi ulushini ham undirib oladi.

Sug‘urta tashkiloti vositachilik vazifasini ham bajarishi mumkin. Masalan, riskni qayta sug‘urtalashga o‘tkazish jarayonida sug‘urtachi vositachilik haqini undirib oladi. Sug‘urta tashkiloti ayrim holatlarga ko‘ra, riskni boshqa sug‘urtachiga siylov etishi orqali vositachilik va brokerlik rag‘batlantirishlarini olishdan ham daromad ko‘rishi mumkin.

Teng ulushdagi qayta sug‘urtalash shartnomasida qayta sug‘urtachiga tantem to‘lovlari ham nazarda tutilishi sug‘urtachining qayta sug‘urtalovchining foydasida o‘z ulushiga ega bo‘lishi shaklidir.

B) investitsiya joylashtiriluvidan olingan daromadlar. Sug‘urta tashkilotining ushbu faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq emas. Sug‘urtachining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug‘urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi. Odatda, sug‘urta mukofotlari ma’lum vaqt oralig‘ida sug‘urtachi ixtiyorida bo‘lishi davrida amaldagi me’yoriy qoidalarga asoslanib, daromad aktivlariga joylashtirilishi unga investitsiya daromadlarini keltiradi. Investitsiya imkoniyatlari bo‘yicha uzoq muddatga hayotni sug‘urtalash zaxiralari ko‘proq manfaatlidir.

Sug‘urta tashkilotining investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlari tarkibi:

- bank jamg‘armalari foizlari;
- aksiyalardan dividend foizlari;
- qimmatli qog‘ozlardan daromadlar;
- ko‘chmas mulkdan olingan daromadlar kabilardan iborat bo‘ladi.

Bu faoliyatning ahamiyatli jihat shundaki, sug‘urtachi o‘z mijozlariga bonus

to‘lovlarini aynan investitsiya joylashtiriluvidan oladigan manbalari hisobidan to‘laydi.

Investitsiya bozorlari rivojlangan mamlakatlarda ushbu faoliyatdan sug‘urtachining olgan daromadlari ayrim sug‘urtalash turlari bo‘yicha sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelgan zararlarni qoplash imkoniyatini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan sug‘urta tashkiloti investitsiya faoliyatini samarali olib borishi uning daromad manbalari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

V) sug‘urta tashkilotining boshqa daromadlari. Sug‘urtachi sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishi va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari boshqa faoliyatdan ham daromad olishi mumkin.

Bunday daromadning manbalari:

- depo mukofotlar hisobiga o‘tkazilgan foiz summalar;
  - regress tartibida olingan summalar;
  - asosiy fondlar, moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
  - ijara chilik faoliyatidan olingan daromadlar;
  - sug‘urta zaxiralarining qaytim summalar;
  - o‘qitish, maslahat ishlarini olib borish bo‘yicha undirilgan to‘lovlar hisoblanadi.
- Sug‘urtachining sug‘urta xizmatlarini sotuvidan tashqari olgan daromadlari asosan o‘z filiallariga ish qog‘ozlarini (hisobot blanklari va shu kabilarni) tayyorlab berish, ularning yangi «mahsulot»ini reklama qilish kabilar hisobiga olinadi. Ayrim hollarda ular ijara munosabatlari orqali ham shakllantiriladi. Sug‘urtachining sotuvdan tashqari daromadlarini hajmi sug‘urta tashkilotining kattaligiga bog‘liqdir.

Sotuvdan tashqari daromadlarni olish uchun amalga oshirilgan xarajatlarni sug‘urta faoliyatiga yoki sug‘urtadan boshqa faoliyatga taalluqli ekanligini aniqlash murakkab kechadi. SHuningdek, sug‘urta tashkiloti ma’lum bir sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urtalashni amalga oshirmayotgan bo‘lsa-da, uni yo‘lga qo‘yish

yuzasidan xarajatlarni sotuvdan tashqari daromadlari hisobiga bajaradi.

Ma'lumki, sug'urtada risklar transformatsiyasi jarayonida hamda bosh tashkilot va filiallar (yakuniy moliyaviy natija balansi yoki hisob raqamiga egaligiga ko'ra) o'rtasida mas'uliyat taqsimotining mexanizmi turlichadir.

Sug'urta faoliyati – sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida sug'urtalanuvchining zararini qoplash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos iqtisodiy faoliyat turidir. Sug'urta hodisasi yuz berishi yoki bermasligiga ko'ra qoplama to'lashning ilmiy asoslanganlik (o'rganilgan, hisoblangan, aniqlangan) me'yorini belgilash va ko'rيلgan zararni sug'urta tashkilotining zaxira fondidan to'lash maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta hodisasining yillar bo'yicha yuz berishi ehtimolligi turlichadir. Ayrim aniq bir yilda bu hodisalarning soni ko'p bo'lishi ham mumkin. Aynan shu yil bo'yicha sug'urta tashkilotining faoliyati zarar bilan tugashi mumkin. Zaxira fondining mablag'i etishmasligi holatida sug'urta tashkilotida qolgan daromad hisobidan uning har yilgi zaxira fondiga ajratma me'yorini qayta ko'rib chiqish zarur. Statistik ma'lumotlarga asoslanib, qayd etish kerakki, sug'urtaning ko'p turlari bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta qoplamasi undirilgan mukofotlari summasiga nisbatan past foizlarni tashkil etadi. SHunga asoslanib, tariflarni oshirish emas, balki uning tarkibini o'zgartirish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Qayta sug'urtalash shartnomasini tuzishda qayta sug'urtalovchi (xalqaro terminda «sedent») qayta sug'urtalash mukofotining ma'lum qismini yoki hammasini deponentga o'tkazishi nazarda tutilishi mumkin. U shartnoma davri tugashi hamda sug'urta hodisasi yuz bermagan taqdirda mazkur mukofotlar hisobidan olingan depo foizlari bilan birgalikda qayta sug'urtalovchi hisobiga o'tkaziladi. Uning hajmi (foizda) shartnomada qayd etilgan bo'ladi.

Shunday kafolat berilishi qayta sug'urtalash mukofotlarini moliyaviy zaxira sifatida ishlatish imkoniyatini oshiradi.

Fuqarolik qonunchiligiga binoan sug'urta tashkiloti o'z mijizi manfaatlarini himoya qiluvchi vakil sifatida sug'urta hodisasiga sababchi bo'lgan aybdor shaxsga regress da'vo qilish huquqiga ham egadir. Odatda regress tartibidagi

summa sug‘urtachi o‘z kafilligini bajarib bo‘lganidan keyin undiriladi. Bunday faoliyat natijasida undirilgan summa sug‘urta tashkilotining sug‘urta ta’minoti to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun manba hisoblanadi.

Sug‘urta tashkiloti xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida o‘z faoliyatida foydalanilayotgan asosiy fondlarini sotish huquqiga egadir. SHunda faoliyat bo‘yicha sug‘urtachining foydasi asosiy fondni sotishdan olgan tushum summasi bilan mulkning balans (qoldiq) bahosida hisobdan chiqarish summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Sug‘urta tashkilotining mulki ijaraga berilishi mumkin. Masalan, ko‘chmas mulk ob’ektlari hamda asosiy fondlardan ayrim hollarda ijara ob’ekti sifatida foydalaniladi. Bu faoliyat natijasida undirilgan ijara to‘lovi ham sug‘urtachining daromadi hisoblanadi.

## **2. Sug‘urta tashkilotining xarajatlari va ularning tarkibi.**

Sug‘urta tashkilotining yana bir daromad manbai o‘qitish, maslahat ishlari uchun undirilgan to‘lovlar summasi, shuningdek, risk-menejment bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishi, dastur «mahsulot»larini o‘rnatib berishi kabilar hisoblanadi. Bu daromadlar sug‘urtaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxldor bo‘lmasa-da, ammo u bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanadi.

Sug‘urta tashkiloti daromadining shakllanish mexanizmi, tarkibi va tuzilishini o‘rganish uning o‘ziga xos faoliyat turi ekanligini namoyon etadi.

2. Sug‘urtachining jami mablag‘lar sarfi sug‘urta «mahsulot»i tannarxini tashkil etadi. U amaldagi me’yoriy hujjalalar asosida tartibga solinadi hamda sug‘urtachi xarajatlarning tarkibini belgilashi uchun asos hisoblanadi. Soliqqa tortish bazasini aniqlashda sug‘urtachining jami xarajatlari va ularning tarkibini aniqlashtirish ham talab etiladi.

Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining tarkibi ham xilma-xildir (2-chizma). Sug‘urta tashkilotining xarajatlari sakkiz turdan iborat bo‘lib, har bir tur o‘z navbatida, asosiy va maqsadli faoliyat hamda xarajatlarning amalga oshirilishi vaqtiga qarab guruhanadi. Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining turlariga

to‘xtaladigan bo‘lsak, ular o‘z ahamiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

### **Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining turlari va ularning tasniflaniши**

t/ r	Xarajat turlari	Xarajatlarning tasnifi		
		Asosiy faoliyat bo‘yicha	Maqsadli faoliyat bo‘yicha	Amalga oshirilish vaqtiga ko‘ra
1	Ma‘muriy-xo‘jalik yuritish xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	SHartnomani amalga oshirish xarajatlari	SHartnomani amalga oshirish jarayonida
2	Vositachilik taqdirlashlarini undirish xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	SHartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	SHartnomani amalga oshirish jarayonida
3	Reklama va marketing xizmati xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	SHartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	SHartnomani tuzishga qadar
4	Maxsus ish qog‘ozlarini tayyorlash xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	SHartnomani tayyorlash va tuzish xarajatlari	SHartnomani tuzishga qadar
5	Sug‘urta zaxiralariga ajratmalar	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	SHartnomani bajarish xarajatlari	SHartnomani amalga oshirish jarayonida
6	Qayta sug‘urtalash xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	SHartnomani bajarish xarajatlari	SHartnomani amalga oshirish jarayonida
7	Investitsiya joylashtiriluvi xarajatlari	Sug‘urtalash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar	SHartnomani bajarish xarajatlari	SHartnomani amalga oshirish jarayonida
8	Sug‘urta qoplamasи xarajatlari	Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari	SHartnomani bajarish xarajatlari	Sug‘urta hodisasi yuz berganda

a) sug‘urtani amalga oshirish xarajatlari. Bu xarajatlar sug‘urtachi faoliyatini moliyalashtirish uchun amalga oshiriladi. Sug‘urta tashkiloti faoliyatini tahlil etishda mazkur xarajatlar tarkibini ma’lum belgilariga ko‘ra guruhlash maqsadga muvofiqdir.

Sug‘urtachining faoliyati jarayonida mablag‘lar sarf etilishi yuzasidan belgilangan vazifalarga ko‘ra, sug‘urta tashkiloti daromadi va zararlari haqidagi hisobotiga mos ravishda sug‘urta ishini yuritish xarajatlari tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin:

- shartnomalarni tuzish va bajarish xarajatlari;
- investitsiya faoliyati bo'yicha xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari.

B) sug'urta ishini yuritish xarajatlari sarflanishiga ko'ra quyidagicha bo'lish mumkin:

- ish haqi to'lovleri;
- davlat fondlariga ajratmalar, xodimlarni tayyorlash xarajatlari, reklama hamda marketing xarajatlari, xo'jalik xarajatlari va boshqalar;

Sug'urta ishini yuritish xarajatlarining yuzaga kelishi davriga ko'ra, ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- sug'urta shartnomasini tuzish uchun oldindan qilingan (ish qog'ozlarini tayyorlash, statistik ma'lumotlarni yig'ish, tarif hisob-kitoblari va shu kabi) xarajatlar;
- sug'urta shartnomasi tuzish davrida qilingan (xalqaro terminda «acquisition») xarajatlar;
- sug'urta shartnomasi amal qilish davrida qilingan (masalan, riskni qayta sug'urtalashga o'tkazish bo'yicha) xarajatlar;
- sug'urta hodisasi yuz berganda (sabablarini o'rganish va uning oqibatlarini tugatish uchun) qilinadigan xarajatlar.

Sug'urta ishini yuritish xarajatlarini, shuningdek, ayrim sug'urta turi yoki shartnomasiga daxldor bo'lgan o'zgaruvchan va barcha tuzilgan sug'urta shartnomalari portfelia aloqador bo'lgan doimiy kabi guruhlarga ham bo'lish mumkin.

Xalqaro amaliyotda sug'urta tashkilotining xarajatlari akvizitsiya (ommaviy-tashkiliy kompleks tadbirilar), inkassatsiya (sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha mukofotlarning naqd pullarda qabul qilinishi), likvidatsiya (sug'urta hodisasi yuz beraganligi yuzasidan sug'urtalanuvchi arizasida bayon qilingan talablarning qondirilishi) va boshqaruvga oid kabi turlardan iboratdir.

Sug'urta tashkiloti daromad va xarajatlarini sug'urta faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi o'rni va roliga qarab tasniflash ko'proq maqsadga

muvofiqdir. Ular quyidagichadir:

- sug‘urta himoyasini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan (sug‘urta operatsiyalari hamda investitsiya joylashtirilushi bo‘yicha) daromad va xarajatlar;
- sug‘urta himoyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan boshqa daromad va xarajatlar.

Sug‘urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi hamda ularni hisoblash ko‘p jihatdan milliy sug‘urta qonunchiligi me’yorlariga ham bog‘liqdir. SHuningdek, sug‘urta tashkilotining daromad va xarajatlariga amaldagi soliq qonunchiligiga binoan to‘lanadigan daromad(foyda) solig‘ining soliq bazasini aniqlash uslubiyati hamda stavkalari darajasi ham ta’sir etadi.

**3.** Sug‘urta tashkilotining daromad va xarajatlari tarkibi bo‘yicha yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, uni aniqlash bo‘yicha quyidagi uslubiyatni taklif etamiz:

$$SM = SMs + SMqs + O'MZo^*(1),$$

Bu erda: SM- ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari summasi;

SMs – bevosita sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlari summasi;

SMqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlari summasi;

O‘MZo^\* – o‘zlashtirilmagan mukofotlar zaxirasining o‘zgarishi.

$$UNz = Nz + Nvt (2),$$

Bu erda: UNz – ko‘rilgan zararning umumiy netto qismi;

Nz – ko‘rilgan zararning netto qismi;

Nvt – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlaring netto qismi.

$$Nz = SM - SQs - (SQqs - SQqssq) (2.1),$$

Bu erda: SQs – to‘langan sug‘urta qoplamlari;

SQqs – qayta sug‘urtalash bo‘yicha to‘langan sug‘urta qoplamlari;

TSQqssq – qayta sug‘urtalash shartnomalariga ko‘ra, qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘langan sug‘urta qoplamlari.

$$Nvt = VTqs + VSqs \quad (2.2),$$

Bu erda:  $VTqs$  – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlari;  
 $VSqs$  – qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik siyovlari.

$$Tsx = UNz - (YUk + SMqsrr + SQs + VTqs + Zm + SQqs) \quad (3)$$

Bu erda:  $Tsx$  – sug‘urta xizmatlarining tannarxi.  
 $YUk$  – sug‘urta ishini yuritish xarajatlari;  
 $SMqsrr$  – qayta sug‘urtalash va retrosessiyaga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari;  
 $VTqs$  – vositachilik to‘lovlari va brokerlik siyovlari, qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari;  
 $Zm$  – zaxira fondiga o‘tkazilgan mablag‘lar.

$$YAD(Z) = D(Z)af \pm D(Z)bf \quad (4),$$

Bu erda:  $YAD(Z)$  – yalpi daromad yoki zarar (soliq to‘langunga qadar bo‘lgan daromad yoki zarar);  
 $D(Z)af$  – asosiy faoliyatdan olingan daromad yoki zarar;  
 $D(Z)bf$  – boshqa faoliyatdan daromad yoki zarar.

$$D(Z)af = Ns \pm Nz \pm Nvt \pm YUk - DX \quad (4.1),$$

Bu erda:  $Ns$  – sug‘urta mukofotlarining netto qismi;  
 $DX$  – davr xarajatlari.

$$D(Z)bf = Dbf - Xbf \quad (4.2),$$

Bu erda:  $Dbf$  – boshqa faoliyatdan daromadlar;  
 $Xbf$  – boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan

xarajatlar.

Sug‘urta tashkiloti daromadi(foydasini)ni aniqlashning keltirilgan uslubiyatini joriy etish masalasiga (7-jadval) to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada sug‘urta ishini amalga oshirish xarajatlariga kiritilgan sug‘urta xizmatlarni tashkil etish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi yangi Nizomni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Taklif etilayotgan uslubiyatga ko‘ra, keltirilgan ma’lumotlarda ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari summasi 1232223,0 bo‘lgan bo‘lsa, shundan 910786,8 bevosita sug‘urtalash mukofotlari, 6741,1 qayta sug‘urtalash bo‘yicha mukofotlari va nihoyat, 314695,1 so‘mini o‘zlashtirilmagan mukofotlar summasi tashkil etgan.

To‘langan sug‘urta qoplamlari 1188750,1 qayta sug‘urtalash shartnomalariga binoan qoplama to‘lovlari bo‘yicha zararlar 506,3; ko‘rilgan zararlarning netto qismi 1189256,4; qayta sug‘urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha hisoblangan vositachilik to‘lovlari 840,8; qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarning netto qismi 840,8; sug‘urta ishini yuritish xarajatlari 5136,5; hisoblangan vositachilik hamda brokerlar siyovlari, qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari 321,4; zararlarni qoplash zaxirasiga o‘tkazilgan mablag‘lar 1153961,8 ming so‘mni tashkil qilgan.

### **Sug‘urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini hisoblash:**

(so‘m hisobida)	
(+) Bevosita sug‘urtalash bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari	910786.8
(+) Qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari	6741.1
(+) O‘zlashtirilmagan mukofotlari zaxirasini o‘zgartirish	314695.1
(=) Ishlab topilgan mukofotlar	1232223
(-) To‘langan sug‘urtaviy qoplamlar	1188750.1
(-) Qayta sug‘urtalash shartnomalariga binoan qilingan qoplama to‘lovlari bo‘yicha zararlar	506.3
(+) Qayta sug‘urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko‘ra, qayta sug‘urtalovchilar tomonidan qilingan qoplamlar bo‘yicha zararlar	-

(=) Ko‘rilgan zararlarning netto qismi	1189256.4
(+) Qayta sug‘urtalashga taqdim etilgan shartnomalarga ko‘ra hisoblangan qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovleri	-
(+) Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha hisoblangan vositachilik to‘lovleri	840.8
(=) Qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarining netto qismi	840.8
(-) Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari	5136.5
(-) Qayta sug‘urtalash va retrosessiyaga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari	-
(-) Bevosita sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urtaviy to‘lovleri (sug‘urta qoplamlari)	-
(-) Hisoblangan vositachilik va brokerlar siyovlari. Qayta sug‘urtalash tantemlari va yig‘imlari	321.4
(-) Zararlarni qoplash zaxirasiga o‘tkazilgan mablag‘lar	1153961.8
(-) Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan risklar bo‘yicha qilingan qoplama to‘lovlarining ulushi	-

Keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda sug‘urta xizmatini ko‘rsatishdan tushgan yalpi foydani aniqlash uchun ishlab topilgan mukofotlarning netto qismi (1232223), ko‘rilgan zararlarning netto qismi (1189256,4), qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarining

### 3-jadval

Bunda sug‘urta xizmatini ko‘rsatish(sotish)dan tushgan yalpi foyda quyidagicha hisoblanadi:

(=) Ishlab topilgan mukofotlarining netto qismi	1232223
(+) Ko‘rilgan zararlarning netto qismi	1189256.4
(+) Qayta sug‘urtalash bo‘yicha vositachilik to‘lovlarining netto qismi	840.8
(-) Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari	5136.5
(-) Davr xarajatlari	226235.7
(-) Xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish va xo‘jalik xarajatlari	-
(=) Asosiy faoliyatdan olingan foyda	189246.4

(+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyatdan olingan daromad	214343.3
(+) Operatsion. Investitsion va moliyaviy faoliyat uchun qilingan xarajat	-
(=) Soliq to‘langunga qadar bo‘lgan daromad(foyda) yoki zarar	25096.9
Manba: «O‘zagrosug‘urta» DASKning 2002 yil ko‘rsatkichlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.	

netto qismi (840,8) yig‘indisidan sug‘urta ishini yuritish xarajatlari (5136,5), davr xarajatlari (226235,7), xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish va xo‘jalik xarajatlari jamisini ayirish orqali asosiy faoliyatdan olingan foyda (189246,4 ming so‘m) hisoblab topiladi. SHundan so‘ng, investitsion-moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar yig‘indisini qo‘sish orqali balansdagi (25096,9 ming so‘m) foyda summasi aniqlanadi.

### **3. Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy natijani shakllanishi**

O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qayta tahrirdagi Qonunida investitsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “investitsiya - iqtisodiy va boshqa faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar”, sifatida ta’riflanadi.

YUqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, “investitsiyalar” tushunchasi “kapital qo‘yilmalar”, “investitsiyalarning mulkiy shakli”, “kapital”, “kredit” va boshqa tushunchalarga qaraganda kengroq, “sig‘imliroq” tushuncha hisoblanadi<sup>7</sup>. Kapital qo‘yilmalar investiitsilarning tarkibiy qismi hisoblanadi. SHuning bilan birgalikda investitsiyalarning tarkibida kapital qo‘yimalardan tashqari aylanma mablag‘ (vosita)lar ham mavjud. Demak, ko‘rinib turibdiki, kapital qo‘yilmalar tushunchasi aynan investitsiyalar tushunchasini anglatmaydi.<sup>8</sup> Umumlashtiradigan bo‘lsak, investitsiyalar bu faqat uzoq muddatli

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998. 24 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlari. 4-son, 1999. 3-b.

<sup>7</sup> G’ozibekov D.G’. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 28-b.

<sup>8</sup> Investitsii: Uchebnoe posobie /G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova i dr. –M.: KNORUS, 2004. S.7. (Finansovaya akademiya pri Pravitelstve RF).

kapital qo‘yilmalar bo‘libgina qolmasdan, balki qisqa muddatli qo‘yilmalarni ham o‘z ichiga oladi. Demak, investitsiyalar - mulkchilikning barcha ko‘rinishlaridagi moddiy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy-ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

“CHet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra “chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat ob’ektlariga qo‘shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari”<sup>9</sup>, deb e’tirof etiladi.

Sug‘urta kompaniyalari asosiy faoliyati Bilan bir qatorda investsiya faoliyatini xam amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Odatda, sug‘urta kompaniyalarining sug‘urtaviy xizmat ko‘rsatish o‘ziga xos xususiyatga ega ya’ni, mijoz dastlab sug‘urtalovchiga sug‘urta badalini shartnomaga tuzilishi Bilan to‘laydi. Sug‘urta shartnomasi muddatining tugashi xizmat to‘liq ko‘rsatilganligini bildiradi. Demak, sug‘urta kompaniyalarida moliya resurslarining xarakati xususiyatlari shunga olib boradiki, sug‘urta kompaniyalari ixtiyorida shartnomani amal qilish mobaynida qo‘shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo‘lgan vaqtinchalik majburiyatdan xoli bo‘lgan katta miqdorda vaqtincha bo‘sh mablag‘lar to‘planadi. Sug‘urtalovchilar bu mablag‘larni qo‘shimcha daromad olish maqsadida turli ob’ektlarga investtsiya qilishlari mumkin.

Sug‘urta tashkilotlari tasarrufida kata miqdordagi moliyaviy resurslarni to‘planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muxim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Sug‘urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to‘planishi sug‘urtani faol investitsion siyosat yo‘li Bilan iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha so‘z Bilan aytganda, sug‘urtalovchilar turli polis egalaridan olingan

---

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘isida”gi Qonuni, 1998. 30 aprel. //Xalq so’zi. 1999. 12 yanvar. 7-son. 1-b.

passiv pul mablag‘larni moliya bozorida xarakat qiluvchi aktiv kapitaliga aylantirishadi.

Sug‘urta ompaniyasi investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

- yig‘iladigan sug‘urta mukofotlari xajmi;
- sug‘urta portfeli xajmi;
- amalga oshirilayotgan sug‘urta xizmatining foydaliligi yoki zararliligi;
- sug‘urta rezervlarini shakllantirishga davlat tomonidan qo‘yiladigan talablar;
- tuzilgan sug‘urta shartnomalari muddati;
- o‘zlik mablag‘lari xajmi.

Sug‘urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlari taxminan shunday deyarli shakllanib boradi. Investitsion imkoniyat asosiy qismi «O‘zlik mablag‘lar”ga to‘g‘ri keladi. Sug‘urta rezervi esa domiy ravishda sug‘urta qoplamlari to‘lanishiga qarab o‘zgarib turadi.

Sug‘urta kompaniyasining investitsion portfeli tizimi, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlashi lozim va u odatda sug‘urta nazorati me’yorlari bilan belgilanadi. Unda sug‘urta zaxiralarining vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larini joylashtirish tartibi belgilanadi.

O‘zbekiston o‘z mustaqillagini qo‘lga kiritgandan so‘ng, sug‘urta kompaniyalari bo‘sh mablag‘larini turli ob’ektlarga investitsiya qilish imkoniyati tug‘ildi. 1993 yilning 6 mayida qabul qilingan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasida “Sug‘urta tashilotlari o‘z moliyaiy manbalarini boshqa yo‘l bilan foydalanishga xaqlidir”, deb ko‘rsatilgan edi. Ammo 2002 yilning 5 aprelijadi ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining VIII-sessiyasida qabul qilingan «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq “sug‘urtalovchilar sug‘urtani amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘limgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin emas” deb belgilangan. Demak, sug‘urtalovchilarning investitsiya faoliyati qat’iy cheklangan. SHuningdek, Ushbu qonunning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan moddasida sug‘urtalovchilar maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va

shartlardagi investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanishlariga ruxsat berilgan. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2006 yil 6 mayda tasdiqlangan, №1571 raqam Bilan davlat ro‘yxatidan va 2006 yil 22 aprelda tasdiqlangan, №1565 raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan buyruqlariga asosan, sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urta rezervlarini tashkil qilish va investitsiyalashning tartiblari belgilangandir.

Jumladan, unda respublika sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta aktivlarini joylashtirish tartiblari, investitsiyalashning qonunchilikda belgilangan quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:

1. Diversifikatsiya;
2. Qaytishliligi;
3. Likvidliligi;
4. Foydaliligi.<sup>10</sup>

Investitsion faoliyatning diversifikatsiyasi birinchi navbatda sug‘urta kompaniyasi investitsion portfelining barqarorligini ko‘zda tutadi. Ma’lumki, sug‘urta kompaniyalari ularga o‘z mablag‘larini qo‘yishi mumkin bo‘lgan investitsion loyixalar tshplami sarmoya bozorining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Xozirgi paytda sug‘urtalovchilarning vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘lari tijorat banklari depozitlariga, qimmatli qog‘ozlarga joylashtirilishi, korxona va ko‘chmas mulklarga investitsiya qilinishi mumkin. Investitsiya portfel tarkibi va tizimini tartibga solish odatda kiritilgan mablag‘larning turlari bo‘yicha minimum va maksimumni belgilash yo‘llari orqali amalga oshiriladi. SHu Bilan birga, dunyoning etakchi kompaniyalarining tajribasiga ko‘ra, kompaniya investitsion portfelining korxonap va ko‘chmas mulklar ustav fondiga investitsiyalari 15%, qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalari 25-60%, tijorat banklari depozitlariga mablag‘lari 15-30%, investitsiyaning boshqa tutsrlariga 1-12% dan oshmaydigan miqdorlarda joylashtiradilar.

---

<sup>10</sup> Prikaz Ministerstva Finansov Respublikи Uzbekistan, zaregistrirovan №1565 ot 22.04.2006 «Ob utverjenii polojeniya o poryadke opredeleniya predelno dopustimogo razmera obyazatelstv po otdelnim riskam, svokupnogo razmera obyazatelstv i normativov platejesposobnosti straxovshchikov»

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar mablag‘lar yalanishini to‘g‘ri tashil etish muxim axamiyatga ega. Chunki, mablag‘lar aylanishi eng ma’qul variantini topish pirovard natijada korxona faoliyatini foyda bilan yakunlashiga olib keladi.

Sug‘urta faoliyatida joriy natijalar sug‘urta badallari ko‘rinishida sug‘urta kompaniyalari xisob – raqamiga kelib tushgan pul mablag‘lari aylanishi xisobidan daromad kelish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu daromadlar sug‘urta kompaniyalarini sug‘urta zaxiralarini shakllantirish orqali xarajatlar qismini qoplash va foyda olish manbai bo‘lib xizmat qiladi.

### **Sug‘urta tashkilotlarini investitsion faoliyati va uning mazmun-mohiyati**

Sug‘urta faoliyatining joriy taxlil pul mablag‘lari tushumi orqali o‘ziga olyotgan majburiyatlar adektivliligin belgilaydi.

Har qanday investitsion loyixani amalga oshirishda asosiy risk sifatida xizmatlar bozorda kuchli raqobatchining bo‘lishidir. Umuman olganda kompaniya uchun quyidagi turdagи risklar mavjud bo‘lib ular loyixani amaliyotga joriy etishda o‘z ta’sir doiralarini o‘tkazishlari mumkin.

Siyosiy risklar –bu turdagи risklar davlatdagи siyosiy jarayon bilan bevosita bog‘liq bo‘lib o‘z ichiga quyidagilarni oladi;

- xarbiy xarakatlar natijasida faoliyat ko‘rsata olmaslik;
- kutilmagan xodisalarning ro‘y berishi natijasida vaqtinchalik faoliyatni yurita olmaslik.
- soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar.

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy axvolning tinchligiga qaramasdan ko‘rinishdagi risklar davlatimizga chegaradosh bo‘lgan davatlardagi notinch axvol sababli mavjud bo‘lib qoldi.

Risk darajasini kamaytirish tadbirlari.

- davlat organlari bilan kompaniya aksiyadorlari o‘rtasidagi aloqani mustaxkamlash.

- ishbilarmon muxitini yaratishuqiy risklar – bu risklar qonunchilik bazasining nomukammalligi, xujjatlarni to‘g‘ri tuzish, rasmiylashtirilmasligi bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub’ektlari uchun barcha qonunchilik bazasi mukammal ishlab chiqilganligiga qaramasdan bu turdagи riskni inobatga olmaslik mumkin emas. Buning asosiy sababi byurokratiyaning mavjudligi.

Ammo kompaniya faoliyatini Davlat qo‘llab quvvatlayotgani bu turdagи risk darajasini pasayishiga olib keladi.

Risk darajasini kamaytirish chora tadbirlari bo‘lib;

- xujjatlarni aniq shakllarini yuritish;
- xujjatlarni rasmiylashtirishda bu soxa mutaxasislarini jalg etish;
- yukori malakali yurist va tarjimonlar uchun qo‘yshimcha moliyaviy resurslarni ajratish.

Texnik risklar - bu turdagи risklar ishlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va texnik loyixanining mavjud emasligidan vujudga keladi.

Asbob uskunalarga tender e’lon qilingandan boshlab, tovar etkazib beruvchining texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yuqori malakali mutaxasislar mavjudligiga xam inobatga olinadi. Bu sezilarli ravishda texnik risk darajasini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Ishlab chiqarish riski – bu turdagи risk taklif etilayotgan xizmatning sifati pastligi, yuqori malakali mutaxasislarning mavjud emasligi bo‘lishi mumkin. SHuni ta’kidlash lozimki, kompaniya loyixasini amaliyotga joriy etish uchun etarli darajada yuqori malakali mutaxasislarga ega bo‘lsa, bu turdagи risk darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Riskni kamaytirish darajasini bo‘yicha chora tadbirlari:

- Loyixani amalga oshirishda aniq qalendar rejlashtirish va boshqarishni yo‘lga qo‘yish;
- Taklif etilayotgan xizmatlar ustidan doimiy nazoratni o‘rnatish;
- YUqori malakali kadrlarni tayyorlab borish.

Ekologik risklar – bu turdagি risklar atrof muxitni ifloslanishi, atmosfera va suvga xar xil chiqindilarning chiqishi natijasida yuzaga keladi. Biz shug‘urlanayotgan soxa uchun bu turdagи risk darajasi ancha pastdir. Marketing riski – bu turdagи risklar bozorni yaxshi o‘rganilmaganligi, baxo siyosatining to‘g‘ri yuritilmaganligi marketing strategiyasini noto‘g‘ri ekanlaganligi bilan bog‘liq.

Risk darajasini kamaytirish;

- Kuchli marketing xizmatini joriy etish;
- Marketing strategiyasini ishlab chiqish;
- Marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;
- Egiluvchan tarif siyosatini ishlab chiqish.

Moliyaviy risklar – bu turdagи risklar moliyaviy natijalarini yo‘qotilgan, istemolchining to‘lovga layoqatsizligidan, talabning qatiyemasligidan, raqobatchilar tomonidan narxni kamaytirishlar, oborot mabag‘larining etishmasligini kelib chiqishni mumkin.

Riskni darajasini kamaytirish chora-tadbirlari.

- Istemolchilar talabini o‘rganish;
- Sifat ustida to‘liq nazoratni o‘rnatish;
- Investitsion va kredit resurslarini yangi yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish;
- Investitsion – moliyaviy strategiyani ishlab chiqarish.

Tabiiy risklar – bu turdagи risklar tabiatda xar xil baxtsiz xodisalarning ro‘y berishi, er qimirlashi, suv toshishi sel kelishi, yong‘in chiqishi, epidemiya tarqalishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida investitsiya faoliyati xamda investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanish tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu qonunning 4-moddasida investitsiyalarni amalga oshirish shakllari xaqida to‘xtalib

o‘tilgan, ya’ni investorlar investitsiyalarni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- yuridik shaxs tuzish yoi ularning ustav jamg‘armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, jumladan mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;
- qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;
- konsessiyalari, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo‘lgan konsessiyalarni olish;
- mulk xuquqini, shu jumladan ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko‘rsatish soxalari ob’ektlariga, turar joylarga mulk xuquqini, shuningdek erga xamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish xuquqini qonun xujjatlariga muvofiq olish.

Investorlar investitsiyalarni qonun xujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shakllarda xam amalga oshirishlari mumkin.

Investor investitsiyalash maqsadi, yo‘nalishi, turi va xajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida, tanlov savdosini o‘tkazish yo‘li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi.

Agar qonun xujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, investor, o‘ziga zarur bo‘lgan mol-mulkni yuridik va jismoniy shaxslardan o‘zaro kelishuv asosida belgilanadigan shartlarda xajmi va nomenlaturasini cheklamagan tarzda olishga xaqli.

Investor qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xuquqlarga xam ega bo‘lishi mumin.

Qonunning 14-moddasiga asosan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- investitsiya faoliyatining qonunchili negizi takomillashtirish;
- soliq to‘lovchilar va soliq solish ob’ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqlashtiruvchi soliq tizimini qo‘llash;
- asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;

- normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;
- monopoliyaga qarshi choralarmi qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
- erga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;
- investitsiya loyixalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ivesititsiya loyixalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun xujjalarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda xam amalga oshiriladi.

2002 yilning 5 aperldagi Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII-sessiyasida qabul qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida - sug‘urtalovchilar maxsus vakolatlari davlat organi belgilaydigan tartib va shartlarda investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanishlariga ruxsat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2000 yilning 28 iyunida 66-sonli buyruq bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi xududida sug‘urta tashkilotlarining zaxiralarini joylashtirish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomi”ni 952-raqam bilan davlat ro‘yxatiga olingan edi. Ushbu nizom 2000 yilning 5 avgustidan yuridik kuchga kiritilgan bo‘lib 2005 yil 31 deabrgacha amal qildi.

Bu nizomning o‘z kuchini yo‘qotish Moliya Vazirligi tomonidan zamon talablariga javob beradigan, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan xolda yangi nizomni ishlab chiqilishini talab etdi. 2006 yilda sug‘urta kompaniyalarining o‘z rezervlarini tashkil etish va investitsiyalash, kompaniyalarning tshlov qobiliyatini aniqlash bo‘yicha ikkita nizom qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 2006 yil 22 aperlda №1565-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan “Aloxida sug‘urta tavakkalchiliklari bo‘yicha majburiyatlar, jami majburiyatlarning yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p xajmini va sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati me’yorlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida nizom”, 2006 yil 2 maydan kuchga kirgan;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 2006 yil 6 mayda №1571-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan “Sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta zaxiralarini shakllantirish xamda joylashtirish tartibi va shartlari to‘g‘risida nizom”, 2006 yil 16 maydan kuchga kirgan.

Ushbu nizomda sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati davlat tomonidan tartibga solingan. Jumladan, unda Respublika iqtisodiyotida ustav va sug‘urta mablag‘lari qismini investitsiyalash qonunchilik yo‘li bilan belgilanishi va quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta kompaniyalari yuqoridagi №1565 nizomga o‘z mablag‘larini diversifikatsiya, qaytuvchanlik. Foydalilik va likvidlilik prinsiplari asosida joylashtiradilar.

2006 iyil 22 aprelda qabul qilingan №1565 nizom sug‘urta kompaniyalari tomonidan olinishi mumkin bo‘lgan majburiyatlarining chegaralari, sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu nizomda keltirilgan ayrim muxim masalalarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Nizomga ko‘ra aloxida sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p xajmi o‘z mablag‘lari va sug‘urta zaxiralarining 10%dan oshmasligi lozim. Sug‘urtalovchi ushbu me’yordan ortiq majburiyatni, qabul qilingan majburiyat bo‘yicha ortiqcha tavakkalchilikni mazur Nizomga muvofiq ravishda qayta sug‘urtalangan xolda qabul qilishi mumkin. Alovida tavakkalchilik bo‘yicha sug‘urtalovchining majburiyatları to‘langan sug‘urta muofotiga proporsional tarzda aniqlanadi, agarda sug‘urta shartnomasida aloxida tavakkalchiliklar bo‘yicha sug‘urtalovchining majburiyatları xajmi ko‘rsatilmagan bo‘lgan taqdirda.

Mazkur Nizom maqsadida sug‘urtalovchining jami majburiyatları deganda biz, 5 ta eng katta tavakkalchiliklar bo‘yicha sug‘urtalovchi majburiyatlarining eng ko‘p xajmi tushiniladi. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urtalovchining jami majburiyatları xajmi o‘zlik mablag‘lari miqdorining ikki barobaridan oshmasligi shart.

## **5. Investitsion faoliyatda mavjud risklar haqida tushuncha va unga noqulay omillarning ta'siri**

Sug‘urtalovchining to‘lov qobiliyatini aniqlash uchun oxirgi xisobt sanasiga sug‘urtalovchining balans ma’lumotlari, shuningdek, xisob-kitob asosida aniqlanadigan ma’lumotlardan foydalaniladi. Sug‘urtalovchining to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichi mazkur Nizom asosida o‘rnatilgan sug‘urtalovchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va likvidligi xisobiga olingan aktivlar o‘rtasidagi nisbat me’yorlarining bajarilishi xisoblanadi. To‘lov qobiliyatini sug‘urta faoliyati xajmlariga muvofiq ravishda ta’minalash uchun sug‘urtalovchilar yo‘l qo‘yiladigan aktivlarning xaqiqiy xajmi darajasini belgilangan tartibda muvofiqlashtirib borishi zarur.

Respublika sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta zaxiralarni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 2006 yil 6 mayda №1571-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan « Sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta zaxiralarini shakllantirish xamda joylashtirish tartibi va shartlari to‘g‘risida nizomi»ga asosan amalga oshiriladi.

Sug‘urta zaxiralarining shakllanishi bo‘yicha quyidagi qonun-qoidalar mavjud:

- xamma zaxiralar maxsus xisob-kitoblar asosida shakllanadi;
- zaxiralar sug‘urta olib borayotgan valyutada shakllanadi;
- sug‘urta zaxiralar xar bir aniq to‘lash muddatiga shakllanadi;
- zaxiralar faqat sug‘urta shartnomasi bo‘yicha emas, qayta sug‘urtalashda qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha xam shakllanishi mumkin.

Sug‘urtalovchilar o‘ziga qabul qilgan sug‘urta majburiyatlarini bajarish uchun yig‘ilgan sug‘urta mukofotlaridan kelgusida sug‘urta to‘lovleri uchun barcha sug‘urta turlari bo‘yicha kerakli sug‘urta zaxiralarini shakllantirishadi. Sug‘urta zaxiralar sug‘urtalovchining sug‘urtalanovchilar bilan tuzgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha shu vaqtdagi bajarilmagan majburiyatlarining xajmini ko‘rsatib turadi.

Xorij mamlakatlarida qabul qilingan sug‘urta zaxiralarining shakllanishi texnikasiga ko‘ra, sug‘urta qiluvchi bo‘yniga olgan xar bir majburiyat turi

sug‘urta zaxirasiga mos keladigan turi bilan qoplanadi. Xayot sug‘urtasi bo‘yicha amaldagi shartnomalar sharoitiga bog‘liq xolda matematik zaxiralar, yillik renta zaxiralari, fond zaxiralari va ishtirok etish zaxiralari shakllanadi. Sug‘urtaning boshqa turlari bo‘yicha -mukofot zaxiralari va zarar zaxiralari shakllanadi. Sug‘urta zaxiralari xajmi amaldagi shartnoma bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan summani butun xolda qoplashi zarur. SHuning uchun ularning xajmini aniqlash uchun sug‘urta qiluvchining operatsiyalarini chuqur taxlili va matematik xisob kitoblar zarur.

Texnik mablag‘lar sug‘urta qiluvchi tomonidan aloxida sug‘urta shartnomasi va butun sug‘urta portfeli bo‘yicha bir muddatga xisob-kitob qilingan sug‘urta to‘lovlar bo‘yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish kerak bo‘lgan mablag‘lar yig‘indisi. Ular sug‘urta zaxiralarining qismi bo‘lib xayot sug‘urtasidan tashqari sug‘urta turlari buyicha xisob-kitob qilinadi.

## **4-MAVZU: O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINING INNOVATSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

### **REJA**

1. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatida kuzatilayotgan muammo va kamchiliklar
2. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatini takomillashtirish mexanizmi

#### **1. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining innovatsion faoliyatida kuzatilayotgan muammo va kamchiliklar**

Sug'urta risklarining nafaqat tabiiy hodisalarning fors-major holatlari, balki mamlakatning ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tendentsiyalarda ham kuzatilishi natijasida mamlakatimizda sug'urta xizmatlari ko'lami muntazam ortib bormoqda. Mazkur soha insoniyatning turli sharoitlarda moddiy farovonligini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Milliy sug'urta bozorining jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urta xizmatlarining yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish va talab yuqori bo'lgan an'anaviy mahsulotlarni rivojlantirish orqali ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmini, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish borasida samarali faoliyat olib borilmoqda<sup>11</sup>. Raqobatbardoshlikni oshirish, potentsial mijozlarni jalg qilish maqsadida mahalliy sug'urta kompaniyalari turli innovatsiyalarni joriy qilgan holda bozor faoliyatini takomillashtirish bo'yicha muayyan tadbirlarni qo'llamoqd.

1. Sug'urta mahsuloti sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchiga ko'rsatiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar to'plami bilan belgilanadi. Sug'urtadagi mahsulot innovatsiyasining predmeti asosiy sug'urta xizmati bo'lib,

---

<sup>11</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги ПК-4412-сонли “Ўзбекистон Республикасининг сугурта бозорини ислоҳ килиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чоратабдирлари тўғрисида”ги Қарори.

yordamchi xizmatlarning o'zgarishi texnologik yangilik bilan bog'liq bo'ladi. Yangi sug'urta mahsulotlarini yaratishga yo'naltirilgan sug'urta faoliyatining innovatsion rivojlanishini har tomonlama ko'rib chiqish mumkin. Bir tomondan, sug'urta kompaniyasi xorijiy va mahalliy amaliyot uchun mutlaqo yangi sug'urta mahsulotini yaratish bo'yicha choralar ni ko'rmoqda. Boshqa tomondan, sug'urtalovchi yangi sifatlarni berish orqali bozorda avvaldan foydalaniladigan sug'urta mahsulotini takomillashtiradi. Uchinchidan, sug'urta kompaniyasi ushbu sug'urta bozorida noma'lum bo'lgan mahsulotni qarzga oladi va uni ushbu bozor uchun yangilik sifatida targ'ib qiladi. Mamlakat sug'urta bozorida aksariyat hollarda yangi sug'urta mahsuloti jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan yangi sifatlarga ega bo'lgan eski mahsulotning modifikatsiyasi hisoblanadi.

Kompaniyaning tashkiliy va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan yangiliklar sug'urta faoliyatini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanish, yangi tashkiliy tuzilmani joriy etish bilan bog'liq bo'ladi. Sug'urta kompaniyasida kompaniyaning turli bo'linmalarida innovatsiyalarni joriy etish zarurligini tahlil qilish va innovatsion loyihalarning amalga oshirilishini nazorat qilishni amalga oshiradigan, kompaniya xodimlari o'rtasida yuzaga keladigan yangi g'oyalalar to'g'risida ma'lumotlarni yig'adigan maxsus bo'linmani tashkil qilish kerak. Bu yangi g'oyalarni yaratish va samarali innovatsion jarayonlarni amalga oshirishda kompaniyaning intellektual salohiyati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tashkilotning tashqi muhit bilan aloqador yangiliklarni yaratishi natijasida turli maqsadlarga erishiladi. Ushbu maqsadlardan biri iqtisodiy jarayon ishtirokchilari, xususan banklar bilan yangi ittifoqlarni yaratishdir. Mazkur turdosh tarmoq kompaniyalarining integratsiyasi o'zaro aloqalarning eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi va samarali rivojlanishni ta'minlaydi. Bunday ittifoqning afzalliklari qatoriga sug'urta xizmatlarini sotish kanallarini kengaytirish kiradi, bu uyushmaga a'zo bo'lgan bank vakolatxonalari orqali sug'urta mahsulotlarini sotishni tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Sug'urta faoliyatini innovatsion rivojlantirish tamoyillariga javob beradigan, ammo korporativ innovatsion strategiya darajasiga chiqmagan barcha yangi g'oyalar, shubhasiz, sug'urta kompaniyasi rahbariyati tomonidan rag'batlantirilishi kerak. Yangilik kompaniyada qo'llanilishi yoki qo'llanilmasligidan qat'iy nazar rahbariyat yangilikni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etgan xodimlarni mukofotlashi kerak. Buning uchun nafaqat innovatsion strategiyani amalga oshirishga, balki kompaniyaning asosiy faoliyat jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan yangi g'oyalarning hisobini yuritish tizimini ishlab chiqish lozim. Biz yangi g'oyalarni yozib olishning avtomatlashtirilgan korporativ tizimini ishlab chiqishni taklif qilamiz. O'z saytining yoki umuman kompaniyaning ish jarayonlarini yaxshilashni istagan sug'urta kompaniyasining har bir xodimi o'zining g'oyalarni taqdim etishi va o'z kompaniyasining manfaatdor tuzilmalari vakillari bilan muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lisi shart. Xodimlar nafaqat o'z faoliyatini, balki kompaniya faoliyatini ham optimallashtirish bo'yicha g'oyalarni shakllantirishi uchun har bir xodimga kompaniyaning innovatsion rivojlanish strategiyasini bayon qilish va uning maqsad-vazifalarini tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Yangi g'oyalarni yozib olishning avtomatlashtirilgan tizimining bir qismi sifatida biz sug'urta kompaniyasida yangi g'oyalarni balli baholash tizimini joriy etishni taklif qilamiz, ya'ni:

1 ball – g'oya xodimning ish sifatini oshirishga qaratilgani uchun;

2 ball – g'oya kompaniya bo'limi ish unumdorligini oshirishga qaratilgani uchun;

3 ball – g'oya sug'urta kompaniyasining ma'lum bir sohasi uchun mas'ul bo'lган butun bo'lim ishini yaxshilashga qaratilgani uchun;

4 ball – g'oya kompaniya strategiyasining maqsadlarini qondirishga, uni amalga oshirish tashkilot oldiga qo'yilgan strategik vazifalarni hal qilishga yordam berishga qaratilgani uchun;

5 ball – g’oya sug’urta kompaniyasini rivojlantirish, sug’urta xizmatlarini taqdim etishning yangi yo’nalishlarini ochish uchun yangi imkoniyatlarni ochgani uchun.

Xodim tomonidan berilgan yangi g’oyaning balliga qarab g’oya muallifi belgilangan miqdordagi moddiy mukofotni olishi yoki tezkor murojaat qilgan istiqbolli xodimlar ro’yxatiga kiritilishi kerak. Yuqorida tavsiflangan Loyiha qo’mitasi yangi g’oyalarni tahlil qilish va baholash uchun faoliyat ko’rsatishi kerak. Bularning barchasi pirovard natijada sug’urta kompaniyasining intellektual salohiyatidan maksimal darajada foydalanishni ta’minlaydigan innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bo’yicha yuqori sifatli ishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Innovatsion rivojlanish strategiyasini tanlashda sug’urta kompaniyasining uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarini ta’minlaydigan bozor pozitsiyalarini izlash va mustahkamlashga asoslanish kerak. Bunga mijozlarga taklif qilinadigan yangi sug’urta mahsulotlari sifatidagi etakchi mavqeni saqlab qolish orqali erishish mumkin, bu sug’urta bozorida o’xshashi bo’lmasligi yoki sug’urtalanuvchi va potentsial sug’urtalanuvchilar uchun jozibali xususiyatlarga ega bo’lishni talab qiladi. Sug’urta kompaniyasining raqobatbardosh ustunliklariga erishishi uchun yuqori malakali novator mutaxassislarining mavjudligini, mijozlar ayrim guruhlarining sug’urta manfaatlari xususiyatlarini bilishini, sug’urta bozorida ishbilarmonlik obro’sini, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni va sug’urta kompaniyasining resurslarni boshqarishning samarali tizimini ta’minlash lozim.

3. Tanlangan innovatsion rivojlanish strategiyasiga, shuningdek uning hajmiga qarab sug’urta kompaniyasi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun turli xil investitsiya manbalarini jalb qilishi mumkin. Sug’urta bozori uchun nisbatan yangi bo’lgan va innovatsion strategiya maqsadlariga ega bo’lмаган kichik sug’urta kompaniyalari uchun vechur kapitalni moliyalashtirish investitsiya sifatida qaralishi kerak. Sug’urta mukofotlari katta bo’lgan o’rtalig’i va yirik sug’urta kompaniyalari investitsiya manbai sifatida o’z

mablag'laridan foydalanishlari mumkin. Va nihoyat, investitsiyalarni jalg qilish sohasida yirik sug'urta kompaniyasining rivojlanish cho'qqisi fond birjasida sug'urta kompaniyasi aktsiyalarining IPO birlamchi joylashtirilishini amalga oshirish orqali xususiy kapitalni jalg qilish hisoblanadi.

Butun dunyoda vechur kapitali innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sarmoyalarni jalg qilishning eng samarali manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, vechur kapitali qo'yilmalarining maqsadi investitsiya qilingan mablag'lardan tezda dividendlar olish emas, balki tanlangan sug'urta kompaniyasiga innovatsion rivojlanish jarayonini boshlash imkoniyatini berishdir, bu esa pirovard natijada vechur kompaniyaga kiritilgan sarmoyalardan katta foya olinishini ta'minlaydi. Investitsiya mablag'laridan kelib chiqadigan zararni kamaytirish uchun vechur kapital fondlari innovatsion loyihani va tanlangan sug'urta kompaniyasi faoliyatini har tomonlama tahlil qiladi. Agar sug'urta kompaniyasi innovatsion rivojlanish uchun vechur kapital mablag'larini jalg qilishdan manfaatdor bo'lsa, kompaniya ularning asosiy xususiyatlarini baholash va bir qator shartlarning bajarilishini tekshirishi kerak: kompaniya texnik, tijorat va marketing ko'nikmalariga ega bo'lishi, sug'urta bozorida o'zini ijobiy ko'rsatishi, innovatsion loyiha muhim va inkor etilmaydigan raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lishi kerak.

Vechur kapitalini jalg qilishning quyidagi foydali jihatlarini keltirish mumkin: garov ta'minotiga ehtiyoj bo'lmaydi; jalg qilingan mablag' uchun foizlarni to'lashga hojat qolmaydi; risklar diversifikatsiya qilinadi. Korxona mablag'lariga vechur kapitalini kiritishning kamchilik tomonlari esa ba'zi boshqaruv funktsiyalarining inkor etilishi; vechur fondlari vakillarining kompaniyaning direktorlar kengashiga kiritilishi; kompaniya mablag'larining sarflanishi ustidan tashqi nazaratning yuzaga kelishi bo'lishi mumkin.

Sug'urtalovchining asosiy faoliyati natijasida olingan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbai sifatida pul mablag'larini jalg qilish imkoniyatini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, sug'urta kompaniyasi faoliyatining muhim sharti bu sug'urta summalarini to'lash va zararni qoplashga

mo'ljallangan sug'urta fondlarini shakllantirishdir. Sug'urta fondining boshqa jamg'arma fondlaridan ajralib turadigan asosiy xususiyati shundaki, sug'urta fondi xarajatlari qat'iy ravishda maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Sug'urta kompaniyasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbai sifatida sug'urta hodisasi sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga mo'ljallangan zaxira mablag'laridan foydalaniladi. Sug'urta kompaniyasi shakllangan sug'urta zaxiralaridan faqat o'z maqsadlari uchun foydalanish huquqiga ega. Shu munosabat bilan, sug'urta kompaniyasining innovatsion loyihalarini moliyalashtirish uchun sug'urta zaxiralaridan foydalanish qiyin bo'lib tuyuladi. Shuni ta'kidlash kerakki, sug'urtalovchilar sug'urta mukofotlaridan olingan mablag'lardan tashqari, o'z ixtiyorida o'z mablag'lariga ham ega bo'ladi. Sug'urta kompaniyalarining o'z mablag'lariga ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shimcha kapital va taqsimlanmagan foyda kiradi. Sug'urta kompaniyasining aktsiyadorlariga dividendlar to'lashi va xodimlarga oylik ish haqi hisoblashidan tashqari foyda hisobiga hosil bo'lgan sug'urta kompaniyasining taqsimlanmagan foydasi kompaniyaning o'z mablag'lariga tegishli bo'lib, u kompaniya rahbariyatining qaroriga binoan ishlatalishi mumkin. Kompaniya rahbariyati taqsimlanmagan foydani kompaniyaning kelgusi rivojlanishiga ustuvor yo'nalish sifatida, shuningdek uzoq muddatli yuqori daromadli investitsiya turlariga sarflashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, amaldagi qonunchilik hujjalari muvofiq, innovatsiyalarni moliyalashtirish ichki pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Hozirda ko'plab yirik kompaniyalar IPO, ya'ni o'z aktsiyalarini fond birjalarida dastlabki joylashtirishni rejalashtirmoqdalar. Mamlakatda sug'urtalovchilarning kapitallashuvini oshirish va kelajakda innovatsion rivojlanishni moliyalashtirish uchun qo'shimcha mablag'larni olish maqsadida IPO o'tkazilishi mumkin. IPO kompaniyadan etarli kapitallashuvga, xalqaro agentliklarning ijobiliy reyting bahosiga ega bo'lishni, shuningdek xalqaro moliyaviy hisobot talablariga muvofiq kompaniya hisobotlarining shaffof

bo'lishini talab qiladi. Mahalliy sug'urta kompaniyalari aktsiyadorlari o'z aktsiyalarini fond birjasida ikki asosiy sababga ko'ra joylashtiradi, birinchidan, O'zbekistonning sug'urta sohasiga xorijiy investorlar tomonidan etarlicha qiziqish borligi, ikkinchidan, fond bozorlarida sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlarining etishmasligi. Sug'urta kompaniyasi ushbu aktsiyalardan olingan daromadlarni innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga, shuningdek chakana biznes va boshqa sug'urta kompaniyalarining aktsiyalarini sotib olishga yo'naltirishi kerak.

4. Sug'urta kompaniyasi ba'zi innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ichki muhit resurslarining etarli miqdori va sifatiga ega bo'lmasligi mumkin. O'zbekiston sug'urta bozoridagi vaziyatni tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, sug'urta kompaniyalarining aksariyati axborot texnologiyalari sohasida mustaqil ravishda innovatsion faoliyat olib borishga tayyor emas. Shu munosabat bilan, axborot texnologiyalari nuqtai nazaridan innovatsion strategiyani o'z vaqtida va muvaffaqiyatli amalga oshirish, yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va amalga oshirishga qaratilgan turdosh tashkilotlarning xizmatlarini jalb qilish to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

Sug'urta kompaniyasining yagona axborot tizimini yaratishning innovatsion jarayoni sifatida sug'urta faoliyati bilan bog'liq kundalik ma'lumotlarni nafaqat o'z vaqtida qayta ishlashga, balki kompaniya faoliyatini takomillashtirish uchun belgilangan innovatsion strategiyaning maqsadlarini bajarish, innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimida autsorsing o'tkazish zarur hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasida innovatsion axborot texnologiyalari echimlarini yaratish murakkab, xarajat talab qiladigan, ammo zarur va juda muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon sug'urta bozoriga katta foyda olib kelishi uchun strategik va taktik maqsadlarni to'g'ri belgilash, shuningdek harakatlarni puxta rejorashtirish va natijani doimiy ravishda kuzatib borish zarur. Axborot texnologiyalari sohasida innovatsion qarorlarni qabul qilish sohasidagi strategik maqsadlarni boshqarishni takomillashtirish, rivojlanish dinamikasini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va natijada sug'urta kompaniyasining rentabelligini oshirish, raqobatbardoshligini

kuchaytirish hamda so'nggi axborot ishlanmalaridan foydalanish lozim. Asosiy taktik maqsadlarga quyidagilar kiritiladi: axborot texnologiyalari sohasida sug'urtalovchini sug'urtani rivojlantirish jarayoni bilan bog'liq bo'limgan kundalik ishdan ozod qilish, doimiy mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi xaridorlarni topish jarayonini tezlashtirish, shuningdek yangi mahsulotning muvaffaqiyatini baholash hamda yangi savdo kanalini yaratish.

Tahlillarning ko'rsatishicha, aksariyat hollarda mahalliy sug'urta bozori uchun chet elda ishlab chiqilgan va foydalaniladigan tayyor dasturiy mahsulotlardan foydalanish etarlicha samara keltirmaydi. Mamlakat sug'urta kompaniyalari faoliyatini axborot bilan ta'minlash hozirgi paytda asosan mahalliy dasturiy ta'minot asosida amalga oshiriladi. Sug'urta kompaniyasi tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga doimo moslashib borishi va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish uchun faoliyatni axborot bilan ta'minlashning qo'shimcha tarkibiy qismlarini ishlab chiqishni ta'minlashi kerak. Bizning fikrimizcha, sug'urta faoliyatini innovatsion rivojlanishining quyidagi asosiy maqsadlariga erishish uchun ishlatilishi kerak:

yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish vaqtini qisqartirish, shuningdek ularni mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish;

sug'urta kompaniyasining byudjet jarayonini samarali boshqarish tizimini yaratish;

xalqaro standartlarga javob beradigan yangi moliyaviy tizimni joriy etish; mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimini yaratish (CRM tizimi).

5. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini innovatsion takomillashtirish, aholining xizmatlardan foydalanish ko'lmini kengaytirish, sug'urta polislarini yuritish tizimini soddalashtirish maqsadida 2020 yil 14 dekabrda Vazirlar Mahkamasining “Elektron turdagи sug'urta xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori qabul

qilindi. “E-polis” - bu sug’urta polisining internetdan sotib olingan va elektron shaklda muomalaga chiqarilgan ko’rinishi hisoblanadi. Qarorga asosan, “E-polis” dastlabki bosqichda transport vositalari egalarining uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligi majburiy sug’urtasi doirasida amal qiladi va uni 2021 yil 1 martdan sotib olish mumkin bo’ldi.

“E-polis” quyidagi afzallikkarga ega<sup>12</sup>:

1. Birinchi navbatda vaqt va mablag’ iqtisod qilinadi. Mazkur sug’urta polisini sotib olish uchun faqatgina internetga ularishning o’zi kifoya, sug’urta kompaniyasiga borish talab etilmaydi, shuningdek, onlayn to’lov qilish imkoniyati ham mavjud. Bundan tashqari, polisning xarajatlari amaldagi sug’urta turlariga nisbatan birmuncha arzon bo’lishi kutilmoqda.

2. Elektron hujjatni, ya’ni polisni yo’qotib qo’yish xavotirli emas. Polis rasmiylashtirilgandan so’ng, “E-polis”ni sug’urta qildiruvchi istagan paytda o’zining mobil qurilmasiga qaytadan yuklab olishi yoki tekshirishi mumkin. Buning uchun SMS-xabarnoma yuborilgan raqam yoki elektron pochta manzilini ko’rsatish kifoya.

3. “E-polis”ni rasmiylashtirishda firibgarlikka uchrash ehtimoli minimal darajada bo’ladi (qog’oz shaklidagi polis sotib olishda sug’urta agenti tomonidan aldanish ehtimoli mavjud).

4. Faqatgina bir nechta yoki deyarli bitta sug’urta kompaniyasining ofisi mavjud bo’lgan olis hududlardagi fuqarolar uchun eng afzal sug’urta kompaniyasini tanlash va aynan o’zi xohlagan kompaniya bilan sug’urta agentlari ishtiokisiz to’g’ridan-to’g’ri shartnomaga tuzish imkoniyati yuzaga keladi.

5. Sug’urta mukofoti tizimda yaratilgan elektron kalkulyatsiya taqdim etilgan ma’lumotnomaga asosida avtomatik hisoblanadi.

Shu bilan birga, sug’urta kompaniyalarining ham xodimlarga ish haqi to’lash hamda agentlarga vositachilik haqlari bo’yicha xarajatlari sezilarli darajada pasayadi. Shunday ekan, mazkur tizimni sug’urtaning ixtiyoriy turlari doirasida

---

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “Электрон турдаги сұғурта хизматлари күрсатиши тартибини такомиллаштириш бүйича құшымча чора-тадбирлар тұғрисида”ги Қарори. 2020 йил 14 декабр

qo'llash ham samarali natijalarni beradi, ya'ni sug'urta kompaniyalarining innovatsion faoliyati takomillashishi, jumladan, sug'urtalash ko'lami kengayishi, sug'urtalash jarayoni soddalashishi, ish yuritish xarajatlari tejalishiga erishiladi.

6. Darhaqiqat, sug'urtalovchilarining xarajatlar yukining kamayishi so'zsiz uning moliyaviy natijalarida o'z aksini topadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ular nafaqat mijozlarga har tomonlama qo'l keladigan va qiziqishini oshiradigan, balki o'zining moliyaviy holatini mustahkamlaydigan va raqobatbardoshligini oshiradigan innovatsiyalarni yaratishga intilmoqda. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida biz tomonimizdan sug'urta kompaniyalariga an'anaviy sug'urta mahsulotlariga yangi sifatlarni joriy qilish orqali ham innovatsiyalarni yaratish mumkinligi taklif etildi, xususan, sug'urtalovchilarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida bojxona to'lovlarning kechiktirilishi javobgarligini sug'urtalashda mijozlardan garov undirilishini talab qilish tartibini qo'llash taklif etildi. Ma'lumki, mamlakatga chet davlatlardan kirib kelayotgan import tovarlari uchun bojxona to'lovlari undiriladi. Sug'urta kompaniyalari tomonidan mazkur to'lovlarning kechiktirilishi javobgarligini sug'urtalashi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda sug'urtalanuvchilar bo'lib import tovarlarining egasi hisoblanadi. Mazkur sug'urta turida sug'urta hodisalarining ko'p sodir bo'lishi, ya'ni bojxona to'lovlarini o'z vaqtida to'lamaslik holatlari ko'p sodir bo'lgani va bu sug'urtalovchining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgani uchun sug'urta shartnomalarini tuzishda mijozlardan garov undirish tartibini joriy etish taklifi berildi. Sug'urtalanish chog'ida garov bergen har qanday mijoz o'z zimmasidagi majburiyatni vaqtida to'lashga harakat qiladi va bu o'z samarasini berdi. Garov evaziga sug'urtalangan mijozlarning bojxona to'lovlarini o'z muddatida to'lashiga erishildi va bu holat sug'urta kompaniyasining moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sug'urta hodisalarining sodir bo'lishi, ya'ni bojxona to'lovlarini o'z vaqtida to'lamaslik holatlari 2020 yilda o'tgan 2019 yilga nisbatan 50 foizga kamaydi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sug'urta faoliyati ko'lamin kengaytirish, innovatsion yondashuvlardan yanada qat'iyatli va samarali foydalanish, sohani

takomillashtirish, shuningdek sug'urta xizmatlarining jozibadorligi va xaridorgirligini oshirishga keng shart-sharoitlar yaratish borasida davlat boshqaruvi va nazoratini kuchaytirish zaruratga aylanib bormoqda. Bugungi kunda sug'urta kompaniyalarining faoliyati, xizmat ko'rsatish yo'naliishlari Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan nazorat qilinsa, ularning moliyaviy imkoniyatlari, resurslarni joylashtirishga o'rnatiladigan talabalar, majburiyatlarini qabul qilish chegarasi va moliyaviy resurslardan foydalanish me'yordagi tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'iga muvofiq tasdiqlangan va 1806-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va 1882-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi nizomlar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoevning sug'urta sohasiga qaratayotgan alohida e'tibori, sohani modernizatsiyalash borasida olib borayotgan islohotlari natijasida ko'p yillardan buyon o'zgarishsiz amal qilib kelayotgan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi, mazkur qonun loyihasi 2020 yil 11 dekabrda Oliy Majlisning Qonunchilik Palatasi tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi. Mazkur qonun loyihasi quyidagilarni nazarda tutadi:

sug'urta sohasini nazorat qilishning prudentsial usullarini hamda korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish;

sug'urta xizmatlarining elektron shakllarini, shu jumladan onlayn-sug'urtaning huquqiy asosi va mexanizmlarini yaratish.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

### **1-MAVZU: O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTA TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

**Quyidagi atamalarga izoh bering:** Majburiy sug'urta haqida tushuncha, majburiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari, sug'urta tariflari, summasi, shartlari, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari hamda xodimlarini majburiy davlat sug'urtasi, Davlat bojxona va soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasiga olish tartibi.

#### ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Majburiy sug'urta haqida tushuncha va uni o'tkazishdagi asosiy shartlar.
2. Majburiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari.
3. Sug'urta hodisasi ro'y berganda tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar.
4. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari hamda xodimlarini majburiy davlat sug'urtasi.
5. Ushbu sug'urtani amalga oshirish shartlari, sug'urta tariflari va summalar.
6. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta summalarini to'lash tartibi.
7. Davlat bojxona va soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasiga olish tartibi.

#### ***MUSTAQIL ISH MAVZULARI***

1. Xavflilik darajasi yuqori bo'lgan sanoat korxonalarini sug'urtalashning hozirgi holati va istiqbollari.
2. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlari va ular faoliyatini rivojlantirish muammolari.
3. Sug'urta portfeli va uning sug'urta kompaniyasi moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli.
4. O'zbekistonda qayta sug'urtalash turlari va uning sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasining bozor sharoitidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda rivojlantirish masalalari.
5. Qishloq xo'jaligi sug'urtasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari va uning qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi o'rni.
6. O'zbekistonda kasbiy javobgarlikni sug'urtalash muammolari va uni takomillashtirish (auditorlar, notariuslar baholovchilar va bojxona brokerlari misolida).
7. O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklarini sug'urtalash masalalari.

8. Tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug‘urtalashning chet mamlakatlar tajribasi va ularni O‘zbekistonda joriy etish masalalari.
9. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtaning majburiy turini joriy etish hamda ixtiyoriy turlarini rivojlantirish masalalari.
10. Sug‘urta zahiralari va ular tarkibini takomillashtirish, ularning shakllanish va foydalanish yo‘nalishlari.
11. O‘zbekiston sug‘urta bozorining xalqaro sug‘urta bozorlariga integratsiyalashuvini ta’minlash yo‘llari.
12. Sug‘urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari.

## **2-MAVZU: SUG‘URTA BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH VA KENGAYTIRISH**

**Quyidagi atamalarga izoh bering:** Sug‘urta bozori, milliy sug‘urta bozori, mntaqaviy sug‘urta bozori, halqaro sug‘urta bozori, sug‘urta bozori bozori ishtirokchilari, sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari, sug‘urta bozorini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari, davlat sug‘urta nazorati inspeksiyasining funksiya va vazifalari.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Sug‘urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari.
2. Sug‘urta bozorining professional va professional bo‘lman ishtirokchilari.
3. Sug‘urta bozorining boshqa bozorlar bilan o’zaro aloqasi.
4. O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishini aks ettiruvchi asosiy ko’rsatkichlar.
5. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish zarurligi va ahamiyati.
6. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari.
7. Sug‘urta faoliyatini tartibga solish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari.
8. Davlat sug‘urta nazorati organi: uning funktsiya va vazifalari.
9. Sug‘urta faoliyatini tartibga solishga qaratilgan asosiy meyoriy hujjatlar.
10. Sug‘urta faoliyatini litsenziyalash.

### **MUSTAQIL ISH MAVZULARI**

1. Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari va ularning faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirishni takomillashtirish.
2. Sug‘urta bozorida vositachilar va ularning faoliyatini tashkil etish asoslari.
3. Ipoteka sug‘urtasi: shakllanishi, rivojlanishi va uni takomillashtirish.

4.Sug‘urta portfeli va uni muvozanatini ta’minlash masalalari (“Kafolat” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi misolida).

5.O‘zbekistonda tadbirkorlik risklari, uni sug‘urtalash mexanizmi va takomillashtirish yo‘nalishlari.

6.O‘zbekistonda tijorat banklari risklarini sug‘urtalash va uni takomillashtirish (“Ishonch” banklararo sug‘urta kompaniyasi misolida).

7.Rivojlangan mamlakatlar sug‘urta tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari (Buyuk britaniya va Geramaniya misolida).

8.Sug‘urtalovchilar moliyaviy barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish va uni takomillashtirish yo‘nalishlari.

9.Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug‘urta bozorini tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari.

10.Umumiy sug‘urta tarmog‘i klasslari va ular bo‘yicha sug‘urtalashni samarali tashkil etish yo‘llari.

11.Sug‘urta faoliyatini solikqa tortish va uni takomillashtirish (“O‘zagrosug‘urta” AJ sug‘urta kompaniyasi misolida).

12.AQSH sug‘urta tizimi va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.

13.Majburiy sug‘urta, uni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish masalalari.

14.O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urtalashni tashkil etish va rivojlantirish masalalari.

15.O‘zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklari,uni sug‘urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.

### **3-MAVZU. SUG‘URTA KOMPANIYALARINING KAPITALLASHUV DARAJASINI, TO‘LOV QOBILIYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

**Quyidagi atamalarga izoh bering:** Sug‘urtalovchining moliyaviy holatini belgilovchi elementlar: aktiv, majburiyat, kapital, sug‘urta tashkiloti moliyaviy natijasini baholash bilan bog’liq elementlar: daromad va xarajatlar, sug‘urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining tarkibi: balans, moliyaviy natijalar to‘g’risida hisobot va boshqalar.

#### ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Sug‘urtalovchining moliyaviy holatini belgilovchi elementlar: aktiv, majburiyat, kapital.

2. Sug‘urta tashkiloti moliyaviy natijasini baholash bilan bog’liq elementlar: daromad va xarajatlar.

3. Sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining tarkibi: balans, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va boshqalar.
4. Sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining shakli va uni tegishli foydalanuvchilarga taqdim etish muddatlari.
5. Sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining e'lon qilinishi va unga qo'yilgan talablar.
6. Maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladigan buxgalteriya va statistik hisobotlar.
7. Yillik va choraklik buxgalteriya hisobotlarini tuzish.

### ***MUSTAQIL ISH MAVZULARI***


1. O'zbekistonda tadbirkorlik risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va takomillashtirish yo'nalishlari.
2. O'zbekistonda tijorat banklari risklarini sug'urtalash va uni takomillashtirish ("Ishonch" banklararo sug'urta kompaniyasi misolida).
3. Rivojlangan mamlakatlar sug'urta tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari (Buyuk britaniya va Geramaniya misolida).
4. Sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
5. Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta bozorini tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari.
6. Umumiy sug'urta tarmog'i klasslari va ular bo'yicha sug'urtalashni samarali tashkil etish yo'llari.
7. Sug'urta faoliyatini solikqa tortish va uni takomillashtirish ("O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi misolida).
8. AQSH sug'urta tizimi va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.
9. Majburiy sug'urta, uni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish masalalari.
10. O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalashni tashkil etish va rivojlantirish masalalari.
11. O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.
12. Sug'urta kompaniyasi daromadlari va uni oshirish yo'llari.
13. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarni sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari.
14. Sug'urta kompaniyasi to'lov qobiliyatini mustahkamlash yo'llari.
15. Hosil sug'urtasi: xalqaro amaliyot, hozirgi vaziyat va muammolar.
16. Sug'urta risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ("O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi misolida).
17. Hayot sug'urtasi bozorida zamonaviy sug'urta mahsulotlari (Evropa Ittifoqi davlatlari misolida).
18. Auditorlarning kasbiy javobgarligini sug'urta kilish va uni takomillashtirish.

- Tashuvchilarning fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari.
- Sug‘urta da’volari va ularni tartibga solish amaliyotini takomillashtirish.

### ***KEYS TOPSHIRIQ***



<p>“Kapital sug‘urta” sug‘urta kompaniyasi 2015 yil uchun investitsiyaga yo‘naltirishga mo‘ljallagan mablag‘lari 550 mln. so‘mdan iborat. Kompaniyaning ustav kapitali 1 mlrd. so‘m. Tashkil etilayotgan “Avto invest” MCHJning shakllantirish ko‘zda tutilgan jami ustav kapitali 1 mlrd. 200 mln. so‘m.</p>	<p>“Kapital sug‘urta” sug‘urta kompaniyasi o‘z investitsion mablag‘larining ko‘pi bilan qanchasini “Avto invest” MCHJning ustav kapitalini shakllantirishga yo‘naltirishi mumkinligini hisoblang?</p>
---	---



Kredit shartnomasiga ko‘ra jami kredit summasi 20 mln. so‘m bo‘lib, yillik 18 foiz bilan 8 oyga berilgan. Sug‘urta tarifi sug‘urta summasiga nisbatan 2,5 foiz. Sug‘urtalovchining javobgarlik chegarasi – 90 %. Kredit oluvchi olgan kreditini o‘z vaqtida to‘lay olma.

**Sug‘urta mukofoti, zarar va sug‘urta qoplamasining hajmini aniqlang?**



#### Demak

- 1) sug‘urta mukofoti qiymati:  
 $(20 \text{ mln.} + 20 \text{ mln.} \times 0.18 \times (8 : 12)) \times 0.9 \times 0.025 = 106\,920 \text{ so‘m}$
- 2) sug‘urtalanuvchining zarari hajmi:  
 $(20 \text{ mln.} + 20 \text{ mln.} \times 0.18 \times (8 : 12)) = 4\,752\,000 \text{ so‘m}$
- 3) sug‘urta qoplamasasi  
 $4\,725\,000 \times 0.9 = 4\,252\,500 \text{ so‘m}$

## **4-MAVZU: O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINING INNOVATSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI**

**Quyidagi atamalarga izoh bering:** Sug'urtalovchining moliyaviy holatini belgilovchi elementlar: aktiv, majburiyat, kapital, sug'urta tashkiloti moliyaviy natijasini baholash bilan bog'liq elementlar: daromad va xarajatlar, sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining tarkibi: balans, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va boshqalar.

### ***NAZORAT SAVOLLARI***

1. Sug'urtalovchining moliyaviy holatini belgilovchi elementlar: aktiv, majburiyat, kapital.
2. Sug'urta tashkiloti moliyaviy natijasini baholash bilan bog'liq elementlar: daromad va xarajatlar.
3. Sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining tarkibi: balans, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot va boshqalar.
4. Sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining shakli va uni tegishli foydalanuvchilarga taqdim etish muddatlari.
5. Sug'urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining e'lon qilinishi va unga qo'yilgan talablar.
6. Maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladigan buxgalteriya va statistik hisobotlar.
7. Yillik va choraklik buxgalteriya hisobotlarini tuzish.

### ***MUSTAQIL ISH MAVZULARI***

21. O'zbekistonda tadbirkorlik risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va takomillashtirish yo'nalishlari.
22. O'zbekistonda tijorat banklari risklarini sug'urtalash va uni takomillashtirish ("Ishonch" banklararo sug'urta kompaniyasi misolida).
23. Rivojlangan mamlakatlar sug'urta tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari (Buyuk britaniya va Geramaniya misolida).
24. Sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
25. Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta bozorini tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari.
26. Umumiy sug'urta tarmog'i klasslari va ular bo'yicha sug'urtalashni samarali tashkil etish yo'llari.
27. Sug'urta faoliyatini solikqa tortish va uni takomillashtirish ("O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi misolida).

28. AQSH sug‘urta tizimi va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.
29. Majburiy sug‘urta, uni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish masalalari.
30. O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urtalashni tashkil etish va rivojlantirish masalalari.
31. O‘zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklari, uni sug‘urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.
32. Sug‘urta kompaniyasi daromadlari va uni oshirish yo‘llari.
33. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarni sug‘urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari.
34. Sug‘urta kompaniyasi to‘lov qobiliyatini mustahkamlash yo‘llari.
35. Hosil sug‘urtasi: xalqaro amaliyot, hozirgi vaziyat va muammolar.
36. Sug‘urta risklarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari (“O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi misolida).
37. Hayot sug‘urtasi bozorida zamонавији sug‘urta mahsulotlari (Evropa Ittifoqi davlatlari misolida).
38. Auditorlarning kasbiy javobgarligini sug‘urta kilish va uni takomillashtirish.
39. Tashuvchilarning fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari.
40. Sug‘urta da’volari va ularni tartibga solish amaliyotini takomillashtirish.

## V. KEYSALAR BANKI

### **Keys stadi: Sug‘urta faoliyatini to‘g‘ri va oqilona tashkil etishda sug‘urta da’volarini hal etish tizimini nazorat qilish**

Sug‘urta faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va unga sug‘urtalanuvchilarning uzlusiz jalb etilishi ular o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash orqali ta’milanadi. Zkur tizimning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib sug‘urta hodisalari natijasida da’volarning haletilish jarayoni hisoblanadi. Sug‘urta da’volarining ijobiy hal etilishi mijozlar ishonchining mustahkamlanishini ta’minlaydi. Mazkur keys-stadi la’volarning ko‘rib chiqilishida uchraydigan muammolarni tahlil qiladi va uning imini beradi.

**Keysning maqsadi:** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamizda sug‘urta faoliyati sub’ektlarining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish, ularning tizim barqarorligiga ta’sirini tushuntirish, sug‘urta da’volarini hal etishning tartib-tamoyilini tushuntirish, tizimidagi muammolarni o‘rganish hamda shu asosda echimlarini aniqlashdan iboratdir.

#### **O‘qitish natijalari:**

- sug‘urta munosabatlarini vujudga keltiruvchi ob’ektiv shart-sharoitlarni baholaydi;
- O‘zbekistonda sug‘urta tizimini oqilona olib borishda soha sub’ektlari faoliyatining tashkil etilish tamoyillarini o‘rganadi;
- Xalqaro amaliyotda sug‘urta faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xususiyatlarini ochib berish;
- O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishdagi mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlaydi;
- Sug‘urta tiziminini barqarorligini ta’minlashda sug‘urta da’volarining ijobiy hal etilishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi.

**Ushbu keysni bajarish uchun talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlar ikerak:**

- ❖ Sug‘urtaning nazariy va amaliy asoslarini bilishi;
- ❖ Aholi sub’ektlari manfaatlarini sug‘urtalashning ob’ektiv zarurligini asoslay olishi;
- ❖ Extimoldagi mijozlarni jalg qilish yo‘llarini ishlab chiqishni bilishi;
- ❖ Yangi sug‘urta maxsulotlarini joriyqilish imkoniyatlari tadqiq eta olishi;
- ❖ Statistik ma’lumotlarni tahlil qilishi va baholay olishi;
- ❖ Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda kompaniyaga taqdim etiladigan hujjatlarni sanab beradi;
- ❖ Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sug‘urta bozori ishtirokchilarining samarali faoliyatini shakllantirishga qaratilgan yo‘nalishlarni tavsiflay olishi.

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abduraxmonov I., Abduraimova M., Abdullaeva N. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 420 b.
2. Yuldashev O., Zakirxodjaeva Sh. Hayot sug‘urtasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –384 b.
3. Shennayev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G‘. Sug‘urta ishi. O‘quv qo‘llanma.T.: Iqtisod-moliya, 2014. 247 b.
4. Анисимов А. Ю. Страховое дело: учебник и практикум для СПО. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 186 с
5. Маслова Т. Медицинское страхование граждан. Новшества, возможности выбора. – М.: Библиотечка РГ, 2019. – 192 с.

### **Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:**

Ushbu keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettiradi.

**Keys ob’ekti–O‘zbekiston sug‘urta bozori.**

### **Axborot manbalari:**

O‘zbekistonda sug‘urt abozori ishtirokchilarining faoliyat ko‘rsatkichlari (o‘sish tendensiyalari).

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, syujetsiz, prognostik, tahliliy yozishma, statistik materiallar asosida, o‘rtacha, tuzilmaviy bayon etilgan. Keysning asosiy ob’ekti O‘zbekiston sug‘urta bozori ishtirokchilari hisoblanadi.

**Didaktik maqsadlari bo‘yicha** – trening keys hisoblanib, amaliy mashg‘ulot davomida o‘zining olgan nazariy bilimlarini chuqurroq bilishga qaratilgan.

Ushbu keysdan – barcha iqtisodiy yo‘nalishlar o‘qitiladigan; “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Milliy va jahon iqtisodiyoti”, “Sug‘urta biznesi”, “Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti”, “Umumiy sug‘urta”, “Sug‘urta marketingi” fanlaridan o‘quv mashg‘ulotlarda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Mavzu: Sug‘urtaning rivojlanish tendensiyalari va istiqboli**

Iqtisodiyotning globallashuv sharoitida ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, sifatli, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda xizmatlarning zamonaviy turlarini ko‘paytirish va nomenklaturasini kengaytirish, ishlab chiqarishning energiya sig‘imini qisqartirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan harakatlar strategiyasining 3.1. bandi makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosiy e’tibor sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy

institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan<sup>13</sup>.

Iqtisodiyotda erishilgan marralar, istiqbolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, jahon bozoridagi real va yuzaga kelishi proqnozlashtirilayotgan vaziyatdan kelib chiqib 2018 yilgi iqtisodiy dasturning bir qator eng muhim yo'naliishlari va ustuvor vazifalari belgilandi. Shuningdek, mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'naliishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarining samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur. Bugungi kund adavlat moliyaviy siyosatining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini muayyan chora-tadbirlar yordamida oshirish asosida jamiyat a'zolarining turmush farovonligi darajasini ta'minlashdan iborat.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarini samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur. O'tgan yillar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz rahbariyati va hukumati sug'urta sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishg amuntazam e'tibor berib kelayapti.

Mamlakatimizning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda sug'urtaning o'rni beqiyosdir. Bu esa albatta O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatbardosh sug'urtatashkilotlarining faoliyat yuritishlari va axoliga sifatli sug'urtamaxsulotlarini taqdim etishlari ayni damda juda dolzarbdir, buni esa sug'urta biznesini rivojlantirishsiz tessavur qilish qiyin.

---

<sup>13</sup>2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7 fevraldag'i O'zbekiston Prezidentining farmoni.



Shuni alohida qayd etish lozimki, sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarish bo‘yicha mijozlar oldida katta mas’uliyatga egadirlar. Sug‘urta tashkilotlari tomonidan o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarilmasligi salbiy ijtimoiy-iqtisodiyoqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ularning moliyaviy barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash yo‘llarin iqidirish lozim. Sug‘urta biznesini barqaror faoliyat yuritishlarini ta’minalash bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramasdan, tan olish kerakki, bu borada o‘z echimini kutayotgan muammolar talaygina. CHunonchi, sug‘urta tashkilotlarining salohiyatli mijozlarni jalb etish yuzasidan olib borayotganishlari talab darajasida emas. Sug‘urta tashkilotlari ishlab chiqqan sug‘urta xizmatlari har doim hammijozlarning manfaatlariga mos kelavermaydi. Sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta hodisalari ro‘y berishi natijasida etkazilgan zararlarni to‘lash operativ ravishda amalga oshirilmasdan, keraksiz hujjatlarni mijozlardan talab etish holatlariuchraydi. Bularning bari, pirovardida, sug‘urta tashkilotlari rivojlanishiga soya tashlaydi. Bunga o‘xhash muammoviy holatlarni echimini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Muammolar:**

1. Sug‘urta da’vosini ko‘rib chiqish nafaqat sug‘urta mahsuloti sifatin ibaxolovchi balki sug‘urta kompaniyalariga ishonchlilik darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Sug‘urtalanuvchi aniq bir mulkni yoki javobgarligini sug‘urta himoyasiga taqdim eta rekan, avvalambor u ma’lum bir xodisa natijasida etkazilgan zararni tez va sifatli qoplanishi haqida muloxaza yuritishi tabiiy. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, hozirgi kunda sug‘urta xodisalari sodir bo‘lganda sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi yuzaga kelgan munosabatlarni tartibga solish bir qancha uzoq muddatlarga uzayib ketmoqda. Bu esa o‘z navbatida mijozlarni sug‘urta kompaniyasig abo‘lgan ishonchiga jiddiy ta’sir etmoqda. Sug‘urta da’vosini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minalash uchun bir qancha omillar sabab bo‘lmoqda. Xozirda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda ma’lum bir baxtsiz xodisa sodir bo‘lganda, sug‘urta kompaniyasi, o‘z mijozlari

nomidan barchatashkilotlarda ularning manfaatlarini ximoya qilish xizmatini (yuridik xizmat) yaxshilashga a'lovida e'tibor berib kelmoqda. Bu borada Respublikamizda sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat biroz yaxshi yo'lgaqo'yilmaganligi sezilib bormoqda.

### **Sug'urta tashkilotlari xizmati bilan qay darajada qoniqqanligi<sup>14</sup>**



### **O'zbekiston sug'urta bozorining umumiy sug'urta mukofotlari va to'lovleri dinamikasi (mlrd.sohma).<sup>15</sup>**

<sup>14</sup>Журнал "Экономическое обозрение", № 2(136), 2017 йил

2. Milliy sug‘urtalovchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini isug‘urtalash borasida, asosan azaliy sug‘urta turlari bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatildi, bular baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash, ko‘chmas mulkni, sanoat uskunalarini va o‘zga mulkni, transport vositalarini va garovga qo‘yilgan mulkni sug‘urtalashdir. Bizning sug‘urta bozorimiz uchun yangi bo‘lgan, biznesni to‘xtab qolishi va miqyosini kamayishi, ko‘zda tutilmagan harajatlar, debitorning nochorligi (bankrotligi), sudda ishni ko‘rish (tortishuvlar) natijasidagi xarajatlar tufayli, berilgan kafolat bo‘yicha majburiyatni yoki professional javobgarlikni kelib chiqishi natijasidagi tadbirkorlik faoliyatining zararlarida nsug‘urtalash turlarigaetarli darajada e’tibor berilmayapti.

Ixtiyoriy sug‘urta turlarining tarkibida mol-mulk sug‘urtasi 34,6% ni egallagan va mukofotlarning 37,2 mlrd.so‘mga to‘g‘ri kelmoqda. Aralash sug‘urta turlari bo‘yicha esa 23,5 mlrd.so‘m sug‘urta mukofotlari to‘plangan va u ixtiyoriy sug‘urta turlari tarkibida 21,9% ni tashkil etadi.


### **Ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlar taqsimoti**



**Mol-mulk sug‘urtasi-34,6%**

**Javobgarlik sug‘urtasi-2,2%**

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги сўфурта назорати давлат инспекцияси йиллик ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.



Ixtiyoriy sug'urta turlari tarkibida shaxsiy sug'urta turlari 17,6%, avtotoransport sug'urtasi 15,6% ni. Tadbirkorlik risklarini sug'urta qilish bo'yicha 8,1% ni va javobgarlik sug'urtasi turlari 2,2% ni tashkil etgan.

Ixtiyoriy sug'urta shartnomalarining aksariyat qismini mol-mulk sug'urtasi ulushiga to'g'ri keladi. Buning tarkibiga lizing va garov sug'urtasi hamkiradi.

#### **Vazifalar:**

1.1. Yo'l-transport xodisasi sodir etilganda qo'shimcha xizmat ko'rsatishni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi.

1.2. Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda ma'lum bir baxtsizxodisa sodir bo'lganda, sug'urta kompaniyasi tomonidan albatta voqeja joyiga tezda tashrif uysushtiriladi. Voqeja joyiga tezda tashrif uysushtirish ma'lum bir ma'noda sug'urtalanuvchiga dalda va xotirjamlik vazifasini bajarsa yana boshqa bir jihatni ajoyib reklama va tashviqot bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2. Biznesni to'xtab qolishi va miqyosini kamayishi, ko'zda tutilmagan harajatlar, debitorning nochorligi (bankrotligi), sudda ishni ko'rish (tortishuvlar) natijasidagi xarajatlar tufayli, berilgan kafolat bo'yicha majburiyatni yoki professional javobgarlikni kelib chiqishi natijasidagi tadbirkorlik faoliyatining zararlaridan sug'urthalash turlari ko'lамини kengaytirish.

#### **Echim algoritmi:**

1.1. Transport vositalari sug'urthalashda egalarini (fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urthalashda xam) qo'shimcha xizmat ko'rsatishda yo'l-transport hodisasi sodir etilganda tez yordam xizmatini tashkillashtirish, transport vositasi yo'l-transport xodisasi oqibatida zararlanganda evakuatsiya xizmatini tashkillashtirish, tunu-kun faoliyat yurituvchi navbatchilik xizmatlarini tashkil

etish kabi xizmatlarni sanab o‘tishimiz mumkin.

To‘g‘ri respublikamizdaba’zi kompaniyalarda ushbu xizmatlarni uchratish mumkin, lekin ba’zi kompaniyalar misolida ko‘radigan bo‘lsak bu xizmatlarni xali etarli darajada emasligini guvoxi bo‘lishimiz mumkin.

Yo‘l-transport-xodisasi sodir etilganda qo‘srimcha xizmatlarni ko‘rsatish mijozlar uchunanchagina qulayliklarni yuzaga keltiradi hamda shu bilan birgalikda ajoyib reklam avazifasini ham bajaradi.

1.1. Voqea joyiga etib kelgan sug‘urta kompaniyasi vakili bir qancha aniq va kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishi mumkin. Jumladan:

-zararlangan ob’ekt dastlabki holatini ko‘zdan kechirish vafoto suratga olish;

- xaydovchini xushyo rholatda ekanligiga ishonch xosil qilish, xodisani sodir bo‘lish xolati va tavsioti haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish va hokazo.

Sug‘urtalashda ko‘pgina “firibgarlik” asosan xodisadan keyin amalga oshiriladi. Jumladan:

- zarar miqdorini ortiqcha (bo‘rtiri) ko‘rsatish;
- mast holatdagi xaydovchini boshqa xaydovchiga almashtirish;
- xodisani sodir bo‘lish xolati va tavsiotini o‘zgartirish va xokazo.

Voqea joyiga etib kelish xizmati tashkil etilsa, ma’lum ma’noda ushbu harakatlarni oldi olingan bo‘laredi deb hisoblaymiz.

2. Mazkur holatning asosiy sabablari bu sug‘urta kompaniyalarining kapitallarini va hodimlarining tajribasining kamligidir. Mazkur masala respublika sug‘urta bozorining barcha professional ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan. Eksport-import sug‘urtasini barqaror rivojlantirish va tatbiq qilish, horijiy investorlarning mafaatlarini himoya qilish investitsion loyihalarni, tadbirkorlik qaltisliklarini sugurtalash yaqin va o‘rta keljakda rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Albatta eksport shartnomalari sugurtalash, sugurtaning kulamini kengayishiga va Uzbekistonning ekspor tpotentialini oshishiga olibkeladi.

Ushbu yo‘nalishda sug‘urta kompaniyalari, O‘zbekiston sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan birga iqtisodiy rivojlanishning

o‘ziga hos tomonlarini va mijozlarning xaqiqiy talablarini hisobga oluvchi yangi sug‘urta maxsulotlarini keng tadbiq qilishga va mavjudlarini takomillashtirishga barcha xarakatlarni iyo‘naltirishlari zarur.

### Baholash mezonlari

	Baholash mezonlari
	<p>Taqdimot (mazmuni, ma’nosi va xulosalarning isboti uchun) A’lo – 5 baho YAxshi – 4 baho Qoniqarli – 3 baho Qoniqarsiz – 2 baho</p> <p>Muammoli masalaning echimi uchun (to‘g‘riliqi va echimning ketma-ketligi uchun) A’lo – 5 baho YAxshi – 4 baho Qoniqarli – 3 baho Qoniqarsiz – 2 baho</p>

## **KEYS TOPSHIRIQ “SHAXSIY SUG’URTA”**

Sog'lig'idagi muammolar va II- guruh nogironligi borligiga qaramay, fuqaro A.A. Azizov katta kompaniyada dasturchi ishini muvaffaqiyatli bajaradi. Ishdagilavozimi ko'tarilish sababli u yangi kvartira olish uchun ipoteka krediti olishga qaror qiladi. "Davr " bankning kredit bo'yicha mutaxassis A.A Azizov tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni qabul qildi va tekshiradi ,va mijozga hayot va sog'lig'ini sug'urtani olishni qat'iy tavsiya qiladi , aks holda bank kredit olish uchun arizani ma'qullamaydi. A.A Azizov qo'rquv bilan ko'pchilik kompaniyalar nogironlarni umuman sug'urtalashni rad etishini bilgan holda, qolgan kompaniyalar esa faqat gina yuqori darajadagi koffisientdan foydalangan holda shartnomaga tuzishga tayyor edilar.

Nega ko'proq to'lash kerakligini tushunmayotgan A.A Azizov ushbu kompaniya vakili bilan bahsga kirishadi. Sug'urta kompaniyasi vakili uchun vaziyat aniq ko'rinish turardi: nogironlar - bu yuqori xavf guruhidir, kompaniya sug'urta polisining narxini oshirish orqali kompensatsiya olishga harakat qilmoqda. Bu shartga A.A Azizov hech qanday tarzda rozi bo'la olmadi, chunki u o'z tajribasidan kelib chiqib, uning pozitsiyasida bo'lган odamlar , o'z sog'lig'iga ko'proq diqqat va e'tiborlik bilan ahamiyat berishadi . Ammo unga sug'urta shartnomasini tuzish va yangi kvartira sotib olish uchun ipoteka krediti olish yordam bermadi.

Savollar :

1. Topshiriqdagi qahramon qanday xatolikka yo'l qoydi? Va bunday vaziyatda qanday yol tutish kerak?
2. Moliyaviy tashkilotlar bunday vaziyatlarda mijozlarni saqlab qolish uchun qanday yo'l tutish kerak?

3. Kelajakda bunday holatlar oldini olish uchun Davlat va hokimiyat organalri qanday choralar ko'rish kerak?

## **KEYS- TOPSHIRIQ**

Baxtsiz hodisa qurboni sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi.Uning javobgarligi "TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH TO'G'RISIDA"GI qoidalari bo'yicha sug'urta qilingan edi.Baxtsiz hodisa holatlari o'rganilganda zarar etkazilishida aybdor bo'lgan shaxs sugurta polisiga ega emas .

Savol:

1. Jabrlanuvchi va sug'urtalovchining harakatlari qanday bo'ladi?

### **Keys topshiriq**

Yo'l-transport hodisasi natijasida ikkita mashina to'qnashdi. Jabrlangan mashina 23 mln miqdorida zarar ko'rdi, avtoulov egasi aybdor shaxs - 34 mln so'm. Sug'urtani pulini olish uchun qanday imkoniyatlar mavjud? kompensatsiya qoidalari qanaqa hajmda to'lash nazarda tutiladi?

## **“ KEYS TOPSHIRIQ”**

Talaba 2019 yil iyun oyida yotoqhonasi uchun muzlatgich sotib oldi 6 mln narxda, va uni Alfa sug'urta kompaniyasida sug'urta qildi 3 yil muddatga. Xuddi shu yilning sentyabr oyida yillar davomida muzlatgich o'g'irlangan, ammo sug'urta kompaniyasi zararni qoplab berishdan bosh tortadi. Ma'lum bo'lishicha u buvisi uyida ro'yxatda bo'linganligini aniqlandi , u erda yashamagan bo'lsa ham. Talaba kompaniyani sudga bermoqchi?.Bu vaziyatda kim haq?

Topshiriq

- 1.Sug'urta kompaniyasining zararni qoplashdan bosh bosh tortish sabablari?
2. Talaba kompaniyani sudga bermoqchi?.Bu vaziyatda kim haq?

## **KEYS TOPSHIRIQ**

Skuterda ishdan qaytgan Egor avtohalokatga uchradi va kasalxonada davolanmoqda. Ushbu noqulaylik nafaqat Egorni odatdagি hayot tarzidan uzoqlashtirdi, uni ushbu davrdagi daromadidan mahrum qildi, shuningdek davolanish uchun katta moliyaviy xarajatlarni talab qildi. Ayting-chi, bunday holatlar natijasida sug'urta yordamida moliyaviy yo'qotishlarni qanday kamaytirish mumkin?

## **KEYS TOPSHIRIQ**

Tug'ilgan kuni arafasida nafaqaxo'r Nina Ivanovna bozorga kerakli ovqatni sotib olish uchun bordi. Odatda u bunday sayohatlarni trolleybusda qilgan va bu kun bundan mustasno emas edi. Narxini to'laganidan keyin, pensioner konduktor yonidagi o'rindiqqa o'tirdi. Biroq, o'sha payt trolleybus keskin ravishda chayqalib ketdi va Nina Ivanovna chayqalib, tutqichni qattiq urdi. Nina Ivanovna sog'lig'iga

etkazilgan zarar uchun kompensatsiya olish mumkinmi? Agar shunday bo'lsa, qanday qilib?

## **KEYS TOPSHIRIQ**

Ko'chmas mulk kompaniyasi jadal rivojlanish bosqichidan o'tdi. Bugungi kunda kompaniyada 500 dan ortiq kishi ishlaydi. Xodimlarning 60% tajribali agentlar bo'lib, ularning eng katta maoshi bitim uchun foiz sifatida ko'rsatilgan. 30% -stajerlar maksimal foizni olish uchun 1-2 tagacha bitim imzolash kerak. Xodimlarning 10% da bitta yopiq bitim yo'q, ammo ular bo'yicha 1-2 ta bitim tuzilgan.

Ishchilarga shartnomani yopish uchun quyidagi sxema bo'yicha ish haqi to'lanadi:  
? birinchisi - komissiyaning 30 foizi;

ikkinchisi - komissiyaning 35 foizi;

uchinchisi - komissiyaning 40 foizi;

to'rtinchisi - komissiyaning 45 foizi;

beshinchi - komissiyaning 50%

Ko'p foizli tajribali ishchilarining aksariyati rieltorning ishiga qiziqishni yo'qotadilar yoki kompaniyani tark etishga va ularga qulay sharoitlar taklif qilinadigan agentlikni topishga harakat qiladilar.

### **Topshiriq:**

Eng yuqori to'lov foiziga ega bo'lgan xodimlarni moddiy bo'limgan rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish kerak.

## **KEYS TOPSHIRIQ**

Baxtsiz hodisada natijasida jabrlanuvchi su'gurta qoplamasi olish uchun sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi. Sug'urta kompaniyasida mijoz "Transport vositalari egalarininig fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" qoidalariiga muvofiq javobgarligi sug'urtalangan.

Sug'urtalovchi baxtsiz hodisada javobgar shaxs mast holatda bo'lganligini aniqladi.

### **Savol:**

1. Sug'urtalovchi to'loymi rad etish huquqiga egami?
2. Oxir oqibat etkazilgan zararni kim ko'taradi?

## **KEYS TOPSHIRIQ**

BMW X6 avtomobili to'liq CASCO tizimi bo'yicha sug'urta qilingan, sug'urta riski transport vositasiga zarar etkazish bilan birga o'g'irlilik ham ko'rsatilgan. Avtomobil uy egasining yaqinida o'g'irlangan. Avtomobilni topgandan so'ng, egasi politsiyaga qo'ng'iroq qildi. Noma'lum shaxs tomonidan avtomobilni o'g'irlash holati bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgan. Avtomobilning egasi, sug'urta kompaniyasiga hujjatlarning to'liq to'plamini, shuningdek kalitlarning to'liq to'plamini taqdim etadi. Biroq, sug'urta kompaniyasi, ikkita uzatilgan kalitlarning biri asl nusxa emas, balki nussxasi bo'lganiga asoslanib, to'loymi rad etdi.

### **Topshiriq**

Sug'urta kompaniyasi to'loymi rad etdi. Nima qilish kerak?

## **KEYS TOPSHIRIQ**

Vaziyat quyidagicha edi sug'urtalangan shaxs oshqozonida kuchli og'riqlar bo'lgan sababli sug'urta kompaniyasini qo'ng'iroq qiladi va uni zudlik bilan shifokor ko'rigiga yozishni so'raydi. Shunday qilib, o'sha kuni sug'urta kompaniyasining aloqa markazida qiyinchiliklar yuzaga keldi va mijoz bn 2 soat avomida aloqa o'rnatolishmadi

Sug'urtalangan shaxs ozi klinikaga qo'ngiroq qilishga majbur boldi va shifokor korigidan otgandan so'ng o'sha kuni o't pufagida jarrohlik amaliyotini boshdan o'tkazadi.

Keyinroq sug'urta kompaniyasiga pulni qaytarub berishni so'rab murojaat qiladi.

### **Topshiriq**

Nega sug'urta kompaniyasi kompensatsiyani to'lamadi?

## **Masala №1**

Fuqaro D. o‘z avtomashinasida mototsikl bilan YTH ga uchradi. Mototsikl egasining fuqarolik javobgarligi sug‘urtalanmagan, buni ustiga uni voyaga etmagan 15 yoshli bola boshqargan edi. Mototsiklni esa o‘zining bir tanishidan olib mingan ekan. Zararni qoplash uchun sug‘urta kompaniyasiga murojaat etish mumkinmi ?

## **Masala №2**

Kamaz va Neksiya avtomashinalari o‘rtasida YTH sodir bo‘ldi. DAN xodimlari kelib rasmiylashtirgan xujjatlarga ko‘ra, Kamaz avtomashinasiga o‘rnatilgan pritsep Neksiya avtomashinasining old qismiga urilgan edi. Ushbu xolatda, ya’ni pritsep bilan etkazilgan zarar bo‘lsa, sug‘urta kompaniyasi to‘loymi amalga oshiradimi?

## **Masala №3**

Tiko va Lasetti avtomashinalari YTH ga uchradi. YTH natijasida Lasetti mashinasiga o‘rnatilgan gaz ballon shikastanib, mashina portlab yonib ketdi. Sug‘urta kompaniyasi qaysi qaltislik bo‘icha to‘loymi amalga oshiradi? YTX mi, portlashmi yoki yong‘in?

## **Masala №4**

“Anxor” MCHJ skladida qisqa tutashuv natijasida yong‘in chiqib, asbob – uskunalar va tovar-moddiy boyliklar yonib ketdi. Tegishli xujjatlarni rasmiylashtirish, korxona raxbari fuqaro A.ning yurak xastaligi tufayli shifoxonaga yotqizilgani va boshqa sabablar tufayli korxona yong‘in haqida sug‘urta kompaniyasiga oradan 2-oy o‘tgach xabar qildi. Sug‘urta kompaniyasi esa 3-kunlik muddatda murojaat etilmagani uchun rad javobini berdi. Bu to‘g‘rimi?

## **Masala №5**

Kreditga transport vositasi sotib olingan va bir paytning o‘zida KASKO sug‘urta qilingan. Naf oluvchi sifatda Bank ishtirot etgan. 2006 yil 20 oktyabr kuni dizel yoqilg‘isi tashiyotgan TS yonib ketgan. Voqealoyiga GAI xodimlari va

o‘t o‘chiruvchilar chaqirilgan. Biroq, sug‘urta kompaniyasi TS dizel yoqilg‘isidan yongani uchun rad javobi bermoqda. Bu to‘g‘rimi?

### **Masala №6**

Fuqaro N. o‘z farzandlarini baxtsiz xodisalardan sug‘urta qildirgan edi. Bir kuni maktabdan o‘g‘li o‘ng qo‘li gipslangan xolda keldi va maktabda yiqilib tushib qo‘li singanini aytdi. Fuqaro N. qo‘rqib ketib, o‘g‘lini turli shifoxona va mutaxassislarga ko‘rsata boshladи. Bu orada 5 kuncha o‘tib ketdi. Sug‘urta fuqaro N. ning esiga tushib, 6 – chi kuni sug‘urta kompaniyasiga murojaat qildi. Sug‘urta kompaniyasi esa 3 kunlik muddatda murojaat qilmagansiz deb rad javobini berdi. Bu to‘g‘rimi?

### **Masala №7**

Xodim K. mast xolda ishga kelib, stanokda ish boshladи. SHu payt chap qo‘lining barmoqlari tsanok ichiga kirib ketdi. Tegishli xujyatlar rasmiylashtirilgach, korxona ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasiga asosan sug‘urta kompaniyasiga murojaat qildi? Sug‘urta kompaniyasi to‘lovni amalga oshiradimi?

### **Masala №8**

Hech qanday to‘lovsiz eksport sug‘urtasi polisiga asosan, XK “Baxor” tekstil maxsulotlarinii Rossiyaga yubordi. Oradan 2 oy o‘tganiga qaramasdan, eksport qilingan tovarlar uchun to‘lov amalga oshirilmadi. Rossiyadagi sotib oluvchi esa dom- daraksiz yo‘qoldi. Bank eksport kontrakti bo‘yicha valyuta tushmaganligi sababli, tegishli idoralarga xabar berdi. Natijada XK “Baxor” ning mansabdor shaxslariga nisbatan jinoiy ish yuritildi? Zararni qoplash uchun sug‘urta kompaniyasiga murojaat etilgandi to‘lov amalga oshiriladimi?

### **Masala №9**

Harbiy xizmatchi-ofitser xizmat davrida og‘ir jarohat oldi va davolanib chiqib o‘z xizmat vazifasini davom ettirdi va shu orada nafaqaga chiqish muddati etib kelganligi munosabati bilan nafaqaga chiqdi. Nafaqa davrining to‘qqizinchи oyida

u mazkur jarohat oqibatida vafot etdi. SHunday holatda ushbu shaxs uchun uning merosxo‘riga sug‘urta puli beriladimi? Agar berilsa qancha miqdorda?

Javob: beriladi, eng kam ish haqining 7 yilligi miqdorida.

### **Masala.№10**

<b>sug'urta foydasi</b>	sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar - mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xolatlari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisalari tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida maydonga chiqadi.	a measure of a material interest in insurance. As a result of the insurance event Insured material harmful objects - cases of damage to the property or a third party insurer. For example, the insurer vehicles damaged due to road traffic accidents, this property Insured interest income as a measure of insurance and financial interest.
<b>straxovanie pribil</b>		
<b>insurance benefit</b>		
<b>sug'urta bozori</b>	sug'urta himoya (sug'urta xizmati) oldi-sottisi amalga oshirildigan va unga talab va taklif shakillanadigan iqtisodiy pullik munosabatlarni ayrim sohasi.	insurance protection (insurance) probe have been laying down the offer and demand and the formation of economic relations paid in some areas.
<b>straxovoy rink</b>		
<b>insurance market</b>		
<b>sug'urta huquqi</b>	sug'urtalovchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vositachilarning hatti-harakati qoidalari yig'indisi. Sug'urta xuquqi qonun va qonun xujjatlarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi	insurers , insurance intermediaries between them and the sum of the rules of behavior. Insurance rights are reflected in the laws and legislation. Insurance Law is part of the financial law
<b>straxovoe pravo</b>		
<b>insurance Law</b>		
<b>sug'urta qoplamasi</b>	mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi	insurer for property insurance and in front of a third party civil liability insurance for the damage amount of money paid to the insurance fund. May be less than or equal to the amount of insurance indemnity insurance.
<b>straxovoe pokritie</b>		
<b>insurance coverage</b>		
<b>sug'urta mukofoti</b>	sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil	The amount is determined by the percentage of the insurance premiums. The amount of the insurance premium amount can also be expressed. For example, damage to the vehicle owners' civil liability

<b>straxovie vznosi</b>	egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.	insurance premium bill.
<b>sug'urta kompaniyasi</b>		
<b>straxovaya kompaniya</b>		
<b>insurance company</b>	sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'lувчи юридик шахс. У о‘з Низоми асосида фаoliyat yurituvchi mustaqil xo‘jalik sub’ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig‘indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalarini bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko‘ra, ular universal va ixtisoslashgan bo‘ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o‘rtा va kichik guruxlarga bo‘lish mumkin.	carrying out an insurance contract and related legal person your legal relationship with the insurer. It operates on the basis of the Charter of independent businesses. The economic environment, the sum of the insurance companies operating in the insurance implicit. According to the insurance operations carried out by insurance companies, they are universal and specialized. The amount of the authorized capital and in accordance with the amount of insurance premiums received by insurance companies to large, medium and small groups can be.
<b>sug'urta sub'ektlari</b>	sug'urta bozorining professional ishtirokchilari	professional participants in the insurance market
<b>sub'ekti infrastrukturi</b>		
<b>Insurance entities</b>		
<b>sug'urta hodisasi</b>		
<b>straxovoe sobitiye</b>		
<b>insurance event</b>	stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan voqeahodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi devilganda, stixiyali hodisalar, yong‘in, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqalar tushuniladi. SHaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning xayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan «fors-major» deb yuritiladi.	coverage for financial loss because of the cancellation or postponement of a specific event due to weather or other unexpected cause beyond the control of the insured. To qualify for a particular policy at a particular price, companies have the right to ask for information about health and lifestyle. An insurance company will use this information - the evidence of insurability - in deciding if your application for insurance is acceptable and at what premium rate.
<b>sug'urta ekspertizasi</b>		
<b>Straxovanie Ekspertiza</b>	asoslangan xulosa berish maqsadida sug'urta risklarni, sug'urta ob'ektlarni va sug'urta xodisalarni asosiy xususiyatlarini maxsus bilimlar asosida o‘rganib chiqish	in order to draw conclusions based on insurance risk, insurance objects and the study on the basis of knowledge of the main features of the insured event

<b>Insurance Expertise</b>		
<b>sug'urta polisi</b>	sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi xujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.	the document confirming the fact of the insurance contract is designed. The insurance policy must have the following requisites: the insurance company's legal address, the name of the insurer, the insurance objects, the amount of insurance premiums, the contract is valid. The payment of insurance compensation insurance policy, the insurance company is required to provide.
<b>Insurance policy</b>		
<b>sug'urta mukofotlari zaxirasi</b>		
<b>Straxovie vznosi rezervi</b>	hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqrarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarini bajarishda muhim o'rinn tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlarini kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtлari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlardan sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaltiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanimishi mumkin.	life insurance and long-term benefit of the funds for the payment of advance payments of insurance companies. This stock to ensure the financial stability of insurance operations and insurance plays an important role in the implementation of the obligations incumbent. Life insurance contracts are usually concluded in a few years. Premium insurance and the insurance does not pay the amount of time between the receipt of insurance premiums received by the insurance company for a certain period will be empty at the disposal of his case. A portion of premiums received in the rest of the payments are spent for the creation of a reserve fund drawing. The long-term life insurance reserve fund can be used as a credit resource.
<b>Insurance premiums reserves</b>		
<b>sug'urta zaxirasi</b>		
<b>straxovie rezervi</b>	sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtida sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlaridan foydalanimishi mumkin. Sug'urta zahiralariga quyidagilar kiradi: hayotni sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zahiralari va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanimishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi.	In order to guarantee the payment of the sum insured of insurance companies assets. If, at a certain time does not pay insurance premiums for insurance coverage, the insurance company may use the reserve fund. Insurance reserves include the following: life insurance reserve funds to cover losses occurred but did not complain reserves and others. The reserve fund may be used for investment purposes. As a result, the additional income from the insurance company.
<b>insurance reserves</b>		

<b>sug'urta portfeli</b>	sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan ob'ektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. CHet mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.	The sum of the premiums received by the insurance company's portfolio The number of insured objects, the concept of the amount of the insurance portfolio of the insurance contract. Foreign insurance practice of this technique is found in the concept of insurance premiums.
<b>sug'urtalanuvchi</b> <b>zastraxovanniy</b> <b>insured</b>	qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnomasi asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchisi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.	party(ies) covered by an insurance policy.
<b>sug'urta riski</b> <b>straxovanie riskov</b> <b>insurance risk</b>	taxmin qilingan voqebo'lib, ana shu voqeayuz berishdan ehtiyoj shart sug'urta qilish amalga oshiriladi	anticipated event, this event is carried out to give insurance
<b>sug'urta klassifikatsiyasi</b> <b>klassifikatsiya straxovoy</b> <b>Insurance classification</b>	1) sug'urta turlarini ierarxiya ko'rinishida tarmoqlarga, tarmoqchalarga va turlarga bo'linishi. Bunda har bir keyingi bo'g'in oldingi bo'g'inning bir qismi shaklida ifodalanadi. Sug'urta ob'ekti sug'urtaning toifasi, sug'urta javobgarligining hajmi va sug'urta qismining shakli sug'urtani turkumlashning asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. 2) xorij amaliyotida sug'urta turlarini tartiblashtirilgan tizimi. Hozirgi vaqtida Evropa Ittifoqi davlatlarida sug'urtaning yagona klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.	1) the types of insurance hierarchical view of the network, and types. The next level is expressed in the form of a part of the previous type. The object of the insurance category of insurance, insurance, liability insurance and insurance form part of the main classification criteria. 2) the practice of foreign insurance regulatory system. At present, the only qualification of the insurance in the European Union has been developed and implemented.
<b>sug'urtalovchi</b>	tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni	an insurer or reinsurer authorized to write property and/or casualty insurance under the laws of any state.

<b>straxovshchik</b>	(sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs	
<b>insurer</b>		
<b>sug'urta tizimi</b> <b>sistema straxovaniya</b> <b>insurance system</b>	1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi: 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat - huquqiy shakli.	1) different insurance companies and their involvement in the supervision of the insurance sum: 2) the organization of legal relations in the insurance legal form.
<b>sug'urtada ta'rif siyosati</b>  <b>Straxovoy polis tarif</b>  <b>insurance tariff policy</b>	sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta buyicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi	Insurance Risk price; which is a percentage of the insurance gross - rate. Rate ( gross - rate ) consists of two parts: net - rate and the rate of net - load. Net rate represents the cost of the insurance company that the insurance fund.
<b>sug'urta puli</b>  <b>straxovoe vozmeshchenie</b>  <b>insurance money</b>	sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismmini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmalariga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan.	liability insurance, as well as the status of a legal entity in order to ensure the financial stability of the insurance operations, without being able to agree on a number of insurance companies are willing union. Foreign countries, aerospace, nuclear, defense - risk insurance for the insurance money.
<b>tibbiy sug'urta</b>	turli kasallikklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviytibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi.	Insurance coverage sold on an individual or group basis to help fill the "gaps" in the protections granted by the federal Medicare program. This is strictly supplemental coverage and cannot duplicate any benefits provided by Medicare. It is structured to pay part or all of Medicare's deductibles and co-payments. It may also cover some

<b>meditsinskoe straxovanie</b>	Sug‘urtaviy tibbiyat bo‘yicha sug‘urtalangan kontingentga tibbiy sug‘urta polisi beriladi. Sug‘urtalanuvchiga tibbiy sug‘urta polisi bo‘lgan taqdirda tibbiy xizmat ko‘rsatiladi. Bunda tibbiy sug‘urta kompaniyasi, bir tomonidan sug‘urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomonidan tibbiyat muassasalari bilan shartnoma tuzadi.	services and expenses not covered by Medicare. Also known as Medigap" insurance.
<b>insurance medical</b>		
<b>kargo</b>	transport vositasida tashiladigan va sug‘urtalanishi mumkin bo‘lgan yukning nomlanishi.	name of the load which can be carried by the means of transport and insurance.
<b>kargo</b>		
<b>Kargo</b>		
<b>kasko</b>	transport vositasining borti. Kasko sug‘urtasi transport vositasini nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi o‘z ichiga oladi.	board the transport. Kaska insurance covers loss or damage to the transport
<b>kasko</b>		
<b>Kaska</b>		
<b>kaf</b>	tashqi savdo shartnomasi bo‘yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog‘liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo‘yicha tovarlarni sug‘urta qilish tovar etkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.	Foreign specified in the contract of sale of goods (marker) delivery. At the same time, the value of the goods transported on the sea transport costs. This insurance product supplier (seller) is not covered by the obligation
<b>kaf</b>		
<b>KAF</b>		
<b>kovernota</b>	sug‘urta vositachisi tomonidan sug‘urtalanuvchiga beriladigan va sug‘urtalanuvchining sug‘urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi xujjat. Ushbu xujjatda ko‘rsatilgan muddat mobaynida sug‘urta brokeri sug‘urtalanuvchiga sug‘urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug‘urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo‘lgan xujjat hisoblanmaydi.	Insured by the insurance intermediary and the insurer's insurance contract issued document. During the period specified in this document are required to provide insurance broker insurance policy Insured. Because the insurance company kovernota be considered legally valid document.
<b>kovernota</b>		
<b>Kovernota</b>		
<b>konosament</b>	dengiz transportida yuklarni tashish shartlarini ifodalovchi xujjat. Konosament shartnoma mavjudligi faktini va yuk tashuvchini	document expressing the terms of maritime freight transport. Konosament the fact of the existence of the agreement and the

<b>konosament</b>	yukni qabul qilib olganligini tasdiqlovchi xo'jjat. Konosamentga imzo chekishi bilan yukni saqlash, uni tegishli manzilga etkazish mas'uliyati to'laligiga yuk tashuvchi kema zimmasiga o'tadi. Imzolangan konosamentning asl nusxasi sotib oluvchiga yuboriladi va ushbu xo'jjat unga tegishi bilan sotib oluvchi yukning huquqiy egasi hisoblanadi.	acceptance confirming the receipt of the carrier. Sign cargo, it has successfully assumed responsibility to pay the freight ship. Konosament's signed original copy is sent to the buyer and buy touch him the legal owner of the cargo.
<b>Konosament</b>		
<b>Lloyd</b>	1) Angliyadagi xalqaro sug'urta bozori; Angliyadagi sug'urtalovchilarining korporatsiyasi, taxminan 1734 yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda Lloydga 22000 dan ortiq a'zo bor. Uning faoliyati Angliya parlamenti qabul qilgan maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Lloyd sug'urtani barcha turlarini amalga oshiradi. Lloyd a'zolari 279 sindikatga birlashgan bo'lib, sindikat faoliyati uchun anderrayterlar javob beradi. Anderrayterlar bilan sug'urtalanuvchilarini sug'urta vositachilarini birlashtiradi. Sug'urta vositachilarini Lloyd bozorida risklarni joylashtiradi. Anderrayterlar sug'urta shartnomasi bo'yicha javob berish uchun yirik miqdordagi pul mablag'larini korporatsiyaga depozit sifatida qo'yadi.	In England, the international insurance market; UK insurers Corporation, founded in about 1734. Lloyds currently has more than 22,000 members. Its activity is regulated by a special law passed by the Parliament of England. Lloyd carries out all types of insurance. Lloyd sindikat 279 members of the union, sindikat underwriter. Underwriter combines insurance brokers. Insurance brokers Lloyd market risks. Underwriter to respond to the insurance contract on the large amount of funds to the Corporation as a deposit.
<b>Lloyd</b>		
<b>Lloyd</b>		
<b>javobgarlik sug'urtasi</b>	boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin	other persons' life, health or property damage as a result of the contract of insurance against the risk of liability for the obligations arising from a load of liability insurance or other liability risk can be insured.
<b>Straxovanie otvetstvennosti</b>		
<b>Liability insurance</b>		
<b>javobgarlikni sug'urta qilish chegarasi</b>	tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi.	the insurance contract, the insurance company may be established based on the highest levels of responsibility. Reflected in the insurance policy limit of liability of the insurer.
<b>Limit otvetstvennosti straxovshchika</b>		
<b>Limit of liability the insurer</b>		
<b>sug'urta javobgarligi</b>	boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar	other persons' life, health or property damage as a result of the contract

<b>bo'yicha risk</b>	etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtasi.	of insurance against the risk of liability for obligations arising liability insurance on their own or can be another person's risk of liability insurance.
<b>risk straxovaniya otvetstvennosti</b>		
<b>Liability insurance for damage caused</b>		
<b>hayot sug'urta tarmog'i</b>	jismoni shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi.	physical life, health, labor, skills, and interests associated with the supply of money the insurance, the insurance contract at least one year from the time of the contract of insurance, and the insurance money indicated percent including the one-time or periodic payments (annuitie) covers.
<b>sektor straxovaniya jizni</b>		
<b>Life insurance sector</b>		
<b>sug'urta qoplamasini bo'yicha chegara</b>	sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'ba korxonasi tomonidan bitta sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi.	branch office of the insurance company, by a subsidiary of an insurance event, an independent insurance coverage and paid the highest amount. The loss ratio of the sum of the amount of insurance company management, local insurance, retraining and taking into account other factors
<b>Limit straxovogo pokrityiya</b>		
<b>Limit of insurance coverage</b>		
<b>risklarni joylashtirish</b>	1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'ortalash, qayta sug'ortalash va retrotsessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'ortalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta	1) Due to the benefit of the insurance insurance or other legal process. The risk of primary, secondary, tertiary, insurance, reinsurance and retrocessions. The risk of a market-based economy, carried out through insurance brokers and insurance market: 2) insurance brokers at the same time using a large part of the risks and dangerous method to insure more than one insurance company. A number of members were released as one of the leading insurance companies and approved the terms of the contract of insurance risk part of their responsibility. Then, brokers and other insurance companies, the risk to the rest of the place.
<b>nayti riski</b>		
<b>locate risks</b>		

	kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.	
<b>eksedent</b> <b>eksident</b> <b>loss Ekstsedent</b>	noproporsional qayta sug‘urtalash shakli. Bunda sedentga o‘z zimmasida ushlab qolning zarardan oshgan qismi qayta sug‘urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.	noproportional form of reinsurance. At the same time, part of the increased harm to tsedent at your own risk covered by the insurance company.
<b>tibbiy sug‘urta</b> <b>meditsinskaya straxovka</b> <b>medical insurance</b>	aholi sog‘lig‘ini himoya qilish vositalaridan biri. Sug‘urta hodisasi ro‘y berishi munosabati bilan, sug‘urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta kompaniyasi to‘laydi. Tibbiy sug‘urta majburiy yoki ixtiyoriy bo‘ladi.	One of the means to protect the health of the population. In connection with the insurance event, the insurance policy of free medical service. The insurance company pays the costs of medical services. Medical insurance will be mandatory or voluntary.
<b>o‘zaro sug‘urta kompaniyasi</b>  <b>Kompaniya vzaimnogo kreditovaniya</b>  <b>Mutual insurance company</b>	foyda olishni ko‘zlamaydigan notijorat shaklidagi sug‘urta kompaniyasi. Sug‘urta qilishning tashkiliy shakli. O‘zlarining mulkiy manfaatlarini sug‘urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O‘zaro sug‘urtalash jamiyatni yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug‘urtalanuvchi ushbu jamiyatning a‘zosi bo‘ladi. AQSH va Yaponiyada asosan, hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar o‘zaro sug‘urtalash jamiyatni shaklidadir. Hozirgi paytda Yaponiyada o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari hayotni sug‘urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi.	insurance company is to take advantage of commercial. The organizational form of insurance. Their property insurance for the protection of the interests of the combination of legal and physical persons on the basis of a voluntary agreement. Mutual Insurance Society is a legal entity, for each insured member of this society. The US and Japan, mainly engaged in the life insurance companies in the form of a mutual insurance society. Currently, mutual insurance companies in the life insurance market in Japan is 89.4%.
<b>netto-stavka</b> <b>protsentnaya stavka netto</b>  <b>Net rate</b>	brutto–stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto–stavka sug‘urta qoplamasini to‘lashga mo‘ljallangan pul mablag‘lari resurslari bo‘lib, u brutto–stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi.	gross - rate component . Netto - rate sources of funds intended for the payment of insurance compensation , which amount to 90 % of the gross rate.
<b>sug‘urta ob’yekti</b>	shaxsiy sug‘urtada fuqarolarning hayoti, sog‘ligi, mehnat qobiliyati: mulkiy sug‘urtada binolar, qurilmalar, transport	personal insurance of citizens' life, health, ability to work: property insurance for buildings, equipment, vehicles, residential property,

<b>ob'ekt straxovaniya</b>	vositalari, uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlash bilan bog'liq mulkiy manfaatlar; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z hatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati - mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta ob'ekti sug'urta kompaniyasining mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.	cargo and other property interests related to the material values; natural or legal person to hurt a person with his own behavior of civil liability - liability insurance sectors. In order to assess the risk of insurance can be an object of examination by experts of the insurance company.
<b>oferta</b> <b>oferta</b> <b>Offer</b>	asosiy shartlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomasini tuzish taklifi. Sug'urta kompaniyasi ofertani konkret yuridik yoki jismoniy shaxsga yo'llashi mumkin	The main recommendation of the conditions specified in the insurance contract. Insurance companies offer a specific natural or legal person may send
<b>ofshor sug'urta kompaniyasi</b> <b>Straxovaya kompaniya ofshor</b> <b>Offshore insurance company</b>	maxsus maqomga ega bo'lgan sug'urta kompaniyasi. Offshor sug'urta kompaniyalari soliq to'lash stavkalari eng kam bulgan offshor zonalarda (Bermud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalari sug'urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta'sischilar joylashgan davlati organlari tomonidan nazorat etilmaydi.	a special status with the insurance company. Offshore insurance companies of low tax rates in offshore zones (the island of Bermuda, Guernsey and Keymanov Islands). Offshore zones participated in the organization of the implementation of the insurance operations of insurance company shareholders are not controlled by the state bodies
<b>obligatsiya shartnomasi</b> <b>Dopolnitelniy kontrakt obligatsiyi</b> <b>Optional bond contract</b>	sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.	tsedent reinsurance agreement with any of the categories of insurance risk, the insurer is obliged to take them to the relevant reinsurance contracts.
<b>siyosiy risk</b> <b>politicheskiy risk</b>	davlat organlarining hatti-xarakati yoxud uyushgan shaxslar guruhining siyosiy talab bo'yicha chiqishi natijasida vujudga keladigan xavf. Siyosiy riskga urush xarakatlari, siyosiy hokimiyatning yoki tuzumming o'zgarishi, qonun xujjatlaridagi o'zgarishlar, fuqarolarning ommaviy chiqishlari va ish	State authorities regarding the movement of persons or organized group of political risks arising as a result of the demand. The political risk of war, acts of political authority or regime change, changes in legislation, as well as media outlets and strikes, nationalization, confiscated. Time of political risk insurance company from liability.

<b>political risk</b>	tashlashlari, milliyashtirish, konfiskatsiya kiradi. Siyosiy risk ro'y bergan vaqtida sug'urta kompaniyasi javobgarlikdan ozod bo'ladi. CHunki siyosiy risklar, faqat, davlatga qarashli maxsus sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanishi mumkin.	Because of the political risk, the only state - owned insurance companies can be insured.
<b>shaxsiy sug'urta lichnoe straxovanie</b>	sug'urta ob'ekti sifatida fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyatini saqlash bilan bog'liq manfaatlar majmuasi shaklidagi sug'urta tarmog'i. SHaxsiy sug'urta hayot sug'urtasiga va baxtsiz hodisaldardan sug'urtaga va tibbiy sug'urtaga bo'linadi. U riskli va jamg'arma funksiyalariga ega. CHet el tajribasida shaxsiy sug'urta to'rtta sug'urta klassidan iborat bo'lib, inson hayotidagi ro'y berish mumkin bo'lgan hodisalar (tug'ilish, o'lim, voyaga etish, nikohdan o'tish, ma'lum bir yoshgacha yashash) ehtimolligi bilan bog'liq barcha sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda shaxsiy sug'urta-bu uzoq muddatli hayot sug'urtasi, aralash sug'urta va annuitetlardir.	credit insurance that insures the excess of the outstanding indebtedness over the primary property insurance benefits in the event of a total loss to a collateral asset.
<b>ehtimollar nazariyasi Teoriya veroyatnosti</b>	tasodify hodisalarning ehtimolligi bo'yicha o'zaro aloqada bo'lgan boshqa hodisalarning ehtimolligini aniqlash bilan bog'liq matematika fani. Ehtimollar nazariyasi asosida tasodify hodisalarning ro'y berish ehtimolligi katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi. Ehtimollar nazariyasi aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.	the probability of random events related to the bilateral relations with the other to determine the likelihood of events in mathematics. Probability theory on the basis of random events happen that it is likely to be large or small. Probability theory is an important tool in the implementation of actuarial calculations.
<b>Probability theory</b>		
<b>kasbiy javobgarlik professionalnoy otvetstvennosti</b>	chet el tajribasida vrachlarning, advokatlarning, auditorlarning, notariuslarning, buxgalter, arxitektor va boshqa kasb egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasini tasdiqlaydigan sug'urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy amaliyot bilan shug'ullanganlarida, ularda sug'urta polisining bo'lishi majburiydir	coverage available to pay for liability arising out of the performance of professional or business related duties, with coverage being tailored to the needs of the specific profession. Examples include abstracters, accountants, insurance adjusters, architects, engineers, insurance agents and brokers, lawyers, real estate agents, stockbrokers.

<b>professional Liability</b>		
<b>mol-mulk sug'urtasi</b>  <b>straxovanie sobstvennosti</b>  <b>property insurance</b>	turli ko'rinishdagi mol-mulkarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlарining ob'ekti hisoblangan, sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida, nafaqat mol-mulkning sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.	coverage protecting the insured against loss or damage to real or personal property from a variety of perils, including but not limited to fire, lightening, business interruption, loss of rents, glass breakage, tornado, windstorm, hail, water damage, explosion, riot, civil commotion, rain, or damage from aircraft or vehicles.
<b>Proporsional qayta sug'urta</b>  <b>Proporsionalnoe perestraxovanie</b>  <b>Proportional reinsurance</b>	qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish shakli. Bu erda qayta sug'urtalash kompaniyasi sug'urta mukofotlarini umumiy tushumidagi va sug'urta koplamalarini to'lashda o'z ulushiga ega. Proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari kvotali, eksedentli va kvota-eksedentli shartnomalarini o'z ichiga oladi	portion of the losses and premium reinsurer shares with the ceding entity
<b>uzaytirish</b>  <b>prodlit</b>  <b>prolong</b>	o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasini amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin	mutual agreement to extend the term of the insurance contract. Credit can be confirmed in written form
<b>kvota</b>  <b>kvota</b>  <b>quota</b>	1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan bирgalikda tegishli ob'ekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday xolatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish	1) shared by more than one insurance company to contribute towards the object an insurance company. In this case, the quota of each insurance company only reflected in the insurance policy; 2) reinsurance companies to participate in the reinsurance contributions.

	hissasi.	
<b>qayta sug'urta perestraxovanie reinsurance</b>	sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish); sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalarini sug'urta kompaniyalar bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash proporsional va noprroporsional bo'ladi. Proporsional qayta sug'urtalashda, qayta sug'urtalovchining berilgan risk bo'yicha ulushi sedentning o'z javobgarligiga qoladigan qismi aniq bo'lgandan so'ng aniqlanadi. Noprroporsional qayta sug'urtalashda riskni berish tegishli limit doirasida amalga oshiriladi. Bu holda qayta sug'urtalovchi sedentdan sug'urta mukofotining bir qismini oladi (proporsional qayta sug'urtalashdagidek sug'urta summasiga muvofiq keladigan sug'urta mukofotini emas).	insurance risk associated with the economic system (primary risk); the financial stability of the insurer to create a balanced portfolio of insurance and reinsurance operations, received a portion of the risk in order to ensure mutual agreement with the other insurer (secondary risk). According to the reinsurance operations of insurance companies, as well as specialized reinsurance companies.
<b>Kvotali qayta sug'urta Perestraxovanie kvota Reinsurance quota</b>	sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtiroy etadi.	insurance company reinsurance agreement with the company a portion of the risk. This is not a quota agreement was drawn up. Reinsurance company in proportion to the portion of the insurance premium and the insurance company will participate in the review of the compensation .
<b>qayta sug'urtalovchi perestraxovaya kompaniya reinsurance insurer</b>	sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, SHveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatları va sh. k. kiradi	Insurance broker reinsurance for risk acceptance that an individual or a legal entity. Reinsurance risk in the secondary distribution. The insurance company as a reinsurer. The world's largest reinsurance group, Munich reinsurance company, Swiss Reinsurance Company, Cologne reinsurance companies and the city. k. include

<b>qayta sug'urta brokeri perestraxovochniy broker Reinsurance broker</b>	o‘z nomidan va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi tariqasida ishtirot etuvchi sug‘urtalovchining topshirig‘iga binoan qayta sug‘urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs	reinsurance contracts in its own name on behalf of Parties to the insurer, the insurer's reinsurance agreements on the creation and implementation of a legal entity.
<b>rezerv fondi rezervniy fond reserve fund</b>	joriy yilda kelib tushgan sug‘urta mukofotlari hisobidan sug‘urta qoplamasini to‘lash imkoniyati bo‘lmaganda, ushbu sug‘urta qoplamasini to‘lash uchum foydalilaniladigan pul mablag‘lari fondi. Ma‘lumki, sug‘urta xodisalari tufayli ko‘rilgan yo‘qtishlar va zararlar miqdori har yili har-xil bo‘ladi. Ayrim yillari sug‘urta xodisalari kam, boshqa yili esa ko‘proq bo‘lishi mumkin. Agar sug‘urta xodisalari soni ko‘p bo‘lib, ko‘rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug‘urta mukofotlaridan bir necha marta ko‘p bo‘lsa, ularning farqi zahira fondi hisobidan qoplanadi.	this year at the expense of insurance premiums received by the absence of the possibility of payment of insurance compensation fund of funds used to pay for this insurance. It is known that the amount of insurance losses and damages caused by the accident are the same every year. Some of the events of the years of insurance less can be more. If you have insurance for damage caused by a large number of cases received in the current year in the amount of insurance premiums for more than a few times, the difference will be covered by the reserve fund.
<b>Retrosedent retrotsedent Retrotsedent</b>	qabul qilib olingan qayta sug‘urtalash riskini retrotsessiyaga (ikkinchisi qayta sug‘urtalash) beruvchi sug‘urta yoki qayta sug‘urtalovchi kompaniya	received from reinsurance Risk (reinsurance), insurance or reinsurance company
<b>Retrotsessioner retrotsesseoner Retrotsessionary</b>	retrotsedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug‘urtalovchi kompaniya	from retrotsedent risk receiving reinsurance company
<b>Retrosessiya retrotsessiya Retrotsessiya</b>	1) qayta sug‘urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug‘urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish	had received more risks for reinsurance; 2) locate the risk of tertiary

<b>risk</b>	1) bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishni imkoniyati bo'limganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. SHunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisidir. Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, risk-bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamlalar to'laydi. Risk sug'urta ob'ekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Ob'ektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. SHu tufayli risk – bu yagona tasodifiy hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi. Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; 2) sug'urta ob'ekti: 3) sug'urta javobgarligining turi.	The likelihood that an insured event will happen while the policy is in place. For example, in life and health insurance, risk is typically the likelihood that the person insured will die, be injured or get sick. A measure of the possibility that the future may be surprisingly different from what we expect. Downside risk of loss and upside risk of gain.
<b>risk menejmenti</b> <b>upravlenie riskami</b>	riskni kamaytirish yoki chegaralash bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan harakati. Risk menejmentining tarkibiy elementiga quyidagilar kiradi: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni nazorat qilish va riskni moliyalashtirish	A discipline for dealing with the possibility that the future may be surprisingly different from what we expect (see Strategic risk management). Management of the pure risks to which a company might be subject. It involves analyzing all exposures to the possibility of loss and determining how to handle these exposures through practices such as avoiding the risk, retaining the risk, reducing the risk, or transferring the risk, usually by insurance
<b>riskli holatlар</b> <b>situatsii riska</b>	risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlар sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasini sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida hamda	A thorough examination of the exposures of the nonprofit, both insurable and uninsurable

<b>risk situations</b>	sug‘urta qoplamlari va summalarini to‘lashda muhim o‘rin tutadi. Riskli holatlар: shaxsiy va ashyoviy; to‘g‘ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan: ob’ektiv va sub’ektiv turlarga bo‘linadi.	
<b>riskni baholash</b>  <b>otsenka riska</b>  <b>risk assessment</b>	risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko‘rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezoni hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug‘urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e’tibor beriladi. Sug‘urta shartnomasi tuzilgan momentdan, sug‘urtalanuvchining o‘limiga yoki nogiron bo‘lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo‘srimcha ravishda dastlabki tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilishi mumkin. Sug‘urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug‘urta ob’ekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug‘urtalanuvchi bilan sug‘urtaviy huquqiy munosabatlarga kirishishini maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida sug‘urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi	A thorough examination of the exposures of the nonprofit, both insurable and uninsurable. Insurance companies carry out risk assessment work surveyors. He is familiar with the object of insurance, comprehensive analysis. According to the results of the analysis of the insurer insurance legal relations with the insurance company to provide a written opinion on the advisability.
<b>maxsus vakolatli davlat organi</b>  <b>spetsialno - upolnomochenniy gosudarstvennyi</b>  <b>specially - authorized state</b>	sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi.	insurance regulation and supervision of the activities of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan established by the specially authorized state body.
<b>Slip</b>  <b>slip</b>  <b>slip</b>	riskni xarakterlovchi xujjat. Slip sug‘urta brokeri tomonidan tuziladi va anderrayterga beriladi. Slipda sug‘urta kompaniyasining riskni sug‘urtalashdagi hissasi ko‘rsatiladi. Angliyada slip sug‘urta polisiga tenglashtiriladi. Ayrim holatlarda slip sug‘urta qoplamasini to‘lashda asosiy xujjat hisoblanadi.	risk that characterizes the document. Slip formed by insurance brokers and underwriters. Slip the insurance company risk insurance contributions. England slip the insurance policy expired. In some cases, the payment slip insurance document.

<b>syurver</b>	sug‘urtaga tortiladigan mol–mulkni ko‘rikdan o‘tkazuvchi sug‘urta kompaniyasining xodimi. Sug‘urta kompaniyasi syurveynering xulosasi asosida sug‘urta shartnomasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. CHet el amaliyotida yong‘in havfsizligini ta’minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo‘yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.	insurance company employee examination of the taxable property insurance. Syurveyer the company decided on the basis of the conclusion of the insurance contract. The practice of foreign companies specializing in providing fire safety , occupational safety organizations perform the function of syurveyer.
<b>Syurveyr</b>		
<b>Syurveyer</b>		
<b>Shomaj</b>	sug‘urta hodisasi ro‘y berishi natijasida ishlab chiqarishni to‘xtab qolishi bilan bog‘liq foyda olmaslik riskini sug‘urtasi.	As a result of an insurance event associated with the stop of production can not benefit from risk insurance .
<b>shomaj</b>		
<b>Shomaj</b>		
